



Et docere et discere servitute legis

O'ZBEKISTON TERGOVCHISI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
HUQUQNI MUHOFAZA QILISH
AKADEMIYASI

№2 (13) 2026

ILMIY — AMALIY YURIDIK JURNALI

СЛЕДОВАТЕЛЬ УЗБЕКИСТАНА

научно-практический юридический журнал

THE INVESTIGATOR OF UZBEKISTAN

scientific – practical law journal



www.proacademy.uz
ISSN 3093-8910

JURNAL O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
HUZURIDAGI OLIIY ATTESTATSIYA KOMISSIYASI RAYOSATINING 2023-YIL 31-MARTDAGI
335-SONLI QARORI BILAN ILMIY NASHRLAR RO'YXATIGA KIRITILGAN





№2 (13) 2026

O'ZBEKISTON TERGOVCHISI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
HUQUQNI MUHOFAZA QILISH
AKADEMIYASI

Bosh muharrir:
Yevgeniy Kolenko

Mas'ul kotib:
Farhodjon Nazarov

Tahrir kengashi:
Nig'matilla Yo'ldoshev
Baxriddin Valiyev
Salom Samadov
Muzaffar Egamberdiyev
Richard Djoys

Tahrir hay'ati:
Halim Boltayev
Baxtiyor Po'latov
Faxri Raximov
Muzaffarjon Mamasiddiqov
Uyg'un Nigmatjanov
Jahongir Maksimov
Vahobjon Karimov
Adham Odinayev
Baxtiyor Kayumov
Muxtaram Radjapova
Xurshid Karimov
Alisher Hidayatullayev
Istam Astanov
Aziz Xikmatov
Rustam Kabulov
Baxrom Axrorov
Rustam Zufarov

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 2023-yil 23-martda 070684-sonli guvohnoma bilan olingan.
Jurnal O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Rayosatining 2023-yil 31-martdagi 335-sonli qarori bilan yuridik fanlar bo'yicha dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini nashr qilish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.
Muallif fikri tahririyat nuqtayi nazaridan farq qilishi mumkin.
Jurnalda chop etilgan materiallardan foydalanilganda "O'zbekiston tergovchisi" jurnalidan olingan deb ko'rsatilishi shart.
Tahririyat taqdim etilgan materiallarni taqriz qilish va qaytarish majburiyatini olmagan.

Manzil:
100190, Toshkent shahri,
Rixsiliy ko'chasi, 9-uy
veb-site: www.proacademy.uz
e-mail: publish@proacademy.uz

Sahifalovchi:
J. ABDUQAHHOROV
Buyurtma №278-23. Adadi 507
Jurnal «Credo Print» MCHJ kitob fabrikasida chop etildi.
Bosmaxona manzili:
Toshkent sh., Bog'ishamol ko'chasi, 160.
Tel.: 71 234-44-01/05.
www.credoprint.uz

Mundarija/Оглавление/Table of contents

I. XALILOVA	Стандарты этического поведения в правоохранительной системе	3
G'. SHODIYEV	Reabilitatsiya etilgan shaxsga yetkazilgan moddiy zararni qoplash asoslari va mexanizmi	10
U. ASHUROV	Современные проблемы предупреждения киберпреступности в отношении несовершеннолетних.....	16
O'. O'TAYEV	Ekologik ekspertiza talablarini buzganlik uchun yuridik javobgarlikning ayrim muammolari	21
I. KADIROV	Prokuratura organlarining qonun va uning loyihalarini korrupsiyaviy ekspertizadan o'tkazish borasidagi faoliyatini takomillashtirish istiqbollari	27
B. KUDRATOV	Kiberjinoiyatlarga qarshi kurashishga va raqamli tergovga ko'maklashish markazining kiberjinoiyatlarga qarshi kurashishdagi o'rni va ahamiyati	31
I. KONOVALOV, A. KAMALXODJAYEV	Цифровое насилие над детьми и его формы	35
D. OBLAKULOV	Tijoratda pora evaziga og'dirib olish jinoyati tushunchasi: muammo va yechimlar	41
O'. BAHODIROV	O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toraj qilish jinoyatini tergov qilishda taftish va sud-buxgalteriya ekspertizasining ahamiyati	48
N. NAJMITDINOV	Zamonaviy onlayn vositalarning raqamli dalillarni to'plashdagi afzalliklari va nazariy qarashlar	51
D. ORIFJONOV	Роль и правовая природа прокуратуры Узбекистана в защите прав и свобод человека	56
M. MAXMUDOVA	Проблемы квалификации некоторых преступлений с административной преюдицией	62
SH. XODJAYEV	Вопросы совершенствования ответственности за соучастие в преступлении	65
F. ADILKARIYEVA	Konstitutsiyaviy odil sudlov: xorijiy tajribaning qiyosiy-huquqiy tahlili (O'zbekiston va Germaniya misolida)	73
A. SULAYMONOV	Sun'iy intellekt vositalari yordamida sodir etilgan ayrim jinoyatlar uchun jinoiy javobgarlik muammolari	79
I. JURAYEVA	Злоупотребление влиянием как уголовно-правовая категория: понятие, признаки и социальная обусловленность криминализации.....	84
U. MAMADALIYEV	Правовое регулирование экстрадиции в уголовном процессе Республики Узбекистан, практика и направления совершенствования	89



Ирада ХАЛИЛОВА,
Магистр публичного права,
Старший прокурор Научно-образовательного центра Генеральной
прокуратуры Азербайджанской Республики, секретарь Комиссии по
этическому поведению Генеральной прокуратуры

СТАНДАРТЫ ЭТИЧЕСКОГО ПОВЕДЕНИЯ В ПРАВООХРАНИТЕЛЬНОЙ СИСТЕМЕ

АННОТАЦИЯ. Этика — это философская наука, изучающая поведение человека на основе моральных мотивов. В своей статье автор рассматривает этику с точки зрения Аристотеля, Платона, Сократа и Канта, определяет основные и вспомогательные элементы этических теорий, перечисляет этические принципы и затрагивает нормированные этические правила. Проанализированы этические нормы, подлежащие регулированию как во время служебной деятельности, так и вне ее, отраженные в Стандартах профессиональной ответственности, основных правах и обязанностях прокуроров 1999 года, установленных Международной ассоциацией прокуроров, а также в Бангалорских принципах 2001 года и Будапештских принципах 2005 года. На основе проведенного анализа было установлено, что известный философский вопрос этики имеет большое значение при решении сравнительных этических дилемм: “Как мне следует поступить в данной ситуации и считаю ли я такое поведение допустимым по отношению к себе? Если нет, то почему?”. В статье также отмечаются реформы, проведенные в Азербайджанской Республике, в том числе в прокуратуре Азербайджана, связанные с регулированием этического поведения.

ANNOTATSIYA. Etika — bu inson xulq-atvorini ma'naviy motivlar asosida o'rganadigan falsafiy fandır. Maqolada muallif etikani Aristotel, Platon, Sokrat va Kant nuqtayi nazaridan ko'rib chiqadi, etik nazariyalarning asosiy va yordamchi elementlarini belgilaydi, etik tamoyillarni sanab o'tadi va normativ etik qoidalarga to'xtalib o'tadi. Xalqaro prokurorlar assotsiatsiyasi tomonidan 1999-yilda belgilangan Professional mas'uliyat standartlari, prokurorlarning asosiy huquq va majburiyatlari, shuningdek, 2001-yildagi Bangalor tamoyillari va 2005-yildagi Budapesht tamoyillarida aks etgan xizmat faoliyati davomida va undan tashqarida tartibga solinishi lozim bo'lgan etik normalar tahlil qilingan. Tahlillar asosida qiyosiy etik dilemmalarni hal qilishda etikaning mashhur falsafiy savoli katta ahamiyatga ega ekanligi aniqlandi: “Bu vaziyatda men qanday yo'l tutishim kerak va bunday munosabatni o'zimga nisbatan maqbul deb hisoblaymanmi? Agar yo'q bo'lsa, nega?”. Maqolada, shuningdek, Ozarbayjon Respublikasida, shu jumladan, Ozarbayjon prokuratura organlarida etik xulq-atvorni tartibga solish bilan bog'liq islohotlar qayd etilgan.

ABSTRACT. Ethics is a philosophical discipline that studies human behavior based on moral motives. In this article, the author examines ethics from the perspectives of Aristotle, Plato, Socrates, and Kant, defines the primary and secondary elements of ethical theories, lists ethical principles, and touches on standardized ethical rules. Ethical norms to be regulated both during and outside service, as reflected in the Standards of Professional Responsibility, Fundamental Rights and Duties of Prosecutors of 1999, established by the International Association of Prosecutors, as well as in the 2001 Bangalore Principles and the 2005 Budapest Principles, have been analyzed. Based on the analysis, it was determined that the well-known philosophical question of ethics is of great importance in solving comparative ethical dilemmas: “How should I behave in this situation, and do I consider this behavior acceptable? If not, why?”. The article also highlights the reforms carried out in the Republic of Azerbaijan, including within the Prosecutor's Office of Azerbaijan, related to the regulation of ethical conduct.

Ключевые слова: этические теории, этические принципы, правила этического поведения, Кодекс этического поведения, Комиссия по этическому поведению.

Kalit so'zlar: etik nazariyalar, etik tamoyillar, etik xulq-atvor qoidalari, Etika kodeksi, Etika komissiyasi.

Key words: ethical theories, ethical principles, rules of ethical conduct, Code of Ethical Conduct, Ethics Commission.

Эволюция этической мысли: от античных добродетелей к социальной справедливости. Этика представляет собой фундаментальную философскую дисциплину, объектом анализа которой выступает человеческое поведение сквозь призму ценностных ориентиров и моральных стимулов. Исторически сложилось так, что еще в античную эпоху этот предмет определяли как «философию нравов». Этическая концепция Аристотеля Согласно аристотелевскому учению, высшее предназна-

ние этики заключается в векторе развития человеческого духа в сторону Благотетели. Путь к этому лежит через культивацию рационального начала: разум должен доминировать над инстинктивными и эмоциональными порывами до тех пор, пока такое состояние не трансформируется в устойчивую черту характера и привычку. При этом философ признавал утопичность идеи создания социума, целиком состоящего из идеальных личностей. В своих трудах Аристотель фокусировался



на понятии добродетели как инструменте достижения счастья. Ключевым элементом здесь выступает принцип «золотой середины» — сознательный отказ от излишеств и расточительности. Основная дилемма заключается в том, что некоторые находят удовлетворение именно в избыточности. Этическое решение этой проблемы Аристотель видел в способности индивида достигать благополучия, не выходя за рамки коллективных ценностей и, что критически важно, не нанося ущерба окружающим. В правовой плоскости этот принцип можно интерпретировать как реализацию собственных свобод без ущемления законных интересов других лиц. Социальная этика Платона. Подход Платона к этике, хоть и имеет общие корни с аристотелевским, обладает ярко выраженной спецификой. Для него нравственность — это прежде всего категория социальная, а не сугубо индивидуальная. Платоновская концепция базируется на фундаменте справедливости: в структуре «идеального государства» счастье каждого гражданина является естественным следствием гармоничного устройства всего общества. Платон предложил уникальную антропологическую классификацию, разделяя людей на три категории в зависимости от доминирующей составляющей их души:

Рациональный тип: Личности, ведомые разумом, воплощают мудрость. Им свойственна прямолинейность, приверженность истине и чувство справедливости.

Аффективный тип: У данных людей преобладает эмоционально-волевой центр, что проявляется в исключительной отваге, мужестве и героизме.

Сензитивный (страстный) тип: Те, кем движут чувства и потребности, чаще всего находят свое призвание в созидательном физическом труде. Несмотря на то, что в каждом человеке присутствуют все три элемента, гармония личности и ее ме-

сто в социуме определяются именно преобладающими началами.

Согласно философскому наследию Сократа, фундаментом этического понимания является процесс самопознания. Он утверждал, что постижение собственной природы выступает первичной целью любого познавательного процесса. Его знаменитый афоризм «Познай самого себя, и ты познаешь Вселенную и богов» находит отражение в современной концепции эмпатии — способности глубокого понимания другого через призму собственного внутреннего опыта. Тем не менее, Сократ подчеркивал избирательность этого процесса: сопереживание не должно приравниваться к принятию ложных убеждений или деструктивных взглядов.

Иммануил Кант в своей этической системе стремился обосновать неразрывную связь между человеческим разумом и эмпирическим опытом. В его философии особое внимание уделяется гармонизации теоретических установок и их практической реализации в поведении индивида. Кант настаивал на необходимости анализа глубинных мотивов поступка: моральный акт теряет свою этическую чистоту, если он продиктован личной заинтересованностью или поиском выгоды. Для Канта истинная нравственность самоценна — она должна соблюдаться исключительно в силу её внутреннего достоинства и долга.

Исторически этические воззрения сформировались как реакция на системные противоречия между интересами социума и потребностями отдельной личности. Эти социально-нравственные столкновения легли в основу различных теоретических школ:

Теория абсолютизма: рассматривает нравственность как незыблемый и универсальный стандарт. Данное направление аккумулирует идеи Платона, Аристотеля и Канта, признавая мораль высшим



мерилом человеческой деятельности.

Эвдемонизм: в качестве центрального критерия нравственности выделяет стремление к счастью. При этом подчеркивается, что подлинное благополучие достижимо только в рамках этических норм, что перекликается с выводами Аристотеля.

Релятивизм: акцентирует внимание на практической стороне этики и изменчивости норм в зависимости от контекста, что находит точки соприкосновения с кантовским учением о практике.

Гедонизм: провозглашает достижение удовольствия высшим жизненным приоритетом. Несмотря на то, что удовлетворенность важна для психоэмоционального здоровья, абсолютизация удовольствия как единственной цели зачастую вступает в конфликт с фундаментальными этическими ценностями, что делает элементы этой теории условными и относительными¹.

Особенность этики заключается в её дуализме: она сочетает в себе абстрактные философские размышления и конкретные элементы реальности. Этика перестала быть сугубо кабинетной дисциплиной, превратившись в действенный инструмент регулирования общественных отношений. Поскольку она напрямую связана с действиями человека, её принципы формируют как позитивные, так и негативные паттерны взаимодействия в обществе.

При всей кажущейся простоте определений, следование этическим нормам на практике представляет собой сложную задачу. Подлинная культура поведения требует не просто формального соблюдения протокола, а глубокой внутренней приверженности этическим принципам в любой жизненной или профессиональной ситуации.

Этические принципы



Культура этического поведения означает не только умение вести себя вежливо. Конечно, вежливость является одним из основных элементов культуры поведения, однако по сути важно также быть этичным — то есть честным, добросовестным, ответственным, беспристрастным и, прежде всего, справедливым. Однако здесь существует тонкая грань: в неэтичной среде неэтичные правила допустимы, таким образом существует вероятность того, что этичный человек окажется в невыгодном положении. Причина в том, что у этического человека есть моральные границы, а у неэтичного — таких границ нет. Поэтому формирование этической среды должно происходить до формирования этических людей.

Нарушение этических норм поведения представляет серьезную угрозу социальной справедливости, замедляет развитие, снижает удовлетворенность граждан и подрывает доверие к правоохранительным органам, что, в свою очередь, снижает уверенность людей в продвижении и реализации новых инициатив. Поэтому крайне важно предотвращать этические нарушения. Для предотвращения наруше-

¹ Методическое пособие «В контексте национального и международного законодательства: правила этического поведения и понятие частной жизни» – Научно-образовательный центр Генеральной прокуратуры Азербайджанской Республики – Баку, 2024, 116 стр.



ний, а также для решения сравнительных этических дилемм, в обиход вступает известный вопрос этики: *"Как мне следует поступить в данной ситуации и считаю ли я такое поведение допустимым по отношению к себе? Если нет, то почему?"*.

Поскольку понятие личности многообразно, для предотвращения негативных этических проявлений были нормированы правила этичного поведения. Критерии правил поведения, связанных с официальной деятельностью, установленные в международных нормативно-правовых актах, непосредственно отражены в «Стандартах профессиональной ответственности, основных прав и обязанностей прокуроров» 1999 года, принятых Международной ассоциацией прокуроров. Здесь обращается внимание на признаки, включающие принципы независимости и беспристрастности, общие стандарты основных прав, обязанностей и ответственности прокуроров, а также специальные стандарты роли прокуроров в уголовном процессе. В соответствии с общими стандартами, прокуроры:

- *всегда должны поддерживать честь и достоинство своей профессии;*
- *должны придерживаться самых высоких стандартов честности и внимательности;*
- *всегда вести себя профессионально в соответствии с законом и профессиональной этикой;*
- *должны защищать интересы общества и своей профессии;*
- *должны быть независимыми и беспристрастными;*
- *всегда быть в курсе изменений в действующем законодательстве;*
- *должны уважать и поддерживать универсальную концепцию человеческого достоинства и прав.*

В документе выделены нормы, предусматривающие независимость и беспристрастность прокуроров. Согласно

установленным стандартам, связанным с независимостью прокуроров, их полномочия должны осуществляться самостоятельно и без политического вмешательства. Указания или поручения, адресованные прокурорам, должны быть прозрачными, законными и согласовываться с принципом сохранения независимости.

Согласно стандартам, установленным в отношении беспристрастности прокуроров, они должны исполнять свои обязанности без стремления к выгоде и без колебаний, а также не причиняя ущерба правам других лиц. В этом направлении они:

- *не должны подвергаться влиянию интересов отдельных лиц или групп, давлению со стороны общества или средств массовой информации и должны с уважением относиться к интересам общества;*
- *должны уметь действовать объективно в любой ситуации, независимо от того, улучшает это положение подозреваемого или ухудшает его;*
- *должны всегда настаивать на раскрытии правды, оказывать содействие суду в этом вопросе и применять законное и справедливое решение как для потерпевшей стороны, так и для обвиняемого.*

Как уже было отмечено, в правовом акте установлены стандарты уголовного процесса. Активность, добросовестность, порядочность, порядок и оперативность являются элементами, определяющими эти стандарты. Для обеспечения соблюдения этих стандартов прокуроры в уголовном процессе:

- *должны соблюдать профессиональную тайну и, участвуя в расследовании преступлений, а также осуществляя надзор за полицией или следователями, выполнять свои полномочия объективно, беспристрастно и профессионально, обеспечивая соблюдение закона и прав человека со стороны следственных органов;*
- *изучать доказательства, чтобы убедиться, что они получены в соответ-*



ствии с Конституцией и законом, отказываться от использования доказательств, полученных незаконным путем с грубым нарушением прав обвиняемого, а именно, путем пыток и жестокого обращения, стремиться к обеспечению принятия надлежащих мер против тех, кто применяет такие методы, и при возбуждении уголовного дела полагаться только на подтвержденные доказательства;

- в соответствии с местным законодательством и требованиями справедливого судебного разбирательства, должны обеспечить информирование потерпевших и свидетелей об их правах, учитывать их законные интересы и возможные проблемы в случае затрагивания их личных интересов, а также разъяснить им право на обжалование в вышестоящую инстанцию и суд для возмещения ущерба;

- должны в соответствии с национальным законодательством и требованиями справедливого судебного разбирательства совместно с судом и другими соответствующими органами обеспечивать защиту прав всех участников уголовного процесса, включая обвиняемого, а также гарантировать его как можно более своевременное информирование о ходе досудебного производства;

- в ходе уголовного процесса обвинение по делу должны выдвигать в строгой и сдержанной форме, но при этом справедливо и исключительно в соответствии с доказательствами;

- должны учитывать возможность отказа от обвинения, прекращения производства, а также, в частности, выделения производства по уголовным делам в отношении несовершеннолетних в соответствии с требованиями национального законодательства и права на справедливое судебное разбирательство, и с уважением относиться к правам подозреваемых и потерпевших;

- при осуществлении своих полномочий должны учитывать общественные интересы и быть беспристрастными и объективными при вынесении рекомендаций.

Стандарты профессиональной ответственности, основных прав и обязанностей прокуроров, установленные Международной ассоциацией прокуроров, регулируют как внутреннее, так и внешнее сотрудничество. Было отмечено, что сотрудничество прокуроров с судьями, адвокатами, полицией, а также другими национальными и международными государственными органами направлено на обеспечение эффективности и справедливости уголовного преследования. Что касается специфики отношений прокуроров со своими коллегами, было отмечено, что сотрудничество должно основываться на взаимопомощи и поддержке.

Правовой документ, определяющий стандарты профессиональной ответственности, основных прав и обязанностей, содержит нормы, касающиеся гарантий прокуроров. Отмечается, что для обеспечения самостоятельного выполнения профессиональных обязанностей и, в целом, для обеспечения деятельности в соответствии с перечисленными стандартами, прокуроры должны быть защищены государством от любых произвольных действий. Это означает, что прокуроры должны настойчиво выполнять свои профессиональные функции независимо от угроз, препятствий, вмешательства и других способов воздействия, а в случае возникновения угрозы их личной безопасности в результате надлежащего исполнения профессиональных обязанностей должны приниматься эффективные меры для обеспечения защиты и безопасности как самих прокуроров, так и членов их семей. Предусматривается, что прокуроры:

- должны иметь возможность трудоустройства на справедливой и беспристрастной основе, с учётом про-



фессиональных качеств, способностей, трудолюбия, опыта и честности, основанных на объективных факторах;

- должны обеспечиваться соответствующими условиями труда и льготами, соответствующими их деятельности, а также оплатой, которая не может быть необоснованно снижена;*

- должны обеспечиваться в соответствии с условиями труда и другими факторами стажем работы, пенсионным возрастом и пенсией;*

- должны иметь право на быстрое и справедливое рассмотрение жалоб в отношении сотрудника прокуратуры за действия, не связанные с исполнением профессиональных обязанностей, а также на объективное принятие решения при применении к нему дисциплинарных мер;*

- иметь право вступать в ассоциации или другие организации, не запрещенные законом, с целью представления своих интересов, обеспечения своей профессиональной подготовки и защиты своего статуса;*

- должны иметь право не исполнять незаконный приказ, противоречащий профессиональным стандартам и этике.*

Подобные нормы также отражены в Бангалорских принципах поведения судей 2001 года и Европейских руководящих принципах по этическому поведению сотрудников прокуратуры 2005 года (Будапештские принципы).

Нормы, регулирующие личное поведение, отражены в международных правовых документах, включая Бангалорские принципы 2001 года и Будапештские принципы 2005 года. В Бангалорских принципах в целом отмечено, что судья не должен заниматься деятельностью, несовместимой с исполнением судебных функций. В содержании принципов конкретно отмечено, что не следует допускать ситуаций, способных создавать впечатление влияния на поведение, чтобы

избежать нанесения ущерба личной или деловой репутации. В них также говорится, что принятие или просьба о подарках, займах, наследстве или любой другой форме помощи от члена семьи или другого лица, влияющего на выполнение обязанностей, недопустимы.

В Азербайджанской Республике проведена большая работа по регулированию этического поведения. В большинстве сфер установлены требования к правилам этического поведения. Содержание нормативно-правовых документов устанавливает нормы, касающиеся регулирования правил поведения как в служебное, так и во внеслужебное время, а также выделяет специальные нормы наряду с общими нормами о проявлениях коррупции.

В пункте 5.10 «Стратегии развития государственной службы в Азербайджанской Республике на 2019–2025 годы», утвержденной Указом Президента Азербайджанской Республики № 739 от 23 ноября 2018 года, направленной на формирование корпуса государственных служащих, обладающих высокими моральными и этическими ценностями, знаниями, навыками и положительными личностными качествами, предусмотрено учреждение должности уполномоченного по вопросам этики, ответственного за применение правил этического поведения в государственных органах, обучение в этой области и разрешение споров. В рамках проводимых в этом направлении мер в Закон «О правилах этического поведения государственных служащих» была внесена статья 21-1 под названием «Уполномоченный по этическому поведению».

Поскольку в последние годы расширились меры по вопросам этического поведения прокуратура также поставила перед собой цель добиться положительных результатов в этой области. В связи с этим в «Правилах организации деятельности



Генеральной прокуратуры Азербайджанской Республики», утвержденных решением Коллегии Генеральной прокуратуры Азербайджанской Республики от 30 июля 2020 года, уже предусмотрен отдельный механизм рассмотрения подобных обращений, и 5 августа 2020 года впервые в истории прокуратуры была учреждена Комиссия по этическому поведению.

Решением Коллегии Генеральной прокуратуры от 27 декабря 2022 года был утверждён новый Кодекс этического поведения сотрудников прокуратуры Азербайджанской Республики, который всту-

пил в силу с 1 января 2023 года.

В рамках курсов, тренингов и мероприятий посвященных этическому регулированию слушатели были проинформированы о сформированной модели этического поведения.

Таким образом, правила этики существовали со времен древних цивилизаций и до наших дней, а нормирование этих правил началась в прошлом веке. В следующем столетии Генеральная Ассамблея Организации Объединенных Наций учредила 5 апреля как Международный день этики.

.....
#



G'ulom SHODIYEV,

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi markaz katta prokurori,
yuridik fanlar doktori, dotsent

REABILITATSIYA ETILGAN SHAXSGA YETKAZILGAN MODDIY ZARARNI QOPLASH ASOSLARI VA MEXANIZMI

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada jinoyat protsessida oqlangan yoki shaxsga nisbatan yuritilgan jinoyat ishi rehabilitatsiya asoslariga ko'ra tugatilgan hollarda shaxsga nisbatan yetkazilgan moddiy zararni qoplash asoslari, uni amalga oshirish mexanizmi hamda ularni takomillashtirish yuzasidan protsessualchi olimlar tomonidan berilgan ilmiy-nazariy ta'riflar o'rganilgan hamda tahlil qilingan. Muallif tomonidan Jinoyat-protsessual kodeksidagi rehabilitatsiya asoslariga ko'ra jinoyat ishi tugatilganda yoki shaxs oqlanganda unga nisbatan yetkazilgan moddiy zararni qoplash asoslari va uni amalga oshirish mexanizmlaridagi noaniqlik va tushunmovchiliklarni bartaraf etish bo'yicha takliflar keltirilgan.

АННОТАЦИЯ. В настоящей статье исследованы и проанализированы научно-теоретические подходы, выработанные учёными-процессуалистами, касающиеся оснований возмещения имущественного вреда, причинённого лицу в случаях его оправдания в уголовном процессе либо прекращения уголовного дела в отношении данного лица по реабилитирующим основаниям, а также механизмов реализации такого возмещения и направлений их совершенствования. Автором выработаны предложения, направленные на устранение существующих неопределённостей и коллизий в механизмах возмещения имущественного вреда, причинённого лицу при прекращении уголовного дела по реабилитирующим основаниям либо его оправдании, предусмотренных уголовно-процессуальным законодательством.

ABSTRACT. This article examines and analyzes scientific and theoretical approaches developed by procedural law scholars regarding the grounds for compensation of pecuniary damage caused to a person in cases where such person has been acquitted in criminal proceedings or where criminal proceedings against the person have been terminated on rehabilitative grounds, as well as the mechanisms for implementing such compensation and the ways of improving them. The author proposes measures aimed at eliminating ambiguities and inconsistencies in the mechanisms for compensation of pecuniary damage caused to a person upon termination of criminal proceedings on rehabilitative grounds or acquittal, as provided for by criminal procedural legislation.

Kalit so'zlar: moddiy zarar, xarajat, yo'qotish, moddiy zararni qoplash.

Ключевые слова: имущественный вред, расходы, убытки, возмещение имущественного вреда.

Key words: pecuniary damage, expenses, losses, compensation for pecuniary damage.

Jinoyat protsessida jinoyat ishini yuritishga vakolatli bo'lgan organlar va mansabdor shaxslarning harakatlari hamda qarorlaridan jabrlangan shaxslarga yetkazilgan zararlarni qoplash institutini amalga oshirishning tashkiliy-huquqiy mexanizmining ishlashi yetkazilgan moddiy zarar hamda ma'naviy ziyonni qoplash hamda boshqa huquqlarini tiklash jarayonida yuzaga keladigan ijtimoiy munosabatlarni tartibga soluvchi aniq huquqiy normalarni amalda qo'llash bilan ajralib turadi, shu munosabat bilan shaxsga nisbatan yetkazilgan zarar, ziyonni qoplash va uning boshqa huquqlarini tiklash bilan bevosita bog'liq bo'lgan huquqiy qoidalarni o'rganish ularni huquqiy tartibga solishning eng dolzarb muammolarini aniqlash va uni takomillash-

tirish yo'nalishlarini ishlab chiqish nuqtayi nazaridan muhim hisoblanadi.

JPKning 302-moddasi 1-qismiga ko'ra, rehabilitatsiya qilinganlarga mulkiy zararni qoplash va ma'naviy ziyon oqibatlarini bartaraf etishni nazarda tutishiga e'tibor qaratiladi. Bu JPKning 302-moddasida keltirilgan asoslar bo'yicha qabul qilingan qarorning xususiyatidan qat'i nazar, shaxs rehabilitatsiya qilingan deb nomlanganligi bilan izohlanadi. Darhaqiqat, mulkiy zararni qoplash haqida gap ketganda, unga bo'lgan huquq, qayd etilganidek, ancha keng doiradagi shaxslarga ega.

JPKning 304-moddasi 1-qismiga ko'ra, rehabilitatsiya etilgan shaxsga ushbu Kodeksning 302 va 303-moddalarida ko'rsatilgan qonunga xilof harakatlar bilan yetkazil-



gan mulkiy ziyon to‘la hajmda qoplanadi.

JPKning 304-moddasida keltirilgan ro‘yxatga ko‘ra, mulkiy zararni qoplash ish haqi, pensiyalar, nafaqalar va rehabilitatsiya qilingan shaxs jinoiy javobgarlikka tortilishi natijasida yo‘qotgan boshqa daromadlarni qoplashni o‘z ichiga oladi; mol-mulk musodara qilingan yoki davlat foydasiga o‘tkazilgan sudning ajrimi; sud hukmini ijro etishda undiriladigan jarimalar va protsessual xarajatlar; yuridik yordam ko‘rsatganlik uchun to‘lanadigan summalar; boshqa xarajatlar¹.

Bu yerda shuni ta’kidlash kerakki, mazkur normada jinoyat protsessi davomida mansabdor shaxslarning harakatlari natijasida shaxsga yetkazilishi mumkin bo‘lgan zararlarning to‘liq ro‘yxati mavjud emas. Shuningdek, jabrlangan shaxsni, masalan, yo‘qotilgan foyda, asossiz ayblovlar, sudlanganlik va tugatilgan jinoyat ishi (jinoiy ta’qib) tufayli olingan ruhiy zo‘riqish bilan bog‘liq kasallikni davolashga sarflagan mablag‘lari uchun qoplashni rad etishga imkon beradigan hech qanday cheklovlar mavjud emas.

Bu borada M.V.Orlova² va T.Tadjiyev³ ham shunga o‘xshash fikrlarni bildirib o‘tgan va mazkur olimlar jinoyat protsessi rehabilitatsiya qilinishi lozim bo‘lgan shaxslarni jinoyat jarayonida ruhiy bosim ostida bo‘lganligi natijasida yetkazilgan zararni qoplash huquqini cheklamasligi lozimligini ta’kidlashgan.

Bizningcha, mavjud noaniqlik dastlab sudlar tomonidan chiqarilgan qarorlarning yuqori sud instantsiyalariga shikoyat qilinish hollarida ko‘rinadi.

JPKning 304-moddasi 1-qismi 6-bandida bu “zarar” deganda yo‘qotishlar haqida emas, balki “xarajatlar” degan ma’noni anglatadi. Bunda rehabilitatsiya qilingan shaxs

tomonidan to‘g‘ridan-to‘g‘ri jinoyat sodir etish paytida qilingan xarajatlar deb tushunilishi kerak. Jinoiy javobgarlikka (masalan, mutaxassisni jalb qilish munosabati bilan) va uning noqonuniy yoki asossiz jinoiy javobgarlikka tortish oqibatlarini bartaraf etish uchun qilgan xarajatlari, shu jumladan, rehabilitatsiya, sog‘lig‘ini tiklash va boshqa masalalarini ko‘rib chiqish bilan bog‘liq xarajatlarni qoplashni, yuridik yordam ko‘rsatilishi uchun shaxs tomonidan advokatlar byurosiga, hay’atiga yoki firmasiga to‘langan pul, shuningdek, unga nisbatan sodir etilgan qonunga xilof harakatlar natijasida qilingan boshqa xarajatlar.

“Yo‘qotishlar” tushunchasi kengroq ma’noni qamrab oladi. Unda jabrlangan shaxs tomonidan olingan barcha mumkin bo‘lgan zararlarni, shuningdek, jinoiy javobgarlikka tortish natijasida, jinoyat ishini yuritish jarayonida yoki kompensatsiya va uning buzilgan, mahrum etilgan huquq hamda cheklangan erkinliklarini tiklash choralari amalga oshirish paytida hamda uning davomida kelib chiqqan xarajatlar nazarda tutiladi.

Tadqiqot davomida mahalliy budjet mablag‘lari hisobidan 2021 – 2024-yillar davomida jinoyat ishlari bo‘yicha sudlar tomonidan chiqarilgan oqlov hukmlari, rehabilitatsiya bilan bog‘liq tugatilgan jinoyat ishlari bo‘yicha rehabilitatsiya etilgan shaxslarga to‘langan mablag‘lar e’tiborga molik. Xususan, 2021 – 2024-yillar davomida jami 3 111 ta jinoyat ishlari bo‘yicha umumiy 234 mlrd. 467 mln. so‘mdan ko‘proq mablag‘lar mahalliy budjetdan to‘lab berilgan bo‘lib, yillar kesimida quyidagicha ko‘rinish aks etmoqda. 2021-yilda 904 ta ish bo‘yicha 41 mlrd. 204 mln. so‘mdan ortiq, 2022-yilda 875 ta ish bo‘yicha 51 mlrd. 911 mln. so‘mdan ortiq, 2023-yilda 796 ta ish bo‘yicha 82 mlrd.

1 O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi // <https://www.lex.uz/acts/111460>

2 Орлова М.В. Спорные вопросы реабилитации невиновных по уголовным делам / М. В. Орлова // Российский следователь. 2005 г. № 5. – С. 6-8.

3 Таджиев Т. Реабилитация в советском уголовном процессе. Ташкент, 1986. С. 12; Уголовный процесс: сборник учебных пособий. Общая часть. Вып. 1.М.: ИМЦ ГУК МВД России, 2002 г. – С. 279.



583 mln. soʻmdan ortiq va 2024-yilda 536 ta ish boʻyicha 58 mlrd. 768 mln. soʻmdan ortiq pul mablagʻlari toʻlab berilgan.

Yuqoridagi statistik maʼlumotlar tahlilidan maʼlum boʻlmoqdaki, yillar kesimida oqlangan yoki reabilitatsiya asosiga koʻra tugatilgan jinoyat ishlari boʻyicha daʼvolar soni kamayib borgan boʻlsa-da, mazkur daʼvolar boʻyicha qoplangan pul mablagʻlari miqdori ortib borgan. Bundan maʼlum boʻlmoqdaki, reabilitatsiya instituti boʻyicha faqatgina jinoyat ishi boʻyicha sarflangan xarajatlardan tashqari boshqa mablagʻlar uchun ham daʼvolar kiritib borilmoqda.

Maʼlumki, JPKning 304-moddasi 1-qismi 6-bandida "boshqa xarajatlar" tushunchasi keltirilgan, shuningdek, 304-moddaning 1-qismi 1–5-bandlarida keltirilgan barcha zarar turlari hamda xarajatlar ham mavjud, masalan, ish haqi, pensiyalar, musodara qilingan yoki davlat foydasiga oʻtkazilgan mulk.

Bu yerda bizning fikrimizcha, bartaraf etilishi kerak boʻlgan noaniqlik mavjud. Shu munosabat bilan biz JPKning 304-moddasi 1-qismi 6-bandini quyidagi tahrirda, yaʼni "*koʻrilgan boshqa zararlar*" deb bayon qilishni taklif qilamiz.

Koʻrsatilgan zararlarning har biri uchun mulkiy zararni qoplash jarayonida amalda obyektiv ravishda aniqlangan muammolar paydo boʻladi, ularning huquqiy tabiati va sabablarini keltirib chiqaradi. Qoplanadigan zarar turlarini oʻrganish shuni koʻrsatadiki, aksariyat hollarda biz pul kompensatsiyasi haqida toʻxtalamiz.

JPKning 211-moddasi, musodara qilingan yoki davlat foydasiga oʻtkazilgan mulkni hukm yoki sud qarori bilan qaytarishni nazarda tutadi.

Yuqoridagi modda talabi boʻyicha qonuniy egasiga qaytariladigan mol-mulk musodara qilinishi mumkin boʻlmagan qoidalar nazarda tutilgan, chunki musodara qilish masalalarini hal qilishda jinoyat natijasida yetkazilgan zarar birinchi navbatda qoplanadi.

Musodara qilinadigan mol-mulk qiymatidan, agar aybdor undirilishi mumkin boʻlgan boshqa mol-mulkka ega boʻlmasa, huquq egasiga yetkazilgan zarar qoplanadi.

Jinoyat-protsessual kodeksining 203-moddasida jinoyat sodir etish natijasida olingan pul, qimmatbaho buyumlar va boshqa mol-mulk ashyoviy dalil ekanligi taʼkidlangan. Binobarin, muayyan jinoyat ishi boʻyicha sud jarayonida u dastlab ashyoviy dalillar maqomiga ega boʻladi. Jazo tayinlashda sud tomonidan hal qilinadigan masalalar quyidagilarni oʻz ichiga oladi: musodara qilinadigan mol-mulk jinoyat sodir etish natijasida olinganmi yoki bu mol-mulkning tushumi, jinoyat vositasi sifatida ishlatilganligi yoki ishlatilishi maqsadga muvofiq ekanligi isbotlanganmi?

Shu bilan birga, JPKning 304-moddasi 1-qismi 5-bandiga binoan, hukm yoki sud qarori asosida musodara qilingan yoki davlat foydasiga oʻtkazilgan mol-mulk qoplashi kerak.

Jinoyat ishi sudgacha ish yuritish bosqichida tugatilganda dastlabki tergov organlari jinoyat ishini tugatish va ashyoviy dalillar masalasini hal qilish toʻgʻrisida (Jinoyat-protsessual kodeksining 374-moddasi 1-qismi 5-band) qaror qabul qilishlari shartligi belgilangan boʻlsa-da, JPKning 304-moddasi 1-qismi 5-bandida faqat sudning hukmini ijro qilish vaqtidagi holatlar bayon etilgan.

Tadqiqot natijalari mazkur nuqtayi nazarini soʻzsiz qabul qilish imkonini bermaydi, chunki Oʻzbekiston Respublikasi JPKning 304-moddasi 1-qismi 5-bandida nazarda tutilgan zararni qoplash bilan bogʻliq masalalarni huquqiy tartibga solish tahlili boshqa xulosalarni chiqarishga olib keladi.

Birinchiidan, birinchi instantsiya sudining hukmi yuqori sud tomonidan apellyatsiya, kassatsiya yoki taftish tartibida koʻrib chiqish muddati tugaganidan keyin qonuniy kuchga kirishini hisobga olgan holda, musodara qilingan yoki davlat foydasiga oʻtkazilgan.



zilgan mol-mulk haqida faqat hukm qonuniy kuchga kirganidan keyingina gapirish mumkin. Biroq, garov davlat daromadiga, shu jumladan, jinoyat protsessining sudgacha bo‘lgan bosqichlarida ham qo‘llanilishi mumkinligini yodda tutish kerak.

Ikkinchidan, ko‘char yoki ko‘chmas mulkni davlat foydasiga o‘tkazish haqida faqat sud qarori qonuniy kuchga kirganidan keyingina gapirish mumkin. Ushbu holatlar ishdan manfaatdor ishtirokchilarning huquqlarini amalda ta‘minlash uchun O‘zbekiston Respublikasi JPKning 304-moddasi 1-qismi 5-bandida nazarda tutilgan zararni qoplashni talab qilgan-da ahamiyatga ega bo‘ladi.

Bu borada V.Antonov va L.Boytsova “hukmning qonuniy kuchga kirish vaqtini uning ijro etish vaqtidan farqlash kerak”ligini ta‘kidlab, “U qonuniy kuchga kirgan yoki jinoyat ishi apellyatsiya sudidan qaytarilgan kundan boshlab ma‘lum muddat ichida ijrosini ta‘minlash amalga oshiriladi”⁴, deb ta‘kidlaydi.

Biz ham yuqoridagi olimlarning fikrlariga qo‘shilamiz va bu muddat mamlakatimiz qonunchiligiga muvofiq, qonuniy kuchga kirgan yoki jinoyat ishi apellyatsiya sudidan qaytarilgan kundan boshlab uch kun ichida ijrosini ta‘minlash amalga oshirilishi belgilangan.

O‘zbekiston Respublikasi JPKning 531-moddasida mulkiy jazo bo‘yicha jazoni ijro etish uchun hukmni ijro etish majburiyati yuklatilgan organga hukmning nusxasi bilan birga ijrochiga ijro varaqasi yuborilishi ko‘rsatilgan. Mulkni davlat foydasiga o‘tkazish bo‘yicha keyingi harakatlar ijro jarayoni doirasida amalga oshiriladi.

Sud amaliyotining tahlili shuni ko‘rsatadiki, hukm yoki sud ajrimi asosida musodara qilingan yoki davlat foydasiga o‘tkazilgan mol-mulk, shu jumladan, xususiy lashtirilgan uy-joy ixtiyorida bo‘lgan

organ tomonidan natura shaklida qaytariladi. Shu bilan birga, mulkni saqlash, topshirish yoki yetkazib berish ushbu organlar hisobidan amalga oshiriladi. Agar mol-mulk saqlanmagan, yo‘qolgan, sotilgan, zarar ko‘rgan bo‘lsa, u holda jabrlangan shaxsga uning hukm chiqarilgan yoki jinoyat ishini tugatish to‘g‘risidagi qaror chiqarilgan kundagi davlat narxlarida belgilanadigan qiymati qoplanadi.

Bunday hollarda biz faqat ashyoviy dalillarni qaytarish uchun jinoyat-protsessual qonunida nazarda tutilgan tartibga rioya qilish haqida gapirayotganimizni yoki manfaatdor shaxslarga moddiy zararni qoplash masalalari haqiqatan ham hal qilinganligini aniqlash kerak.

Shu bilan birga, agar ish surishtiruv yoki dastlabki tergov bosqichida jinoyat ishi tugatilgandan keyin ashyoviy dalillarni qaytarib berish orqali moddiy zararni qoplash qoidalariga rioya qilinsa, unda qaysi mulkka muvofiq umumiy qoidadan istisno mavjudligi haqida gapirish kerakligini e‘tiborsiz qoldirib bo‘lmaydi, balki zarar sud qarori bilan qoplanadi.

Bundan tashqari, JPKning 203-moddasi qoidalari majburiy hisoblanib, unda ashyoviy dalillar zararni qoplash huquqini amalga oshirganligi sababli JPKning 37-bobida nazarda tutilgan tartibdan tashqarida bo‘lgan shaxsning irodasidan qat’i nazar qaytarilishi kerak.

Bu musodara qilingan mulkni to‘liq qaytarib berish bilan uni qoplash zarurati bilan bog‘liq savollar bo‘lmasligi kerak va ashyoviy dalillarni qaytarish aslida uning qoplanishi bilan aniqlanadi degan xulosaga olib keladi.

Biroq, musodara qilingan pul, qimmatbaho buyumlar yoki boshqa mol-mulkni yo‘qotish, yo‘q qilish yoki buzish mumkin emasligiga hech kim kafolat bermaydi, bu esa yetkazilgan zararni O‘zbekiston Res-

4 Антонов В.И. Институт реабилитации и его уголовно-правовое значение: Автореф. дис. канд. юрид. наук. – Ижевск. 2001 г. – С.18, 92. Бойцова Л.В. Реабилитация необоснованно осужденных граждан: автореф. дис. канд. юрид. наук. – Л. 1990 г. – С.19



publikasi davlat budjeti hisobidan umumiy tarzda qoplash zarurligiga olib keladi.

Bizning fikrimizcha, bunday holatlar uchun biz jinoyat ishini tergov qilayotgan shaxslar toifasining mulkiy huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini qonunda ta'minlashimiz kerak.

Binobarin, mulkiy zararni qoplash nafaqat sud hukmi bilan musodara qilingan, balki tergov bo'yicha musodara qilinadigan (jinoyat ishini tugatish masalasi hal etilgunga qadar) ashyoviy dalil sifatida tan olingan, ammo ma'lum sabablarga ko'ra qonuniy egasiga qaytarilmagan mol-mulkni qoplashni ham o'z ichiga oladi.

Ko'rsatilgan holatlar JPKda aks ettirilmaganligi sababli mazkur kodeksning 304-moddasi 1-qismi 5-bandi mazmuniga tegishli o'zgartirishlar kiritishni va uni quyidagicha mazmunda shakllantirishni taklif etamiz: *"Sudning hukmi, qarori asosida musodara qilingan yoki davlat foydasiga o'tkazilgan, shuningdek, shaxsning surishtiruv va dastlabki tergov organlari tomonidan xatlangan mol-mulki egasiga qaytarilishi lozim"*.

Masalan, JPKda surishtiruv, dastlabki tergov organlari tomonidan xatlangan yoki sud organlari tomonidan musodara qilingan va ular tomonidan yo'qotilgan mol-mulkning qiymati qoplanishi lozim bo'lgan qoidalarga o'xshash qoidalar mavjud (JPK 304-moddasi 1-qismi 4-bandi).

JPKning 304-moddasida keltirilgan qoidalarni qo'llash amaliyotini tahlil qilish natijalari yuridik yordam ko'rsatish uchun shaxs tomonidan to'lanadigan summalarini qoplash masalalarini hal qilishda noaniq yondashuvlar mavjudligini ko'rsatadi (JPK 304-modda 1-qism 5-bandi).

Sudlar qonunga muvofiq huquqiy yordam ko'rsatadigan professional advokatlarga kelishuv asosida to'lanadigan xarajatlarni, shuningdek, sud qarori bilan himoyachi

sifatida ishda ishtirok etgan boshqa shaxslarga shartnoma bo'yicha to'langan summalarini qoplab berish to'g'risida qaror qabul qiladilar.

Yuridik yordam ko'rsatganlik uchun to'langan summalar tegishli tasdiqlovchi hujjatlar asosida qoplanishi lozim.

Shu bilan birga, "Advokat bilan shartnoma tuzishda boshqa shaxslar tomonidan qilingan xarajatlar qoplanadimi yoki yo'qmi?" degan masala qonunchilikda to'g'ri hal qilinmagan.

JPKning 50-moddasiga binoan, himoyachi gumon qilinuvchi, ayblanuvchi, uning qonuniy vakili, shuningdek gumon qilinuvchi, ayblanuvchining nomidan yoki uning roziligi bilan boshqa shaxslar tomonidan taklif etiladi⁵.

Shunday qilib, JPKning 50-moddasi 1-qismini quyidagi tahrirda bayon qilishni taklif etamiz: *"Himoyachi boshqa shaxslar tomonidan gumon qilinuvchi, ayblanuvchining nomidan yoki uning roziligi bilan taklif qilingan taqdirda, ushbu holat jinoyat ishi materiallarida qayd etilishi kerak. Gumon qilinuvchi, ayblanuvchi unga bir necha himoyachi bilan huquqiy yordam ko'rsatish to'g'risida shartnoma tuzishga haqlidir"*.

Shunday bo'lgan taqdirda tergov va sud amaliyoti advokatning xizmatlari uchun to'langan xarajatlarni yuridik yordam ko'rsatish uchun sarflangan boshqa xarajatlardan farqlashida muammolar yuzaga kelmaydi.

JPKning 304-moddasida keltirilgan shaxsga nisbatan yetkazilgan moddiy zararni qoplashni tartibga soluvchi qoidalarni o'rganish, bahsli masalalarni hal qilishni tartibga solish, odatda zararni qoplash nuqtayi nazaridan o'rganilayotgan huquqiy institutni amalga oshirish mexanizmini takomillashtirishga qaratilgan degan xulosaga olib keladi, ushbu normaning 1-qismi mazmuniga o'zgartirishlar kiritish orqali mu-

5 O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi // <https://www.lex.uz/acts/111460>.



ammoga yechim topish mumkin, biz ushbu normani quyidagi tahrirda bayon etishni taklif qilamiz.

Jinoyat ishini yuritishga vakolatli bo‘lgan organlar va mansabdor shaxslarning xatti-harakatlari (harakatsizliklari) hamda qarorlaridan jabrlangan shaxsga kompensatsiya qilinadigan moddiy zararga quyidagilar kiradi:

1) *jinoyat protsessida shaxs yo‘qotgan ish haqi, pensiyalar, nafaqalar va boshqa mablag‘lar;*

2) *shaxsga nisbatan yetkazilgan jismo-*

niy zarar uchun qilingan xarajatlar;

3) *shaxsning hukm yoki sud qarori asosida musodara qilingan va davlat foydasi-ga o‘tkazilgan mol-mulki, shuningdek, qaytarilishi lozim bo‘lgan surishtiruv, dastlabki tergov organlari tomonidan olib qo‘yilgan mol-mulki;*

4) *sud qarorini ijro etish vaqtida shaxs-dan undiriladigan jarimalar va protsessual xarajatlar;*

5) *yuridik yordam ko‘rsatish uchun to‘langan summalar;*

6) *ko‘rilgan boshqa zararlar.*

#



Улугбек АШУРОВ,

ответственный сотрудник Администрации Президента,

доктор философии по юридическим наукам (Phd)

СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ ПРЕДУПРЕЖДЕНИЯ КИБЕРПРЕСТУПНОСТИ В ОТНОШЕНИИ НЕСОВЕРШЕННОЛЕТНИХ

АННОТАЦИЯ. В статье рассматриваются современные проблемы предупреждения киберпреступности в отношении несовершеннолетних. Анализируются основные угрозы цифровой среды, включая кибербуллинг, онлайн-груминг, распространение запрещённого контента и мошенничество. Особое внимание уделяется сложности выявления преступлений, а также недостаточности цифровой грамотности детей и их родителей. Рассматриваются современные методы профилактики, включая образовательные программы, совершенствование законодательства и повышение эффективности сотрудничества между школами, правоохранительными органами и интернет-платформами.

ANNOTATSIIYA. Maqolada voyaga yetmaganlarga nisbatan sodir etilayotgan kiberjinoatchilikning oldini olish bo'yicha zamonaviy muammolar tahlil qilinadi. Raqamli makondagi asosiy tahdidlar — kiberbulling, onlayn grooming, taqiqlangan kontent tarqatilishi va firibgarlik kabi holatlar yoritiladi. Kiberjinoatchilarni aniqlashdagi qiyinchiliklar hamda bolalar va ota-onalarning raqamli savodxonligi yetarli emasligi alohida ko'rib chiqiladi. Shuningdek, profilaktikaning zamonaviy usullari — ta'lim dasturlari, qonunchilikni takomillashtirish va maktablar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar hamda internet platformalari o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish masalalari bayon etiladi.

ABSTRACT. The article examines current issues in preventing cybercrime against minors. It analyzes major digital threats, including cyberbullying, online grooming, the distribution of prohibited content, and various forms of online fraud. Special attention is given to the challenges of detecting such offenses and the insufficient digital literacy of children and their parents. The article also discusses modern preventive measures, including educational initiatives, legislative improvements, and enhanced cooperation among schools, law-enforcement agencies, and online platforms.

Ключевые слова: киберпреступность, несовершеннолетние, кибербезопасность, профилактика, цифровая грамотность, онлайн-угрозы.

Kalit so'zlar: kiberjinoatchilik, voyaga yetmaganlar, kiberxavfsizlik, profilaktika, raqamli savodxonlik, onlayn tahdidlar.

Key words: cybercrime, minors, cybersecurity, prevention, digital literacy, online threats.

На современном этапе цифрового развития киберпреступность является глобальной общемировой проблемой. Динамичное развитие и рост данной категории преступлений напрямую зависят от охвата сфер жизни общества коммуникационными технологиями. С каждым днем интернет все больше проникает в нашу жизнедеятельность, что с одной стороны упрощает нашу жизнь, а с другой — делает ее уязвимей¹.

С возникновением новых информационных технологий и процессов появилась настоятельная потребность для создания эффективной программы кибербезопасности. Любое государство не может обойтись без разработки эффективного законодатель-

ства, что является ключевой частью стратегии безопасности. И, хотя право является универсальным регулятором общественных отношений, именно в сфере информационной безопасности, оно оказалось не вполне готовым к их возникновению.

Согласно данным Global Digital, в начале 2025 года в мире насчитывалось 5,56 миллиарда интернет-пользователей, что соответствует уровню проникновения в 67,9 процента. За 2024 год количество пользователей увеличилось на 136 миллионов (+2,5 процента)².

В соответствии с ежегодным отчетом о цифровом пространстве страны аналитической платформы Datareportal

1 Буз С.И. Киберпреступления: понятие, сущность и общая характеристика // Юрист-Правоведъ. — 2019 г. — № 4 (91). — С. 78–82

2 <https://datareportal.com/reports/digital-2025-global-overview-report> (дата доступа: 10.03.2025 г.)



Digital 2025: Uzbekistan количество интернет-пользователей в Узбекистане достигло 32,7 миллиона человек, что составляет 89 процентов от всего населения республики. При этом по сравнению с прошлым годом рост составил 626 тысяч человек³.

Суть предупреждения преступности вне зависимости от ее вида заключается в поиске детерминантов и последующего формирования комплекса мер, направленного на полное устранение выявленных причин.

Данной позиции в своем научном исследовании придерживается А.И. Долгова, которая констатирует, что «разработка конкретных и эффективных предупредительных мер осуществляется только на базе предварительного изучения детерминантных комплексов преступности»⁴.

Система предупреждения для того, чтобы быть эффективной, должна соответствовать и усложняться сообразно состоянию и изменениям преступности. А.И. Долгова указывала, что «это целенаправленное воздействие государства, общества, физических и юридических лиц на процессы детерминации и причинности преступности в целях недопущения вовлечения в преступность новых лиц, совершения новых криминальных деяний, расширения криминализации общественных отношений»⁵.

Исходя из этого, главной целью системы предупреждения киберпреступности в отношении несовершеннолетних, ослабление или нейтрализацию выявленных детерминантов и минимизацию последствий изучаемой преступности.

С учетом существующих мнений, под противодействием киберпреступности в отношении несовершеннолетних следует понимать деятельность уполномочен-

ных, в соответствии с законодательством, субъектов права по применению общих и специальных мер для предупреждения киберпреступности в отношении несовершеннолетних, в том числе по выявлению и последующему устранению факторов, способствующих совершению киберпреступлений в отношении несовершеннолетних; выявлению, пресечению, раскрытию и расследованию киберпреступлений в отношении несовершеннолетних; минимизации и (или) ликвидации последствий проявлений киберпреступлений в отношении несовершеннолетних»⁶.

Обеспечение информационной безопасности несовершеннолетних путем реализации единой государственной политики в сфере защиты прав детей от информации, причиняющей вред их здоровью, нравственному и духовному развитию - важнейшая задача семьи, школы, правоохранительных органов и других институтов государства, решение которой возможно лишь при условии совместной деятельности указанных субъектов.

Система мер предупреждения киберпреступности в отношении несовершеннолетних носить комплексный, системный и интегративный характер. Данная система мер учитывает права и интересы несовершеннолетних лиц, особенности их психофизического развития, а также интересы лиц, органов и организаций, осуществляющих взаимодействие с несовершеннолетними лицами. Система мер по предупреждению киберпреступлений в отношении несовершеннолетних имеет многоуровневых и разнонаправленный характер, так как включает меры законодательного урегулирования, организа-

3 <https://datareportal.com/reports/digital-2025-uzbekistan> (дата доступа: 10.03.2025 г.)

4 Проблемы детерминации и предупреждения преступности / под ред. А.И. Долговой. М.: Российская криминологическая ассоциация, 2017 г. – С. 166.

5 Воробьев В.Ф. Правовое стимулирование обеспечения жизни несовершеннолетних: проблемы теории и практики: монография. – М.: Щит-М, 2003 г. – С. 208.

6 Бошаева Л.Л. Криминологическая характеристика киберпреступности в отношении несовершеннолетних в России: монография М.: Проспект, 2023 г. – С. 139.



ционного, технического характера. Наиболее эффективными мерами защиты несовершеннолетних от киберпреступлений являются: законодательный запрет и ограничение распространения информации, способной нанести вред ребенку; внедрение фильтрации на домашних персональных компьютерах и в местах общественного доступа; классификация интернет-сайтов, повышение осведомленности детей, педагогов и родителей об интернет-угрозах и способах борьбы с ними.

Система противодействия киберпреступности в отношении несовершеннолетних включает в себя также и систему специальных мер, которые непосредственно направлены на предупреждение, выявление, пресечение, раскрытие и расследование киберпреступлений в отношении несовершеннолетних, устранение причин и условий их совершения, минимизации и (или) ликвидации последствий указанных противоправных деяний.

Сегодня эффективными мерами защиты детей от интернет-угроз являются:

- законодательный запрет и ограничение распространения информации, способной нанести вред ребенку;
- внедрение фильтрации на домашних персональных компьютерах и в местах общественного доступа;
- классификация интернет-сайтов, повышение осведомленности детей, педагогов и родителей об интернет-угрозах и способах борьбы с ними. Одной из мер предупреждения киберпреступности в отношении несовершеннолетних является возложение ответственности за бесконтрольный доступ к интернет-ресурсам на родителей, так как родители должны позаботиться о блокировании нежелательного интернет-контента⁷.

Система органов предупредительного воздействия на киберпреступность в отношении несовершеннолетних в целях

эффективного выполнения поставленных задач должна функционировать как организованный, слаженный, многоуровневый механизм. Для повышения эффективности системы противодействия киберпреступности в отношении несовершеннолетних, следует более активно привлекать волонтеров, граждан для мониторинга интернет пространства, осуществлять взаимодействие со средствами массовой информации следует информировать несовершеннолетних и их родителей или законных представителей о способах совершения киберпреступлений в отношении несовершеннолетних и т.п., о возможных мерах профилактики попадания несовершеннолетнего под преступное воздействие при пользовании интернет пространством, а также о способах защиты от посягательств на совершение киберпреступления в отношении несовершеннолетнего и формировать у несовершеннолетнего культуру личной информационной безопасности посредством просвещения.

Выявление проблем предупреждения киберпреступности в отношении несовершеннолетних позволит скорректировать государственную политику в этом направлении, выработать наиболее эффективные меры по предупреждению данного вида преступности и минимизировать уровень киберпреступности в отношении несовершеннолетних.

Правовая политика Республики Узбекистан в области противодействия киберпреступности направлена на создание эффективного механизма выявления и расследования этих преступлений, привлечение виновных к ответственности, а также защиту интересов личности, общества и государства в виртуальном и цифровом пространстве.

В статье 54 новой редакции Конституции прямо указывается, что обеспечение прав и свобод человека — высшая цель государ-

7 Бошаева Л.Л. Криминологическая характеристика киберпреступности в отношении несовершеннолетних в России: монография М.: Проспект, 2023 г. – С. 142.



ства. Поэтому правовая политика в сфере противодействия киберпреступности должна быть направлена именно на защиту прав и свобод человека в киберпространстве.

В своем выступлении на расширенном заседании Совета безопасности от 13.01.2023 года Ш.Мирзиёев отметил, что «в условиях нынешних напряженных геополитических противостояний обостряются проблемы в экономической, социальной, политической сферах, информационной безопасности и других областях». Действительно, обеспечение информационной безопасности является одним из способов противодействия киберпреступности.

Правовая политика Узбекистан в этом направлении активно формировалась в последние 10-15 лет, а в последние 2-3 года проходит этап последовательной трансформации.

Как нам известно, что вопрос по предупреждению киберпреступности в отношении несовершеннолетних стоит очень остро. Надо признать, что тех мер, которые осуществляет государство в настоящий момент недостаточно для предупреждения преступлений. В наши дни в отношении несовершеннолетних лиц совершается большое количество киберпреступлений, и численность таких преступлений увеличивается прямо пропорционально от роста несовершеннолетних пользователей компьютерных сетей.

В условиях развития информационного общества расширяются возможности его использования в целях преступной деятельности. В качестве потерпевших достаточно часто выступает такая незащищенная часть населения, как несовершеннолетние. По мнению В. В. Соловьева, снижение возраста пользователей социальных сетей, носительная анонимность внутрисетевой

деятельности, скорость распространения информации и возможности подбора целевой аудитории позволили значительному количеству лиц, имеющим преступный умысел, стать «ближе» к несовершеннолетним в виртуальном пространстве⁸.

Использование информационных технологий расширяет территорию осуществления преступных деяний в информационной сети «Интернет» в отношении несовершеннолетних, делая ее практически безграничной. Совершение киберпреступлений одним лицом или группой лиц в отношении несовершеннолетних, проживающих в значительной территориальной удаленности друг от друга и от преступника, является существенной проблемой в выявлении и пресечении таких преступлений⁹.

В сети Интернет для злоумышленника не составит трудности осуществлять преступные действия одновременно в отношении большого количества несовершеннолетних жертв. Несовершеннолетние пользователи, беспрепятственно пользуясь интернетом могут столкнуться с потенциально опасным контентом.

Возможности родителей контролировать интернет активность детей в Узбекистане и информировать их о безопасном использовании Интернета, интернет-угрозах и средствах защиты от них ограничены из-за специфической ситуации: интернет-активность родителей значительно ниже интернет-активности детей.

Надо особенно подчеркнуть, что дети часто бесконтрольно убегают в виртуальную реальность от нерешенных социальных проблем и сталкиваются с киберпреступлениями. Открыто публикуя конфиденциальную информацию о себе, заводя анонимные знакомства, вступая в коммуникацию с незнакомыми людьми,

8 Соловьев В.С. Использование социального сегмента сети Интернет для совершения посягательств на половую неприкосновенность несовершеннолетних // Вестник Московского университета МВД России. 2017 г. № 3. – С. 192.

9 Бошаева Л.Л. Криминологическая характеристика киберпреступности в отношении несовершеннолетних в России: монография М.: Проспект, 2023 г. – С. 143.



дети подвергаются серьезным рискам попасть под негативное влияние опасных лиц или стать жертвой киберпреступников.

Таким образом, проблема выявления и пресечения киберпреступлений в отношении несовершеннолетних связана с их неограниченным доступом к материалам, размещаемым в сети «Интернет». Отсутствие родительского контроля за интернет-активностью детей, неограниченное во времени пользование интернет-ресурсами несовершеннолетних, отсутствие информации о посещаемых ими сайтах, доступность опасных контентов по причине отсутствия родительского контроля за интернет-активностью детей, свидетельствует о наличии такого социального явления как «цифровая» беспризорность. Столкнувшись с преступными действиями в интернет пространстве, (например, с изображениями порнографического характера, привлечением к распространению наркотиков и т.д.), несовершеннолетний не всегда сообщает об имевших место в отношении него преступных действиях родителям или в правоохранительные органы.

В результате отсутствия необходимой информации о киберпреступлении в отношении несовершеннолетнего остается невыявленным, и преступная деятельность злоумышленника не будет пресечена. В связи с чем рекомендовано проводить просветительские мероприятия как с несовершеннолетними, так и с родителями, которые направлены, прежде всего, на установление психологического контакта, доверительных отношений, а впоследствии, на цифровую грамотность и гигиену. Существенной проблемой криминологического характера в выявлении и пресечении киберпреступлений в отношении несовершеннолетних является анонимность личности преступника. По

существу, правоохранительные органы лишены реальной возможности получения информации о лицах, совершающих киберпреступления, поскольку складывается ситуация, при которой имеется возможность анонимизации личности пользователя сети Интернет, соответственно, личность преступника анонимна.

Проблемой выявления и пресечения киберпреступности в отношении несовершеннолетних является скорость совершения преступных действий в интернет-пространстве. В условиях глобализации преступные идеи, материалы, информация распространяются в мире со скоростью, неизвестной более ранним эпохам существования человечества, чему способствует цифровая революция и ее главное достижение - Интернет. Использование преступниками различных Интернет-ресурсов (включая социальные сети) и сервисов по обмену сообщениями между пользователями позволяет им охватывать своей идеологической пропагандой широкие слои населения и вовлекать в преступную деятельность многих сторонников, особенно среди несовершеннолетних, активно пользующейся компьютерными технологиями¹⁰.

Проведенное исследование показало, что предупреждение киберпреступности в отношении несовершеннолетних, является приоритетным направлением в реализации государственной политики.

В заключение важно отметить, что меры по решению обозначенных проблем, возникающих в сфере предупреждения киберпреступности в отношении несовершеннолетних, можно предполагать их систему следующим образом в перспективе: это меры нормативного, организационного, технического и информационно просветительского характера.

#

10 Родина М.Е. Методика расследования преступлений экстремистского характера // Российский следователь. 2016 г. № 15. – С. 41.



O‘ktam O‘TAYEV,

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi mustaqil tadqiqotchisi

EKOLOGIK EKSPERTIZA TALABLARINI BUZGANLIK UCHUN YURIDIK JAVOBGARLIKNING AYRIM MUAMMOLARI

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada iqlim o‘zgarishi sharoitida ekologik ekspertiza talablarini buzganlik uchun yuridik javobgarlikning ayrim muammolari yoritilgan. Amaliyotda uchraydigan qonunbuzarlik holatlari, muddati o‘tgan xulosalar, nazorat mexanizmining cheklanganligi va rivojlangan davlatlar tajribasi tahlil qilinib, javobgarlik mexanizmini takomillashtirishga doir tavsiyalar ilgari surilgan.

АННОТАЦИЯ. В данной статье освещаются некоторые проблемы юридической ответственности за нарушение требований экологической экспертизы в условиях изменения климата. На основе анализа встречающихся на практике случаев правонарушений, заключений с истекшим сроком действия, ограниченности механизмов контроля и опыта развитых стран выдвинуты рекомендации по совершенствованию механизма ответственности.

ABSTRACT. This article addresses certain problems of legal liability for violations of ecological expertise requirements in the context of climate change. Practice-based offenses, expired conclusions, limitations of the control mechanism and the experience of developed countries are analyzed, and recommendations for improving the liability mechanism are put forward.

Kalit so‘zlar: ekologik ekspertiza, yuridik javobgarlik, iqlim o‘zgarishi, ekologik huquqbuzarlik, muddati o‘tgan xulosa, Ekopolitsiya, xorijiy tajriba, takomillashtirish.

Ключевые слова: экологическая экспертиза, юридическая ответственность, изменение климата, экологическое правонарушение, заключение с истекшим сроком действия, Экополиция, зарубежный опыт, совершенствование.

Key words: ecological expertise, legal liability, climate change, ecological offense, expired conclusion, Eco-police, foreign experience, improvement.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 62-moddasida¹ “Fuqarolar atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lishga majburlirlar” deb ko‘rsatilgan. Davlatimiz rahbari BMT Bosh Assambleyasining 80-sessiyasida² iqlim migratsiyasining kuchayib borayotganini va aniq xalqaro mexanizmlar hamda huquqiy bazaning hanuzgacha yaratilmaganligini ta’kidladi. Bu chaqiriq ekologik ekspertiza sohasidagi yuridik javobgarlik masalalarining dolzarbligini yanada oshiradi.

Bugungi kunda ekologik xavfsizlikni ta’minlash, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish davlat siyosatining eng muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Sanoat, qurilish, energetika, transport, qishloq xo‘jaligi va boshqa xo‘jalik faoliyati turlarining kenga-

yib borishi insonning tabiatga ta’sirini kuchaytirmoqda. Bunday sharoitda ekologik xavfning oldini olish, atrof-muhitga zarar yetkazilishi mumkin bo‘lgan faoliyatlarni oldindan baholash va ularni huquqiy jihatdan tartibga solish zarurati ortib bormoqda. Ekologik ekspertiza ana shunday muhim huquqiy institutlardan biri bo‘lib, u rejalashtirilayotgan faoliyatning ekologik talablarga muvofiqligini aniqlash, zararli oqibatlarining oldini olish va ekologik xavfsizlikni ta’minlashga xizmat qiladi.

Ekologik ekspertiza tizimining samardorligi, avvalo, uning talablariga qat’iy rioya etilishi bilan belgilanadi. Chunki, ekspertiza xulosasiz loyiha yoki faoliyatni amalga oshirish, ekspertiza jarayonida noto‘g‘ri ma’lumotlar taqdim etish, ekspertiza xulosasida belgilangan shartlarni bajarmas-

1 O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 62-moddasi.

2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 80-sessiyasidagi nutqi // <https://president.uz/uz/lists/view/8525> / 2025-yil 23-sentyabr.



lik yoki ekologik talablarni chetlab o'tish atrof-muhitga jiddiy zarar yetkazishi mumkin. Shu sababli ekologik ekspertiza talablarini buzganlik uchun yuridik javobgarlik institutining mavjudligi ekologik qonuniyligni ta'minlashning muhim kafolati sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur javobgarlik huquqbuzar shaxsni jazolash bilangina cheklanmay, balki ekologik huquqbuzarliklarning oldini olish, ekologik madaniyatni shakllantirish va xo'jalik yurituvchi subyektlarning mas'uliyatini oshirishga ham xizmat qiladi.

Shu bilan birga, ekologik ekspertiza talablarini buzganlik uchun yuridik javobgarlikni qo'llash amaliyotida bir qator muammolar mavjud. Avvalo, ayrim hollarda ekologik ekspertiza talablarini buzish bilan bog'liq huquqbuzarliklarning aniq tarkibini belgilash murakkab kechadi. Masalan, ekologik ekspertiza xulosasisiz faoliyat boshlash, xulosada ko'rsatilgan shartlarni qisman bajarish yoki ekspertizaga taqdim etilgan ma'lumotlarning ishonchliligini aniqlash kabi holatlar huquqni qo'llash jarayonida turlicha baholanishi mumkin. Bu esa javobgarlik choralari qo'llashda yagona yondashuvning shakllanishiga to'sqinlik qiladi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, ekologik ekspertiza talablarini buzganlik uchun javobgarlik choralari ta'sirchanligi har doim ham yetarli darajada bo'lmayligi mumkin. Amaliyotda ayrim subyektlar uchun jarima yoki boshqa ma'muriy choralar iqtisodiy jihatdan sezilarli ta'sir ko'rsatmasligi, natijada ular ekologik talablarni buzish orqali ko'proq foyda olishga intilishi ehtimoli mavjud. Bunday holatlarda javobgarlikning preventiv xususiyati zaiflashadi. Shuning uchun javobgarlik choralari huquqbuzarlikning xavflilik darajasi, yetkazilgan zarar miqdori va subyektning aybiga mutanosib bo'lishi muhim ahamiyatga ega.

Ekologik ekspertiza talablarini buzganlik uchun javobgarlikning yana bir muammoli jihati ekologik zarar miqdorini aniqlash

bilan bog'liqdir. Atrof-muhitga yetkazilgan zarar ko'pincha darhol namoyon bo'lmaydi, uning oqibatlari uzoq muddat davomida sezilishi mumkin. Ayrim hollarda zarar faqat tabiiy resurslarning kamayishi yoki ifloslanishi bilan emas, balki inson salomatligi, biologik xilma-xillik, tuproq unumdorligi, suv va havo sifati kabi ko'plab omillar bilan bog'liq bo'ladi. Shu sababli ekologik ekspertiza talablarining buzilishi natijasida yuzaga kelgan zarar miqdorini aniq hisoblash, uni huquqiy jihatdan isbotlash va aybdor shaxs zimmasiga yuklash murakkab masala hisoblanadi.

Bundan tashqari, ekologik ekspertiza talablarini buzganlik uchun javobgarlikning ma'muriy, fuqarolik-huquqiy, intizomiy va jinoyat-huquqiy shakllari o'rtasidagi o'zaro nisbat ham alohida ilmiy tahlilni talab qiladi. Ba'zi holatlarda bir xil qilmish bir vaqtning o'zida bir necha huquqiy javobgarlik turiga asos bo'lishi mumkin. Masalan, ekologik ekspertiza xulosasisiz amalga oshirilgan faoliyat ma'muriy huquqbuzarlik sifatida baholanishi, agar bu faoliyat natijasida zarar yetkazilgan bo'lsa, fuqarolik-huquqiy javobgarlikni, og'ir oqibatlar yuzaga kelgan taqdirda esa jinoyat-huquqiy javobgarlikni keltirib chiqarishi mumkin. Bunday holatlarda javobgarlik turlarini to'g'ri farqlash, ularning qo'llanish chegaralarini belgilash va huquqiy adolatni ta'minlash muhim vazifa hisoblanadi.

Mavzuning ilmiy ahamiyati ekologik ekspertiza talablarini buzganlik uchun javobgarlik institutining nazariy asoslarini, huquqiy tabiatini va amaliy muammolarini tizimli o'rganish zarurati bilan belgilanadi. Mazkur yo'nalishda olib boriladigan tadqiqotlar ekologik huquqbuzarliklarning oldini olish, javobgarlik choralari takomillashtirish, vakolatli davlat organlari faoliyatining samaradorligini oshirish hamda ekologik qonunchilikdagi ayrim bo'shliqlarni aniqlash imkonini beradi. Ayniqsa, ekologik ekspertiza xulosalarining majbu-



riyligi, ekspertiza natijalariga rioya etilishini nazorat qilish, mansabdor shaxslar va xo‘jalik yurituvchi subyektlarning javobgarligini kuchaytirish masalalari bugungi kunda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ushbu mavzuning amaliy ahamiyati shundaki, ekologik ekspertiza talablarini buzganlik uchun javobgarlikning samarali mexanizmini yaratish atrof-muhitga zarar yetkazilishining oldini olishga xizmat qiladi. Chunki, ekologik zarar yuzaga keldandan keyin uni bartaraf etish ko‘pincha qiyin, uzoq muddatli va katta mablag‘ talab qiladigan jarayondir. Ayrim hollarda esa tabiatga yetkazilgan zararni to‘liq tiklash umuman imkonsiz bo‘lishi mumkin. Shu bois ekologik ekspertiza talablariga rioya etilishini ta‘minlash va ularni buzganlik uchun javobgarlikni muqarrar qilish ekologik xavfsizlikning eng muhim kafolatlaridan biridir.

Shuningdek, ekologik ekspertiza talablarini buzganlik uchun javobgarlik muammolarini o‘rganish barqaror rivojlanish tamoyillarini amalga oshirish bilan ham bevosita bog‘liqdir. Iqtisodiy rivojlanish ekologik manfaatlarga zid bo‘lmasligi, har qanday loyiha va xo‘jalik faoliyati inson salomatligi, tabiat va kelajak avlodlar manfaatlarini nuqtayi nazaridan baholanishi zarur. Ekologik ekspertiza ana shu muvozanatni ta‘minlaydigan muhim vosita bo‘lsa, javobgarlik instituti uning talablariga amal qilinishini kafolatlaydi.

Shunday qilib, “Ekologik ekspertiza talablarini buzganlik uchun yuridik javobgarlikning ayrim muammolari” mavzusini tadqiq etish ekologik huquq nazariyasi va huquqni qo‘llash amaliyoti uchun muhim

ahamiyatga ega. Ushbu mavzu orqali ekologik ekspertiza talablarini buzish holatlarining huquqiy bahosi, javobgarlik choralarining samaradorligi, ekologik zarar miqdorini aniqlash, javobgarlik turlarining o‘zaro nisbati hamda qonunchilikni takomillashtirish yo‘nalishlarini chuqur tahlil qilish mumkin. Natijada ekologik qonunchilikni mustahkamlash, atrof-muhitni muhofaza qilish va fuqarolarning qulay ekologik muhitga bo‘lgan huquqlarini ta‘minlashga xizmat qiluvchi ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqiladi.

Normativ-huquqiy asos. O‘zbekistonda ekologik ekspertizaga oid qonunchilik talablarini ta‘minlash davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. 2019-yil 30-oktyabrda gi 5863-sonli farmon³ bilan tasdiqlangan 2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasi, 2025-yil 18-noyabrdagi 217-sonli farmon⁴ va 2025-yil 24-noyabrdagi 229-sonli farmon⁵ ushbu sohada muhim huquqiy asos bo‘ldi. 2025-yil 24-fevralda qabul qilingan 1036-sonli qonunning 43-moddasida⁶ “ekologik ekspertiza to‘g‘risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo‘ladi” deb aniq belgilagan.

Amaliyotdagi muammolar: statistik ma’lumotlar. Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasining ma’lumotlariga ko‘ra⁷, 2024-yilda 31 908 ta davlat ekologik ekspertizasi xulosasi berilgan, 2026-yil 1-aprel holatida esa bu ko‘rsatkich 49 620 taga yetgan, ya’ni 55 foizga o‘sgan. Shu orada 3 645 ta ekologik ekspertiza xulosasining amal qilish muddati o‘tganligi aniqlangan. Shular-

3 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 30-oktyabrdagi “2030-yilgacha bo‘lgan davrda O‘zbekiston Respublikasining Atrof muhitni muhofaza qilish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 5863-sonli farmoni.

4 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-noyabrdagi “Ekologiya va turizm sohalarida aholi talablariga tezkor javob bera oladigan boshqaruv tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 217-sonli farmoni.

5 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 24-noyabrdagi “Toshkent shahrida ekologik vaziyatni yaxshilash bo‘yicha kechiktirib bo‘lmaydigan chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 229-sonli farmoni.

6 O‘zbekiston Respublikasining 2025-yil 24-fevraldagi “Ekologik ekspertiza, atrof-muhitga ta’sirni baholash va strategik ekologik baholash to‘g‘risida”gi qonuni.

7 O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya va iqlim o‘zgarishi milliy qo‘mitasining 2026-yilgi ma’lumotlari. Muddati o‘tgan xulosalar hududlar kesimida.



dan faqat 529 tasi (14,5 %) qayta ekspertiza xulosasini olgan, 3 116 ta obyekt (85,5 %) esa muddati o‘tgan xulosa bilan faoliyatda davom etmoqda. I toifali (yuqori ekologik xavfli) obyektlarda yangilanish ko‘rsatkichi atigi 2,5 foizni tashkil etadi – bu holat huquqiy nazoratning ta’sirchanligini jiddiy savol ostiga qo‘ymoqda.

Institutsional islohotlar: Ekopolitsiya. Mamlakatimizda ushbu muammolarni hal etish maqsadida tashkil etilgan Ekopolitsiya (Davlat ekologik nazorat inspeksiyasi)⁸ huquqbuzarliklarni aniqlash mexanizmini institutsional jihatdan mustahkamladi. Ekopolitsiyaning vazifalari profilaktik tadbirlar o‘tkazish, jamoatchilik ishtirokini ta’minlash va raqamli texnologiyalar yordamida nazoratni o‘z ichiga oladi. Biroq, Ekopolitsiya va Ekologiya milliy qo‘mitasi o‘rtasidagi vakolatlar chegarasini yanada aniqlashtirish zarur.

Xorijiy tajriba: Germaniyada⁹ ekspertiza xulosasisiz faoliyat yuritish juda jiddiy huquqbuzarlik hisoblanib, kompaniyalarga 50 ming yevrogacha jarima solinishi, faoliyati darhol to‘xtatilishi yoki litsenziyasining bekor qilinishi qonunlarda belgilab qo‘yilgan. Germaniyada “Verbandsklage” mexanizmi jamoatchilik tashkilotlarining atrof-muhit huquqbuzarliklariga nisbatan suddagi vakillik huquqini ta’minlaydi – bu fuqarolik jamiyatining ekologik nazoratdagi faol rolining huquqiy kafolati hisoblanadi.

Qozog‘istonda esa 2021-yilda qabul qilingan Ekologik kodeksga¹⁰ muvofiq, ekspertiza xulosasisiz amalga oshirilgan faoliyat uchun

yuqori miqdorlarda jarimalar va faoliyatni to‘xtatish kabi qat’iy ma’muriy choralar belgilangan. Qozog‘iston tajribasidagi “natura shaklida tiklash” tamoyili – pul kompensatsiyasidan ko‘ra atrof-muhitni haqiqiy tiklash majburiyati – amaliyotda keng qo‘llanilmoqda. Bizning fikrimizcha, bu amaliyot O‘zbekiston uchun ham ahamiyatli hisoblanadi.

Qonun bo‘shliqlarining tahlili. Mamlakatimiz amaliyotida uchraydigan asosiy huquqiy muammolar: birinchidan, “Ekologik nazorat to‘g‘risida”gi qonun¹¹ va 1036-sonli qonun o‘rtasidagi vakolatlar chegarasi aniq belgilanmaganligi; ikkinchidan, Espoo konvensiyasi¹² talablarining milliy qonunchilikka to‘liq tatbiq etilmaganligi; uchinchidan, “Yer qa’ri to‘g‘risida”gi qonun¹³ va Suv kodeksi¹⁴ normalarining 1036-sonli qonun bilan muvofiqlashtirilmagan tomonlari. Bu huquqiy muammolar “huquqbuzarlik uchun qulaylik” muhitini yuzaga keltirmoqda.

Bizning fikrimizcha, ushbu muammolarning yechimi quyidagilarda namoyon bo‘lishi kerak:¹⁵ birinchidan, jarima miqdorlarini haqiqiy zararga mutanosib darajaga ko‘tarish; ikkinchidan, muddati o‘tgan xulosa bilan faoliyat yuritayotgan obyektlarga nisbatan faoliyatni avtomatik to‘xtatish mexanizmini joriy etish; uchinchidan, ekologik nazoratni raqamli texnologiyalar va sun’iy intellekt yordamida amalga oshirish; to‘rtinchidan, jamoatchilik ishtirokini kuchaytirish va huquqbuzarlik haqida xabar qilish mexanizmini soddalashtirish;¹⁶ beshinchidan, ekspertlar o‘rtasida manfaatlar to‘qnashuvini bartaraf etishga qara-

8 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 18-noyabrda “Ekologiya va turizm sohalarida aholi talablariga tezkor javob bera oladigan boshqaruv tizimini yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 217-sonli farmoni.

9 Bundes-Immissionsschutzgesetz (Germany). Federal Immission Control Act. §5 – Pflichten der Betreiber genehmigungsbedürftiger Anlagen.

10 Qozog‘iston Respublikasining Ekologik kodeksi (2021-yil) 241–243-moddalari.

11 O‘zbekiston Respublikasining “Ekologik nazorat to‘g‘risida”gi qonuni.

12 Convention on EIA in a Transboundary Context (Espoo Convention). 1991.

13 O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 1-noyabrda “Yer qa’ri to‘g‘risida”gi qonuni.

14 O‘zbekiston Respublikasining Suv kodeksi.

15 Fayziyev Sh.H. O‘zbekiston Respublikasining ekologik siyosatini huquqiy ta’minlash. Monografiya. – Toshkent, 2022-yil, 149-bet.

16 UNEP. Environmental Rule of Law: First Global Report. – Nairobi, 2019.



tilgan normalarni mustahkamlash maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Xulosa qilib aytganda, ekologik ekspertiza talablarini buzganlik uchun yuridik javobgarlik mexanizmini takomillashtirish – davlat ekologik siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biridir. Mazkur talablarni buzganlik uchun yuridik javobgarlikning nazariy va amaliy jihatlarini har tomonlama o‘rganish, mavjud muammolarga yechim topish va qonunni qo‘llash amaliyotini yanada yaxshilash zarurdir. Ushbu choralar faqat ekologik sohaga emas, balki mamlakatning barqaror rivojlanish strategiyasiga va kelgusi avlodlar manfaatlarini himoya qilishga xizmat qiladi.

Ekologik ekspertiza talablarini buzganlik uchun yuridik javobgarlik masalasi ekologik huquqning eng dolzarb va amaliy ahamiyatga ega yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Chunki, ekologik ekspertiza atrof-muhitga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan faoliyatlarni oldindan baholash, ekologik xavflarni aniqlash va ularning oldini olishga xizmat qiluvchi muhim huquqiy mexanizmdir. Mazkur institutning samarali ishlashi esa, avvalo, uning talablariga rioya etilishi hamda ushbu talablarni buzgan shaxslarga nisbatan javobgarlik choralarining aniq va muqarrar qo‘llanishi bilan bevosita bog‘liqdir.

Shuni ta‘kidlash mumkinki, ekologik ekspertiza talablarini buzish oddiy tartib-intizom qoidalariga amal qilmaslik sifatida baholanmasligi lozim. Aksincha, bunday harakatlarga tabiatga, inson salomatligiga, jamiyat manfaatlariga va kelajak avlodlarning qulay ekologik muhitda yashash huquqiga xavf tug‘diruvchi huquqbuzarlik sifatida qaralishi kerak. Ekologik ekspertiza xulosasisiz faoliyat boshlash, ekspertizaga noto‘g‘ri ma‘lumotlar taqdim etish, ekspertiza xulosasida ko‘rsatilgan shartlarni bajarmaslik yoki ekologik talablarni chetlab o‘tish amalda og‘ir ekologik oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Ekologik ekspertiza talablarini buzganlik uchun yuridik javobgarlikning asosiy maqsadi faqat huquqbuzarni jazolashdan iborat emas. Uning muhim vazifasi ekologik huquqbuzarliklarning oldini olish, xo‘jalik yurituvchi subyektlar va mansabdor shaxslarning ekologik mas‘uliyatini kuchaytirish, ekologik qonuniylikni ta‘minlash hamda atrof-muhitga zarar yetkazilishining oldini olishdan iboratdir. Shu jihatdan javobgarlik instituti ekologik ekspertizaning preventiv, ya‘ni oldini oluvchi xususiyatini amaliy jihatdan mustahkamlovchi vosita sifatida namoyon bo‘ladi.

Mazkur sohada mavjud asosiy muammolardan biri ekologik ekspertiza talablarini buzish bilan bog‘liq huquqbuzarliklarning tarkibini aniq belgilash va ularni amaliyotda to‘g‘ri kvalifikatsiya qilish masalasidir. Ayrim hollarda ekologik ekspertiza xulosasisiz ish boshlash, ekspertiza shartlarini qisman bajarish yoki taqdim etilgan ma‘lumotlarning haqqoniy emasligi kabi holatlar turlicha talqin qilinishi mumkin. Bu esa huquqni qo‘llash amaliyotida yagona yondashuvning shakllanishiga to‘sqinlik qiladi. Shu sababli ekologik ekspertiza talablarini buzish holatlari qonunchilikda yanada aniqroq, tizimliroq va tushunarliroq tarzda ifodalanishi lozim.

Ekologik ekspertiza talablarini buzganlik uchun javobgarlikni qo‘llashdagi yana bir muhim muammo javobgarlik choralarining ta‘sirchanligi bilan bog‘liqdir. Amaliyotda ayrim jarimalar yoki ma‘muriy choralar yirik xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun yetarli darajada sezilarli bo‘lmasligi mumkin. Bunday holatda huquqbuzar ekologik talablarni bajarishdan ko‘ra ularni buzish orqali iqtisodiy foyda olishni afzal ko‘rishi ehtimoli mavjud. Shuning uchun javobgarlik choralari huquqbuzarlikning xavflilik darajasi, yetkazilgan zarar miqdori, ayb shakli va huquqbuzar subyektning iqtisodiy imkoniyatlariga mutanosib bo‘lishi zarur.

Ekologik zarar miqdorini aniqlash ham



ushbu yo'nalishdagi murakkab masalalardan biridir. Chunki, ekologik zarar ko'p hollarda darhol ko'zga tashlanmaydi, uning oqibatlari uzoq muddat davomida namoyon bo'lishi mumkin. Havo, suv, tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosiga yetkazilgan zarar, shuningdek, inson salomatligiga salbiy ta'sirni baholash maxsus ilmiy, texnik va huquqiy yondashuvni talab qiladi. Shu bois ekologik ekspertiza talablarining buzilishi natijasida yuzaga kelgan zararni aniqlash, hisoblash va undirish mexanizmlarini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega.

Shuningdek, ekologik ekspertiza talablarini buzganlik uchun javobgarlikning ma'muriy, fuqarolik-huquqiy, intizomiy va jinoyat-huquqiy shakllari o'rtasidagi nisbatni aniq belgilash zarur. Bir xil qilmish ayrim hollarda bir necha turdagi javobgarlikni keltirib chiqarishi mumkin. Bunday vaziyatlarda javobgarlik turlarining chegaralarini to'g'ri aniqlash, ularning bir-birini takrorlamasligi, shu bilan birga, ekologik zarar to'liq qoplanishini ta'minlash muhimdir. Ayniqsa, og'ir ekologik oqibatlarga olib kelgan holatlarda jinoyat-huquqiy javobgarlikni qo'llash mezonlari aniq va adolatli bo'lishi kerak.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ekologik ekspertiza talablarini buzganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish faqat sanksiyalarni oshirish bilan cheklanmasligi lozim. Bu borada kompleks yondashuv zarur. Xususan, ekologik ekspertiza jarayonining shaffofligini ta'minlash, jamoatchilik ishtirokini kengaytirish, ekspertiza xulosalari ijrosi ustidan samarali nazorat o'rnatish, vakolatli organlar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish va mansabdor shaxslarning shaxsiy javobgarligini oshirish muhimdir. Bunday choralar ekologik ekspertiza institutining amaliy samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Ekologik ekspertiza talablariga rioya etilishini ta'minlashda huquqiy ong va ekologik madaniyatni oshirish ham alohida ahamiyatga ega. Xo'jalik yurituvchi subyektlar ekologik ekspertizani faqat rasmiy ruxsat berish tartibi sifatida emas, balki tabiatni muhofaza qilish, inson salomatligini himoya qilish va barqaror rivojlanishni ta'minlash vositasi sifatida qabul qilishi lozim. Shu maqsadda ekologik-huquqiy targ'ibot, mutaxassislar malakasini oshirish, tadbirkorlik subyektlariga tushuntirish ishlari olib borish va ekologik mas'uliyat madaniyatini shakllantirish zarur.

Umuman olganda, ekologik ekspertiza talablarini buzganlik uchun yuridik javobgarlikning ayrim muammolarini o'rganish ushbu institutni yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Mazkur yo'nalishda qonunchilik normalarining aniqligini oshirish, javobgarlik choralarining muqarrarliligi va ta'sirchanligini ta'minlash, ekologik zarar miqdorini aniqlash usullarini takomillashtirish hamda huquqni qo'llash amaliyotida yagona yondashuvni shakllantirish muhim vazifalardan hisoblanadi.

Yakuniy xulosa sifatida aytish mumkiniki, ekologik ekspertiza talablarini buzganlik uchun yuridik javobgarlik ekologik xavfsizlikni ta'minlashning muhim huquqiy kafolatidir. Ushbu javobgarlik mexanizmi samarali ishlagan taqdirdagina ekologik ekspertiza institutining amaliy ahamiyati to'liq namoyon bo'ladi. Shu bois mazkur sohani ilmiy jihatdan chuqur o'rganish, mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etishga qaratilgan takliflar ishlab chiqish atrof-muhitni muhofaza qilish, fuqarolarning qulay ekologik muhitga bo'lgan huquqlarini ta'minlash hamda barqaror rivojlanish tamoyillarini hayotga tatbiq etishda muhim ahamiyat kasb etadi.



Ilyosjon KADIROV,

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi markaz boshlig'i

PROKURATURA ORGANLARINING QONUN VA UNING LOYIHALARINI KORRUPSIYAVIY EKSPERTIZADAN O'TKAZISH BORASIDAGI FAOLIYATINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

ANNOTATSIYA. Maqolada prokuratura organlarining qonun va uning loyihalarini korrupsiyaviy ekspertizadan o'tkazish borasidagi faoliyati tahlil qilingan. Qonunchilikda korrupsiya xavfini aniqlash va oldini olishda prokuraturaning vakolatlari, huquqiy ekspertiza metodologiyasi va huquqiy takliflar kiritish mexanizmlari o'rganilgan. Xorijiy davlatlar tajribasi misolida korrupsiyaviy ekspertiza jarayonida samarali usullar va qonunchilikdagi xalqaro standartlar ko'rib chiqilgan. O'zbekistonda korrupsiyaviy ekspertizani takomillashtirish istiqbollari – standartlashtirilgan metodologiyalarni joriy etish, maxsus tayyorgarlik ko'rish, xorijiy tajribani implementatsiya qilish va huquqiy hamkorlikni rivojlantirish orqali prokuraturaning roli va qonunchilikdagi ta'sirini kuchaytirish imkoniyatlari tahlil qilingan.

АННОТАЦИЯ. В статье проанализирована деятельность органов прокуратуры по проведению антикоррупционной экспертизы законов и их проектов. Изучены полномочия прокуратуры в выявлении и предотвращении коррупционных рисков в законодательстве, методология правовой экспертизы, а также механизмы внесения правовых предложений. На примере зарубежных государств рассмотрены эффективные методы проведения антикоррупционной экспертизы и международные стандарты в данной сфере. Проанализированы перспективы совершенствования антикоррупционной экспертизы в Узбекистане – возможности усиления роли прокуратуры и её влияния на законодательство за счёт внедрения стандартизированных методологий, специальной подготовки кадров, имплементации зарубежного опыта и развития правового сотрудничества.

ABSTRACT. The article analyzes the activities of prosecutorial bodies in conducting anti-corruption expertise of laws and their drafts. It examines the powers of the prosecutor's office in identifying and preventing corruption risks in legislation, the methodology of legal expertise, as well as the mechanisms for submitting legal proposals. Using the example of foreign countries, the article reviews effective methods of conducting anti-corruption expertise and international standards in this field. The prospects for improving anti-corruption expertise in Uzbekistan are analyzed, including opportunities to strengthen the role of the prosecutor's office and its influence on legislation through the introduction of standardized methodologies, specialized training, the implementation of foreign experience, and the development of legal cooperation.

Kalit so'zlar: prokuratura, korrupsiyaviy ekspertiza, qonun loyihasi, huquqiy ekspertiza, korrupsiya xavfi, qonunchilik, huquqiy takliflar, xalqaro tajriba, standartlashtirilgan metodologiya, qonunchilikda ishtirok.

Ключевые слова: прокуратура, антикоррупционная экспертиза, проект закона, правовая экспертиза, коррупционный риск, законодательство, правовые предложения, международный опыт, стандартизированная методология, участие в законотворчестве.

Key words: prosecutor's office, anti-corruption expertise, draft law, legal expertise, corruption risk, legislation, legal proposals, international experience, standardized methodology, participation in lawmaking.

Korrupsiya jamiyatdagi huquqiy tartib va davlat boshqaruvining samaradorligiga jiddiy tahdid soladi. Shu bois qonunchilikda korrupsiya xavfini aniqlash va bartaraf etish mexanizmlari samarali bo'lishi kerak. Korrupsiyaning oldini olish, aniqlash va bartaraf etish davlat organlarining qonuniy vazifasi hisoblanadi.

Korrupsiyaga qarshi ekspertiza – normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarini korrupsiya xavf-xatarlarini aniqlash va bartaraf etish maqsadida tahlil qilish jarayonidir.

Uning asosiy vazifalari:

korrupsiyani keltirib chiqaruvchi omillarni aniqlash;

hujjatlarda korrupsiya kelib chiqishiga sabab bo'ladigan normalarni baholash;

xavflarni kamaytirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

Normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalarini korrupsiyaga qarshi ekspertizadan o'tkazishning huquqiy asoslari 2003-yilda qabul qilingan BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasida belgilangan¹. Mazkur

1 BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi, 2003-yil.



konvensiyaga ko'ra, har bir ishtirokchi davlat korrupsiyaning oldini olish va unga qarshi kurashish uchun tegishli huquqiy hujjatlar hamda ma'muriy choralar yetarliligini aniqlash maqsadida ularni davriy ravishda baholab borishga intiladi.

Tahlil shuni ko'rsatadiki, aynan prokurorlar o'zlariga yuklatilgan vakolatlarning o'ziga xosligi hamda huquqni qo'llash amaliyotiga tayangan holda korrupsiyaga olib keluvchi omillarni aniqlash va bartaraf etishda eng samarali hissa qo'shadilar².

Bu jarayonda prokuratura qonun loyihalarini huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan baholab, aniq xulosalar chiqaradi va qonunchilik tashabbusiga o'z takliflarini kiritadi. Shu bilan birga, qonunlarning amalga oshirishida korrupsiya xavfini kamaytirish maqsadida huquqiy takliflar berish va qonunlarga zid bo'lgan normalarni bekor qilish bo'yicha choralar ko'rish ham prokuraturaning vazifalariga kiradi³.

Xorijiy davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, prokuratura organlari qonun loyihalarini korrupsiyaviy xavf bo'yicha baholashda muhim rol o'ynaydi. Masalan, Rossiya Federatsiyasida prokuratura qonun va normativ-huquqiy hujjatlarni korrupsiya xavfini kamaytirish nuqtayi nazaridan tahlil qiladi va o'z xulosasini qonun chiqaruvchi organlarga taqdim etadi.

Yevropa davlatlarida ham prokuratura qonunchilikning korrupsiya xavfini baholashda maxsus indikatorlar va metodologiyalardan foydalanadi. AQSHda Bosh attorneylar va shtatlar attorneylari qonun loyihalari va normativ-huquqiy hujjatlarni huquqiy ekspertiza va korrupsiyaviy tahlildan o'tkazadi⁴.

Ruminiyada prokuratura organi korrupsiyaga qarshi kurashish, tergov va jinoiy javobgarlikni ta'minlash hamda ushbu sohalar-dagi normativ-huquqiy hujjatlarni huquqiy ekspertizadan o'tkazish vakolatiga ega.

Ukrainada prokuratura organlari korrupsiya bilan bog'liq tergovni qo'llab-quvvatlash va qonun ustuvorligini ta'minlash vazifasiga ixtisoslashgan struktura hisoblanib, shu kabi hujjatlarni ekspertizadan o'tkazib boradi.

Belarusda Bosh prokuratura va uning quyi tizimlari korrupsiyaviy normalarni aniqlashda ishtirok etadi. Prokuratura bunday normalarni bekor qilish yoki ularni o'zgartirishni talab qilish huquqiga ega.

Qozog'istonda korrupsiyaviy ekspertiza funksiyasi boshqa organlarga (masalan, Korrupsiyaga qarshi kurashish xizmatiga) yuklatilgan. Biroq, Bosh prokuratura ham nazorat faoliyati doirasida normativ-huquqiy hujjatlardagi korrupsiyaviy xavflarni aniqlashda ishtirok etadi.

Shuningdek, ko'plab xorij davlatlari tajribasi normativ-huquqiy hujjatlarning korrupsiya xavflarini aniqlashda chek-listlar va ilmiy asoslangan metodologiyalar⁵ joriy etilishi kerakligini ko'rsatmoqda. Mazkur tajribalar O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari faoliyatini takomillashtirishda namunaviy ahamiyat kasb etishi mumkin.

O'zbekistonda esa normativ-huquqiy hujjatlar va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasining qonunchilik asosi quyidagi holatda. Xususan, O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to'g'risida"gi qonuni⁶ 5-moddasiga muvofiq, normativ-huquqiy

2 Кудашкин А.В. Проблемы организации и проведения органами прокуратуры антикоррупционной экспертизы // Журнал российского права. – 2011 г. – №. 2 (170).

3 Бородин О.А. Правовые и организационные проблемы органов прокуратуры по проведению антикоррупционной экспертизы // Известия Алтайского государственного университета. – 2018 г. – №. 6 (104). – С. 212-216.

4 Бессарабов В.Г. Прокуратура и контрольные органы зарубежных стран / В.Г. Бессарабов. М., 2000 г. – С. 26-29.

5 Барциц И.Н. Антикоррупционная экспертиза в системе эффективного правотворчества (к разработке методики проведения антикоррупционной экспертизы) // Государство и право. 2010 г. № 10.

6 O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasi to'g'risida"gi qonuni (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 09.08.2023-y., 03/23/860/0571-son).



hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasini Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi, Adliya vazirligi va uning hududiy bo‘linmalari amalga oshiradi. Shuningdek, ushbu vakolatga normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining ishlab chiquvchilari bo‘lgan davlat organlari va tashkilotlarining yuridik xizmatlari hamda tegishli normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini ta’minlash o‘z zimmasiga yuklatilgan davlat organlari va tashkilotlari egadirlar.

So‘nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar natijasida prokuratura organlariga korrupsiyaviy omillarni aniqlash va ularni bartaraf qilishda bir qator vakolatlar berilmoqda.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tegishli farmoni bilan Bosh prokuraturaning Qonuniylik va huquq-tartibotni ta’minlash muammolarini tahlil qilish boshqarmasi tarkibida mavjud shtat birliklari doirasida 3 ta shtat birligidan iborat korrupsiyaviy omillarni tahlil qilish bo‘limi faoliyatini yo‘lga qo‘yish, mazkur boshqarmaning hududiy prokuraturalardagi bo‘linmalarini joylarda korrupsiyaviy omillarni tahlil qilishga mas’ul etib belgilash qayd etildi⁷.

Shunday bo‘lsa-da, yuqorida qayd etilgan qonunda prokuratura organlari normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasini amalga oshiruvchi alohida subyekt sifatida qayd etilmagan.

Biroq, ushbu vakolatni qonunga asosan prokuratura organlariga berish zarurati quyida keltirilgan qator omillar bilan asoslanadi.

Prokuratura organlari qonunlar ijrosi us-tidan umumiy nazoratni amalga oshiruvchi organ hisoblanadi. Shu bois ular huquqni qo‘llash amaliyotida yuzaga kelayotgan muammolarni, shu jumladan, korrupsiyaga olib keluvchi normalar va bo‘shliqlarni boshqa

organlarga nisbatan tezroq va aniqroq aniqlay oladi⁸.

Prokurorlar turli sohalaridagi huquqiy munosabatlar bilan bevosita ish olib boradi, jinoyat, ma’muriy va fuqarolik ishlari doirasida keng tajribaga ega. Bu esa normativ-huquqiy hujjatlardagi korrupsiogen omillarni kompleks va chuqur tahlil qilish imkonini beradi.

Prokuratura organlari mustaqil va markazlashgan tizimga ega bo‘lib, ularning faoliyati tashqi ta’sirlardan nisbatan himoyalangan. Bu esa antikorrupsiyaviy ekspertiza jarayonida xolislik va beg‘arazlikni ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Xalqaro tajriba, jumladan, BMTning Korrupsiyaga qarshi konvensiyasi talablari davlat organlaridan huquqiy hujjatlarni muntazam baholab borishni talab qiladi. Prokuratura organlarining ushbu jarayonga jalb etilishi milliy antikorrupsiyaviy tizim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Amalda prokuratura organlari qonun buzilishlarini aniqlash va bartaraf etish bo‘yicha ta’sir choralarga ega. Agar ularga antikorrupsiyaviy ekspertiza vakolati berilsa, aniqlangan korrupsiogen normalarni bartaraf etish yuzasidan tezkor va samarali choralar ko‘rish imkoniyati yanada kengayadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mamalakatimizda korrupsiyaviy ekspertizani takomillashtirish istiqbollari bir necha yo‘nalishda rivojlanishi mumkin.

Birinchidan, korrupsiya xavfini baholashning standartlashtirilgan metodologiyasini yaratish zarur. Bu jarayon qonunchilik tahlilida aniq va samarali indikatorlarni qo‘llashga imkon beradi.

Ikkinchidan, O‘zbekiston Respublikasi-ning “Normativ-huquqiy hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertiza to‘g‘risida”gi qonuni 5-moddasida prokuratura organlarini normativ-huquqiy

7 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi “Korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha belgilangan ustuvor vazifalar ijrosini samarali tashkil etishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 71-sonli farmoni.

8 Чечко О.Л. Антикрупционная экспертиза, осуществляемая органами прокуратуры: вопросы теории и практики : дис. – М, 2016 г.



hujjatlarning va ular loyihalarining korrupsiyaga qarshi ekspertizasini amalga oshiruvchi alohida subyekt sifatida belgilash lozim.

Uchinchidan, Bosh prokuraturada korrupsiyaviy ekspertiza o'tkazish bo'yicha mustaqil boshqarma va hududiy prokuratura organlarida hududiy bo'limlar tashkil etilib, xodimlar maxsus tayyorlanishi kerak.

To'rtinchidan, xorijiy tajribani o'rganish va uni milliy shartlarga moslashtirish, shuningdek, xalqaro hamkorlikni rivojlantirish orqali korrupsiyaviy ekspertizaning samaradorligini oshirish lozim⁹.

Beshinchidan, prokuratura qonunchilik tashabbusi orqali qonun loyihalariga o'z takliflarini kiritishda samaraliroq ishtirok etishi kerak.

Shu bilan birga, korrupsiyaviy ekspertiza jarayonida huquqiy va iqtisodiy mutaxassis-

larni jalb qilish, qonun loyihalaridagi manfaatlar to'qnashuvini aniqlash va bartaraf etish hamda huquqiy bo'shliqlarni yo'q qilish kabi choralar samarali mexanizmlarning asosini tashkil qiladi¹⁰. Bu esa o'z navbatida, davlatda korrupsiya xavfini kamaytirib, qonunlarning shaffofligi va samaradorligini ta'minlaydi.

Shu munosabat bilan prokuratura organlarining qonun va uning loyihalarini korrupsiyaviy ekspertizadan o'tkazishdagi faoliyatini takomillashtirish jarayoni davlatda korrupsiyaga qarshi kurashda muhim vosita sifatida xizmat qiladi¹¹. Ushbu faoliyatning samaradorligini oshirish uchun metodologiyalarni rivojlantirish, institutsional rivojlantirish va xorijiy tajribani joriy qilish orqali prokuraturaning qonunchilikdagi roli kuchayadi va qonunlarning shaffofligi hamda samaradorligi ta'minlanadi.

#

9 Березина Е.В., Евдокимов К.Н. Актуальные вопросы проведения антикоррупционной экспертизы нормативных правовых актов и проектов нормативных правовых актов органами прокуратуры // Вестник Барнаульского юридического института МВД России. – 2016 г. – №. 1. – С. 23.

10 Короткова О.А. Органы прокуратуры как субъект антикоррупционной экспертизы нормативных актов // Вестник Тамбовского университета. Серия: Гуманитарные науки. – 2014 г. – №. 7 (135). – С. 122-126.

11 Родионова О.Н. Антикоррупционная экспертиза // Российский юридический журнал. – 2010 г. – №. 1. – С. 158-162.



Bunyod KUDRATOV,

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi markaz boshlig'i

KIBERJINOYATLARGA QARSHI KURASHISHGA VA RAQAMLI TERGOVGA KO'MAKLASHISH MARKAZINING KIBERJINOYATLARGA QARSHI KURASHISHDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

ANNOTATSIYA. Maqolada raqamli texnologiyalar asosida sodir etilayotgan jinoyatlarni fosh etish va tergov qilishda raqamli kriminalistikaning o'rnini, uning institutsional va amaliy mexanizmlari tahlil qilingan. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi tizimida raqamli tergovni qo'llab-quvvatlash, kript-aktivlar bilan bog'liq jinoyatlarni aniqlash, raqamli dalillarni yig'ish, saqlash va tahlil qilish bo'yicha yo'lga qo'yilgan tashkiliy-huquqiy va ilmiy-uslubiy faoliyat yoritilgan. Shuningdek, maxsus tahlil platformalari, OSINT yondashuvlari va raqamli ekspertiza vositalarini amaliyotga joriy etishning ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalari raqamli kriminalistika imkoniyatlarini kengaytirish kiberjinoyatlarni tergov qilish samaradorligini oshirishning muhim sharti ekanligini ko'rsatadi.

АННОТАЦИЯ. В статье анализируется роль цифровой криминалистики в раскрытии и расследовании преступлений, совершаемых с использованием цифровых технологий, а также её институциональные и практические механизмы. В частности, освещается организационно-правовая и научно-методическая деятельность, осуществляемая в системе Академии правоохранительной деятельности Республики Узбекистан, в сфере поддержки цифрового расследования, выявления преступлений, связанных с криптоактивами, сбора, хранения и анализа цифровых доказательств. Также раскрывается значение внедрения в практику специализированных аналитических платформ, методов разведки на основе открытых источников (OSINT) и инструментов цифровой экспертизы. Результаты исследования показывают, что расширение возможностей цифровой криминалистики является важнейшим условием повышения эффективности расследования киберпреступлений.

ABSTRACT. This article analyses the role of digital forensics in detecting and investigating crimes committed through digital technologies, as well as its institutional and practical mechanisms. In particular, it examines the organisational-legal and scientific-methodological activities established within the system of the Academy of Law Enforcement of the Republic of Uzbekistan in the areas of supporting digital investigations, identifying crimes related to crypto-assets, and collecting, preserving, and analysing digital evidence. The article further highlights the importance of implementing specialised analytical platforms, Open Source Intelligence (OSINT) approaches, and digital forensic tools into investigative practice. The findings of the study demonstrate that expanding the capabilities of digital forensics is a critical prerequisite for enhancing the effectiveness of cybercrime investigations.

Kalit so'zlar: raqamli kriminalistika, kiberjinoyatchilik, raqamli dalillar, raqamli tergov, kript-aktivlar, blokcheyn tahlili, OSINT, tergovga ko'maklashish, huquqni muhofaza qilish organlari.

Ключевые слова: цифровая криминалистика, киберпреступность, цифровые доказательства, цифровое расследование, криптоактивы, блокчейн-анализ, OSINT, содействие расследованию, правоохранительные органы.

Key words: digital forensics, cybercrime, digital evidence, digital investigation, crypto-assets, blockchain analysis, OSINT, investigative support, law enforcement agencies.

So'nggi yillarda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish doirasida elektron tijorat va raqamli xizmatlardan foydalanishda xavfsizlikni ta'minlash bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda.

Shu bilan birga, axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda sodir etilayotgan jinoyatlarni o'z vaqtida aniqlash va samarali tergov qilish maxsus raqamli usul va vositalardan foydalanishni, raqamli dalillar bilan ishlash texnikasini ishlab chiqishni, yuqori malakali mutaxassislar tayyorlash hamda bu borada tizimli ilmiy-tadqi-

qot bazasini yaratishni taqozo etmoqda.

Mamlakatimizda jinoyatlarni o'z vaqtida va to'la fosh etish, javobgarlikning muqarrarliligi tamoyilini so'zsiz amalga oshirishning samarali mexanizmlarini yaratish, shu jumladan, shaxsning aybini ilmiy-texnik jihatdan asoslangan ishonchli dalillar bilan isbotlash jarayonlarini yanada takomillashtirish maqsadida:

O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasiga¹ quyidagi qo'shimcha vazifalar yuklatilgan:

– raqamli kriminalistika sohasida inno-

1 <https://lex.uz/uz/docs/6299077>



vatsion tadqiqotlar olib borish, katta hajmdagi ma'lumotlar ("Big Data"), sun'iy intellekt va boshqa ilg'or texnologiyalarni tahlil qilib, amaliyotga joriy etish;

- huquqni muhofaza qiluvchi organlarga jinoyatlarning raqamli izlarini aniqlash, olib qo'yish, saqlash va tadqiq qilish bo'yicha tezkor-qidiruv tadbirlari, tergovga qadar tekshiruv va tergov harakatlarini o'tkazishda raqamli kriminalistika jihatidan amaliy yordam berish;

- raqamli ekspertizaning zamonaviy texnologiyalari va vositalarini joriy etish;

- jinoyatlarni tergov qilish doirasida raqamli ma'lumotlarni izlaydigan, to'playdigan va tahlil qiladigan, shuningdek, kriptoto-aktivlar, "bulutli texnologiyalar" va boshqalardan foydalangan holda sodir etilgan jinoyatlarni aniqlaydigan zamonaviy texnologiyalar va vositalarni joriy etish;

- kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida xalqaro ilmiy-texnik hamkorlikni rivojlantirishda ishtirok etish, xorijiy hamkorlar bilan birgalikda ilmiy-texnik va innovatsion loyihalarni amalga oshirish;

- kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish sohasida va zamonaviy texnologiyalardan foydalanish bo'yicha bilim va ko'nikmaga ega malakali kadrlar tayyorlash;

- raqamli kriminalistika bo'yicha sud ekspertizalarini o'tkazish metodikalarini ishlab chiqish va takomillashtirib borish;

- raqamli texnologiyalar yordamida sodir etilgan jinoyatlarni fosh etish va ularni tergov qilish amaliyotidagi mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

Akademiya zimmasiga yuklangan qo'shimcha vazifalar ijrosini samarali tashkil etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi 229-sonli qarori² bilan Huquqni muhofaza qilish akademiyasining Raqamli kriminalistika ilmiy-uslubiy markazi negizida Raqamli kriminalistika ilmiy-tadqiqot instituti tashkil etilib, institut

tarkibida Ixtisoslashtirilgan raqamli tadqiqot markazi, Raqamli tergovga ko'maklashish bo'limi, Uslubiy yordam ko'rsatish bo'limi va Raqamli kriminalistika laboratoriyasi kabi bo'linmalar faoliyati yo'lga qo'yilgan.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 30-apreldagi 153-sonli qarori³ bilan institut tarkibidagi Raqamli tergovga ko'maklashish bo'limi negizida Kiberjinoyatlarga qarshi kurashishga va raqamli tergovga ko'maklashish markazi tashkil etilib, unga quyidagi qo'shimcha vazifalar yuklatilgan:

- kiberjinoyatlar sodir etilishiga sabab va shart-sharoitlarni aniqlash maqsadida tergovga qadar tekshiruv hujjatlarini, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni hamda jinoyat ishlarini ilmiy yondashuvlar asosida o'rganish orqali asoslantirilgan tavsiyalar ishlab chiqish va huquqni qo'llash amaliyotiga tatbiq etish;

- kiberjinoyatlarni fosh etish va ularni tergov qilish amaliyotidagi mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslantirilgan takliflarni ishlab chiqish;

- kiberjinoyatlar yo'nalishida tergov faoliyati samaradorligini oshirish hamda ta'lim jarayonini takomillashtirishni ilmiy va uslubiy jihatdan ta'minlash.

Bugungi kunda markaz tomonidan quyidagi yo'nalishlarda ishlar olib borilmoqda:

- 1) akademiyaning tinglovchilari uchun pedagogik jarayon (*bakalavr, magistr, malak oshirish kurslari*);

- 2) hududlarga borilgan holda kiberjinoyatlarni fosh etish va tergov qilishga mas'ul bo'lgan xodimlarning kasbiy ko'nikmalarini oshirishga qaratilgan nazariy va amaliy mashg'ulotlar o'tkazish;

- 3) kiberjinoyatlar yo'nalishida tergov faoliyati samaradorligini oshirish hamda ta'lim jarayonini takomillashtirishni uslubiy jihatdan ta'minlash;

- 4) kiberjinoyatlar sodir etilishiga sabab va

2 <https://www.lex.uz/docs/6977736>

3 <https://www.lex.uz/ru/docs/7511145>



shart-sharoitlarni aniqlash, kiberjinoyatlarni fosh etish va ularni tergov qilish amaliyoti-dagi mavjud muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish bo'yicha ilmiy asoslantirilgan takliflarni ishlab chiqish;

5) huquqni muhofaza qiluvchi organlarga jinoyatlarning raqamli izlarini aniqlash, olib qo'yish, saqlash va tadqiq qilish bo'yicha tezkor-qidiruv tadbirlari, tergovga qadar tekshiruv va tergov harakatlarini o'tkazishda raqamli kriminalistika jihatidan amaliy yordam berish;

6) kriptο-aktivlar va blokcheyn texnologiyalari bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilishda maxsus texnik yordam ko'rsatish (*ekspertlik faoliyati*).

Mazkur vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida markaz faoliyatida huquqni muhofaza qilish organlarining rasmiy so'rov xatlari asosida taqdim etilgan kriptο-hamyon manzillari bo'yicha “Elliptic.co”⁴ hamda “Chainalysis Reactor”⁵ kabi maxsus tahlil platformalaridan foydalangan holda blokcheyn tadqiqotlari o'tkazib kelinmoqda. Tadqiqotlar natijalariga muvofiq tashabbuskor organlarga belgilangan tartibda mutaxassis fikri taqdim etilmoqda.

Mazkur tahlil platformalari kriptο-aktivlar muomalasi bilan bog'liq tranzaksiyalarni kuzatish, tahlil qilish va noqonuniy faoliyatni aniqlashga mo'ljallangan.

Ma'lumot uchun:

“Elliptic.co” tahlil platformasidan foydalanish huquqi “Mintaqaviy muloqot” xalqaro nodavlat notijorat tashkiloti ko'magida olingan.

“Chainalysis Reactor” tahlil platformasidan foydalanish huquqi O'zbekiston Respublikasi Istiqbolli loyihalar milliy agentligi tomonidan taqdim etilgan.

Bundan tashqari, markaz tomonidan “KODEX” global tizimidan foydalanish huquqi qo'lga kiritilgan bo'lib, ushbu tizim orqali huquqni muhofaza qilish organlarining so'rov xatlari asosida xizmat ko'rsatish

provayderlariga so'rov yuborish orqali tegishli raqamli dalillar olinib, tashabbuskorlarga taqdim etib kelinmoqda.

Shu kabi, markaz tomonidan jinoyatlarni fosh etish va tergov qilish samaradorligini oshirish maqsadida “ICACOPS”, “ECTEC”, “Artropod” kabi maxsus dasturiy ta'minot vositalarining imkoniyatlaridan foydalanish yo'lga qo'yilgan.

Tergovga ko'maklashish va kriptο-aktivlar tahlili yo'nalishida: markaz tomonidan o'tgan davrda kriptο-aktivlar aylanmasi sohasidagi xorijiy provayderlarga 350 dan ortiq rasmiy so'rov yuborilib, natijada jinoyatga aloqador 700 nafardan ortiq shaxsning kriptο-aktiv tranzaksiyalari haqidagi ma'lumotlar olinib, tergov organlariga taqdim etilgan.

Shuningdek, markaz xodimlari tomonidan tergov organlarining so'rovi asosida chuqurlashtirilgan blokcheyn tadqiqoti o'tkazilib, natijasi bo'yicha 80 dan ortiq mutaxassis fikri taqdim etilgan.

Hozirda markaz xodimlari tomonidan respublikamizda yagona bo'lgan internetning ochiq manbalari tahlili (OSINT) bo'yicha tadqiqot o'tkazish yo'lga qo'yilgan bo'lib, unga ko'ra, voqealarning joylashuvi va vaqtini aniqlash uchun sun'iy yo'ldosh tasvirlari, fotosuratlar va geografik ma'lumotlarni tahlil qilish orqali fotosuratdagi shaxsning joylashgan manzili bo'yicha tergov organlariga mutaxassis fikri taqdim etib kelinmoqda.

Shuningdek, markaz xodimlari o'tgan davrda 60 dan ortiq tergov harakatlarida ishtirok etib, elektron ma'lumotlarni olish va ko'zdan kechirish, kriptο-aktivlarni xatlashda tergov organlariga mutaxassis sifatida ko'maklashgan.

Tergovni uslubiy jihatdan ta'minlash yo'nalishida: “Axborot texnologiyalari yordamida sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilishda tergovchining Yon daftari” nomli uslubiy qo'llanma tayyorlanib, amaliyotda foydalanish uchun barcha tergov organlariga tarqatilgan,

4 <https://www.elliptic.co/>

5 <https://www.chainalysis.com/product/reactor/>



"Raqamli kriminalistika" nomli darslik hamda "Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar bo'yicha ekspertiza tayinlash to'g'risidagi qarorga ilova qilinadigan hujjatlar ro'yxati" nomli uslubiy qo'llanma tayyorlanib, akademiya ta'lim jarayonlariga tatbiq etilgan.

Shuningdek, hozirda "Kripto-aktivlar sohasidagi jinoyat ishlarini yuritish" hamda "Tergovda raqamli ma'lumotlar tashuvchi qurilmalarni ko'zdan kechirish va ish uchun ahamiyatli bo'lgan elektron ma'lumotlarni olish tartibi (algoritmi)" nomli uslubiy qo'llanmalar tayyorlanmoqda.

Ilmiy-tadqiqot yo'nalishida: markaz xodimlari tomonidan hududlarda kiberjinoyatchilik va ushbu sohadagi tergov ahvoli o'rganilib, "O'zbekiston Respublikasida dolzarb kibertahdidlar hamda kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish ahvoli", "Kripto-aktivlar bilan bog'liq jinoyatlarni fosh etish va tergov qilishning o'ziga xos xususiyatlari" va "Internetning yashirin segmenti (Darknet) yordamida sodir etilgan jinoyatlarni tergov qilishning o'ziga xos xususiyatlari" mavzusida ilmiy yondashuvlar asosida tadqiqotlar amalga oshirilib, natijasi bo'yicha amaldagi qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan Bosh prokuraturaga 20 dan ortiq taklif kiritilgan.

Shuningdek, kiberjinoyatlarga oid ish yuritish bo'yicha huquqni qo'llash amaliyotini birxillashtirish maqsadida "Axborot tizimi (texnologiyalari) yoki internet jahon axborot tarmog'idan foydalanib sodir etilgan, shu jumladan axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlar bo'yicha sud amaliyotining ayrim masalalari to'g'risida"gi Oliy sud Plenumi qarori loyihasi tayyorlangan hamda tegishli tartibda ko'rib chiqish uchun Bosh prokuratura taqdim etilgan.

Akademiya ta'lim jarayonlarida ishtirok yo'nalishida: markaz xodimlari akademiyaning bakalavr yo'nalishida 120 soatlik o'quv moduli, magistratura yo'nalishida 180 soatlik o'quv moduli, malaka oshirish kurslarida

120 soatlik o'quv moduli doirasida ta'lim jarayonlariga jalb qilingan, shuningdek, markaz xodimlari tomonidan "Elektron ma'lumotlar bilan ishlashda mutaxassis ishtiroki" va "Jinoyatlarni tergov qilishda kripto-aktivlar bilan ishlash samaradorligi" kabi mavzularda elektiv kurslar ishlab chiqilgan.

Amaliyotchi xodimlarning kasbiy malakasini oshirish yo'nalishida: markaz xodimlari doimiy ravishda respublikamizning barcha hududlariga borib, kiberjinoyatlarni fosh etish va tergov qilishda mas'ul xodimlar hamda sudyalarning raqamli dalillarni to'plash, kripto-aktivlarni olish va xatlash, xorijiy xizmatlar ko'rsatish provayderlaridan ma'lumotlar olish hamda kiberjinoyatlarni kvalifikatsiya qilishga oid kasbiy ko'nikmalarini oshirib kelmoqda.

Yuqorida bayon etilganlardan kelib chiqib shuni ta'kidlash lozimki, raqamli texnologiyalar jadal rivojlanib borayotgan hozirgi davrda kiberjinoyatchilikka qarshi kurashish masalasi huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatining ustuvor yo'nalishiga aylanib bormoqda.

Kiberjinoyatlarga qarshi kurashishga va raqamli tergovga ko'maklashish markazi faoliyati tajribasi shuni ko'rsatadiki, raqamli kriminalistika imkoniyatlarini tizimli va institutsional asosda rivojlantirish kiberjinoyatlarni samarali fosh etish hamda tergov qilishning muhim shartidir.

Umumlashtirib aytganda, markaz faoliyati O'zbekiston Respublikasida raqamli kriminalistikaning institutsional tizimini shakllantirishda poydevor vazifasini o'tamoqda. Mazkur tajribani yanada kengaytirish, xalqaro hamkorlikni mustahkamlash, zamonaviy sun'iy intellekt va "Big Data" texnologiyalarini tergov amaliyotiga joriy etish hamda soha bo'yicha yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish – kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishning strategik yo'nalishi sifatida belgilanishi maqsadga muvofiqdir.



Илья КОНОВАЛОВ,
прокурор-криминалист
Института цифровой криминалистики
Правоохранительной Академии

Амар КАМАЛХОДЖАЕВ,
студент 3 курса Правоохранительной Академии

ЦИФРОВОЕ НАСИЛИЕ НАД ДЕТЬМИ И ЕГО ФОРМЫ

АННОТАЦИЯ. В статье анализируются новые формы общения в цифровой среде, способствующие возникновению различных проявлений насилия в интернете и распространения материалов сексуального насилия над детьми. На основе данных Europol, UNICEF, Interpol и WeProtect Global Alliance рассматривается зарубежный опыт и научные подходы к проблеме. Авторы делают вывод о необходимости системной профилактики и защиты несовершеннолетних в условиях развития цифровых технологий.

ANNOTATSIYA. Maqolada internetdagi zo‘ravonlikning turli ko‘rinishlari va bolalarga nisbatan jinsiy zo‘ravonlik materiallarini tarqatishning paydo bo‘lishiga hissa qo‘shadigan raqamli muhitdagi muloqotning yangi shakllari tahlil qilinadi. Yevropol, UNICEF, Interpol va WeProtect Global Alliance ma‘lumotlari asosida xorijiy tajriba va muammoga ilmiy yondashuvlar ko‘rib chiqilgan. Mualliflar raqamli texnologiyalarning rivojlanishi sharoitida voyaga yetmaganlarni tizimli profilaktika qilish va himoya qilish zarurligi to‘g‘risida xulosa chiqaradi.

ABSTRACT. The article analyzes new forms of communication in the digital environment that contribute to the emergence of various manifestations of violence on the Internet and the dissemination of materials of sexual violence against children. Based on data from Europol, UNICEF, Interpol, and WeProtect Global Alliance, foreign experience and scientific approaches to the problem are considered. The author concludes that in the context of the development of digital technologies, it is necessary to systematically prevent and protect minors.

Ключевые слова: кибертравля, несовершеннолетние, груминг, сексторшен, секстинг, противодействие киберпреступности.

Kalit so‘zlar: kiberhujum, voyaga yetmaganlar, grumming, sekstorshen, seksting, kiberjinoyatchilikka qarshi kurash.

Key words: cyberbullying, minors, grooming, sextortion, sexting, countering cybercrime.

Введение. На протяжении последних десятилетий человечество наблюдает стремительный научно-технический прогресс. Сегодня невозможно представить жизнь без глобальной сети Интернет, мобильной связи, социальных сетей и мессенджеров. Эти технологии открывают новые возможности для общения на расстоянии и значительно упрощают взаимодействие между людьми. Подобные достижения стали одним из ключевых этапов в развитии новой эры – эры цифровых технологий.

Однако вместе с развитием цифрового пространства все чаще возникают случаи, когда люди разных возрастов и социальных групп используют эти технологии в противоправных целях – для запугивания, шантажа и эксплуатации. Подобные

действия нередко приводят к серьезным и порой необратимым последствиям.

Согласно материалам Всемирной организации здравоохранения, прослеживается тенденция роста интернет-травли среди подростков. И только в 2023 году ей подвергался каждый 6 подросток, что значительно превышает аналогичные показатели 2018 года.

Кроме того, по данным централизованной системы сообщений о случаях сексуальной эксплуатации детей в Интернете (CyberTipline) Национального центра пропавших и эксплуатируемых детей (NCMEC), в 2021 году платформой, с частыми случаями онлайн-эксплуатации детей, определена социальная сеть Facebook, где было зарегистрировано 20,3 миллиона инцидентов, связанных с дет-



ской порнографией и торговлей людьми¹.

К тому же результаты опроса среди пользователей Рунета² Российского сегмента мировой сети показали, что чаще всего кибертравля осуществляется через социальные сети и мессенджеры, такие как "В-Контакте" (27% опрошенных), "Телеграм" (16%), "Tik-Tok" (13%), "Одноклассники" (8%) и прочие.

В связи с этим становится очевидно, что масштабы киберпреступлений против несовершеннолетних продолжают расти.

Таким образом, целями данной статьи являются проведение подробного анализа особенностей, признаков и рисков таких форм онлайн-насилия, как кибербуллинг, "сексторшен", "груминг" и "секстинг", а также признаки непрямого насилия над детьми, связанного с получением изображений сексуального характера. А задачи статьи включают анализ сущности и специфики различных видов киберугроз, их характерных признаков, рисков и последствий для несовершеннолетних, а также исследование механизмов вовлечения детей в создание изображений интимного содержания и определение основных направлений профилактики и противодействия подобным угрозам в цифровой среде.

Основная часть. В соответствии с руководящими принципами терминологии по защите детей от сексуальной эксплуатации и сексуального насилия³ подобные действия могут включать в себя следующие виды: "кибербуллинг", "секстинг", "секс-чаттинг", "груминг", "сексторшен"

и "порнография".

Таким образом, одним немаловажным фактом является то, что процесс кибертравли можно разделить на этапы. На первоначальном этапе, как правило, происходит установление контакта между участниками, что в научной литературе обозначается термином "груминг" (от англ. grooming). На последующих стадиях взаимодействие может переходить в фазу, известную как "секстинг" или "секс-чаттинг", и далее развиваться в зависимости от целей и мотивов участников. Рассмотрим каждое из явлений в отдельности.

Первоначально с момента зарождения на всех этапах своего развития представители человечества различными способами систематически и преднамеренно проявляли агрессию по отношению к друг другу. В процессе проведения девиантных научных исследований такое поведение получило название "буллинг"⁴, что в переводе с английского обозначает травлю. Вместе с тем в современную эпоху, когда появились новые технологии позволяющие общаться через информационно-коммуникационные технологии люди перешли от традиционной травли к травле в сети, что в свою очередь стало предметом изучения нового вида проявления систематической агрессии одним человеком по отношению к другому – "Кибербуллинг"⁵.

Кибербуллинг или кибертравля в научной литературе трактуется по-разному, однако большинство исследователей сходятся в том, что это форма агрессии, осу-

1 СМИ Overclockers // наименование ресурса - электронный ресурс. Режим доступа: <https://overclockers.ru/blog/gamingtech/show/65202/opublikovany-novye-dannye-ob-ekspluatacii-detej-v-facebook> - дата обращения: 06.04.2022 г.

2 Аналитический центр ВЦИОМ // наименование ресурса - электронный ресурс. Режим доступа: <https://wciom.ru/analytical-reviews/analiticheskii-obzor/detskii-kiberbulling-i-kak-s-nim-borotsja#> - дата обращения: 05.08.2024 г.

3 Конвенция Совета Европы о защите детей от сексуальной эксплуатации и сексуального насилия // наименование ресурса - электронный ресурс. Режим доступа: <https://rm.coe.int/168046e1da> - дата обращения: 25.10.2007 г.

4 Бочавер А. А., Хломов К. Д. Буллинг как объект исследований и социальный феномен // Психология. Журнал Высшей школы экономики. – № 3(10). – 2013. – С. 149-159.

5 ЮНИСЕФ // наименование ресурса - электронный ресурс. Режим доступа: <https://cyberleninka.ru/article/n/bulling-kak-osobyy-vid-konflikta-v-detskoy-i-podrozkovoy-srede> - дата обращения: 2022 г.



ществляемая с использованием цифровых технологий.

Так, например Д. Ольвеус⁶ считает, что кибербуллинг является продолжением традиционного буллинга, где основными признаками выступают намеренность, систематичность и неравенство сил, но реализуется он через электронные средства коммуникации.

Вместе с тем П. Смит⁷ склоняется к мнению что кибербуллинг это преднамеренное причинение вреда другому человеку с помощью электронных форм контакта, включая социальные сети, мессенджеры, электронную почту и другие цифровые ресурсы.

Статистика показывает, что кибербуллинг является распространённой проблемой. Так в России каждый пятый подросток подвергается кибербуллингу⁸, а в США каждый четвертый, при этом чаще всего жертвами становятся девушки⁹.

Вместе с тем по данным ЮНИСЕФ 2024 года¹⁰, около 10% детей в мире подвергались цифровой травле, а материалы Всемирной организации здравоохранения за 2024 год¹¹ демонстрируют, что каждый шестой ребенок школьного возраста подвергается кибербуллингу.

По мнению группы психологов “Мака-

ровой Е.А., Макаровой Е.Л., и Махриной Е.А.”¹² кибербуллинг вызывает серьёзные психологические последствия, такие как тревога и депрессия, с последующими проблемами в общении со сверстниками и взрослыми, это усугубляет возникающие в обществе проблемы и повышает риски негативного или чрезмерно пассивного поведения.

Весь процесс кибертравли начинается с начального этапа, то есть с этапа налаживания контакта с детьми для сексуальных целей “груминг” (“ухаживание”, “обхождение”). “Груминг” определен в статье 23 Конвенции Совета Европы о защите детей от сексуальной эксплуатации и сексуальных злоупотреблений¹³ как “любое умышленное предложение о встрече, с которым взрослый при помощи информационно-коммуникационных технологий обращается к ребенку с целью (будущей сексуальной эксплуатации)”.

Долгосрочное исследование этой проблемы, проведенное в Эдинбургском университете¹⁴, выявило, что насильники зачастую общаются с несовершеннолетними в течение долгого периода времени с целью установить эмоциональную связь и подготовить почву для сексуальной эксплуатации и насилия в будущем.

6 Буллинг как особый вид конфликта в детской и подростковой среде // наименование ресурса - электронный ресурс. Режим доступа: <https://www.unicef.org/belarus/> - дата обращения: 12.05.2022 г.

7 Бобровникова Н.С. Кибербуллинг: виды и особенности проявления // социальная психология, политическая и экономическая психология. Международный научно-исследовательский журнал. – № 11 (125).

8 Аналитический центр ВЦИОМ // наименование ресурса - электронный ресурс. Режим доступа: <https://wciom.ru/analytical-reviews/analiticheskii-obzor/kiberbulling-masshtab-problemy-v-rossii> дата обращения: 06.06.2022 г.

9 Джеймса Мартина наименование ресурса // наименование ресурса - электронный ресурс. Режим доступа: <https://explodingtopics.com/blog/cyberbullying-stats#adult-cyberbullying-stats> дата обращения: 27.09.2025 г.

10 Результаты опроса ЮНИСЕФ в Беларуси // наименование ресурса - электронный ресурс. Режим доступа: <https://www.unicef.org/belarus/> дата обращения: 12.05.2022 г.


11 Всемирная организация здравоохранения // наименование ресурса - электронный ресурс. Режим доступа: <https://bimportal.ru/stati/kiberbulling-netkiberbullingu-vk/> дата обращения: 10.11.2024 г.

12 Макарова Е. А., Макарова Е. Л., Махрина Е. А. Психологические особенности кибербуллинга как формы интернет-преступления // Психология. РОССИЙСКИЙ ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ ЖУРНАЛ 2016 ТОМ 13 № 3.

13 Конвенция Совета Европы о защите детей от сексуальной эксплуатации и сексуального насилия // наименование ресурса - электронный ресурс. Режим доступа: <https://rm.coe.int/168046e1da> дата обращения: 25.10.2007 г.

14 Эдинбургский университет // наименование ресурса - электронный ресурс. Режим доступа: <https://www.ed.ac.uk/news/report-shows-scale-of-child-abuse-and-sexual-exploitation?> дата обращения: 07.10.2025 г.

По данной тематике Киселевым К.А. был проведен социальный опросник¹⁵, в котором приняли участие 170 человек. Были получены следующие результаты: Возраст жертвы, когда она впервые столкнулась с сексуальными домогательствами в сети Интернет:



Особо стоит отметить такой вид кибербуллинга, как кибертравля сексуального характера¹⁶, которая представляет собой использование сексуализированных терминов с целью оскорбить, поддразнить жертву за его/ее сексуальное поведение, высказывание угроз или шуток о сексуальном насилии или изнасиловании, распространение слухов о сексуальном поведении жертвы или оказание на нее давления с целью вовлечения в сексуальные действия. Сексуальная травля включает также распространение откровенно сексуальных фотографий и видео в целях опозорить или причинить эмоциональный стресс жертве.

Исследования показали¹⁷, что одними из наиболее распространенных методов кибертравли сексуального характера являются "секстинг" (то есть, создание и отправка сексуально откровенных изоб-

ражений при помощи мобильных телефонов) и размещение неуместных фотографий или видео в интернете.

В данном направлении в 2021 году два специалиста Энрике Гарсия-Торт (Enrique García-Tort) и Лаура Монсальве Лоренте (Laura Monsalve Lorente)¹⁸ опубликовали свое исследование в журнале, где результат исследования показал, что с помощью социальных сетей и приложений на мобильном телефоне "секстингом" занимались 39,2% опрошенных.

Следующим, но не менее опасным явлением является участие несовершеннолетних в чатах сексуального содержания, так называемом "секс-чаттинге". По мнению автора, данный вид онлайн-коммуникации представляет собой обмен изображениями и материалами интимного характера между ребёнком и взрослым в режиме реального времени.

Основное отличие "секс-чаттинга" от "секстинга" заключается в характере взаимодействия: если при "секстинге" передача фото- и видеоматериалов осуществляется с определённой задержкой, то "секс-чаттинг" предполагает непосредственное общение, часто с использованием видеозвонков через сеть Интернет. Такое взаимодействие создаёт повышенные риски для ребёнка, поскольку происходит в динамичном формате и затрудняет контроль со стороны родителей или правоохранительных органов.

Таким образом, автор пришёл к выводу, что данный процесс преимущественно реализуется во взаимодействии взрослых с детьми через социальные сети, игровые платформы и различные интернет-фо-

15 Киселёв К.А. Социально-психологические последствия онлайн груминга для учебной деятельности несовершеннолетнего // психология. Саратовский национальный исследовательский государственный университет имени Н.Г. Чернышевского (ФГБОУ ВО СГУ) г. Саратов, Российская Федерация.

16 Киберпреступления против личности на гендерной почве // наименование ресурса - электронный ресурс. Режим доступа: <https://sherloc.unodc.org/cld/ru/education/tertiary/cybercrime/module-12/key-issues/gender-based-interpersonal-cybercrime.html> дата обращения: 2023 г.

17 Исследование секстинга // наименование ресурса - электронный ресурс. Режим доступа: <https://ramirkz.tumblr.com/>

18 Исследователи из Университета Валенсии // наименование ресурса - электронный ресурс. Режим доступа: <https://naked-science.ru/article/psy/sexting-among-young-adults> дата обращения: 02.06.2021 г.



румы. Зачастую преступники начинают простое общение с детьми с последующими просьбами прислать изображения, принять участие в сексуальных действиях через вебкамеру или сексуализированного виртуального общения. Преступники прилагают максимальные усилия для установления контроля над ребенком.

Следующий термин “сексторшен” является очень дебатированным в области защиты детей, так как данный термин четко не указывает, что речь идет о сексуальной эксплуатации детей. Наиболее распространенными терминами являются термины “сексуальное принуждение” и “сексуальное вымогательство”. Этот вид насилия называется, как шантаж с использованием “вебкамеры”.

Он означает, что преступник шантажирует ребенка с помощью самогенерируемых изображений этого ребенка с целью вымогания у него требований сексуального характера, денег и других выгод. Преступник обычно угрожает ребенку, что он может разместить фотографии ребенка онлайн или отправить их членам его семьи и друзьям. Сексуальному вымогательству могут подвергаться даже малолетние дети. Обычно преступники преследуют две основные цели: экономическая выгода получить деньги от вымогательства и сексуальный интерес, когда преступник хочет заполучить сексуальный материал (фотографии и видео ребенка) или преступник хочет встретиться с жертвой за пределами киберпространства.

Согласно ежегодному стратегическому отчету (IOCTA)¹⁹, случаи сексуального вымогательства детей в интернете в 2024 году возросло, но все же большее количество случаев вымогательства не доходят до сведений родителей и правоохрани-

тельных органов из-за отсутствия знаний у детей и чувства стыда, которые они могут испытывать. Исходя из этого многие дети, ставшие объектом насилия, испытывают депрессию, страх и в конечном итоге они становятся эмоционально зависимыми от злоумышленников.

Теперь про самое распространенное явление, сексуальное насилие и эксплуатация детей с помощью изображений, включающее образ детей, вовлеченных в реальную или симулируемую сексуальную деятельность либо демонстрацию интимных частей тела ребенка для сексуальных целей. В международном и национальном законодательстве этот вид изображений чаще всего характеризуется как “детская порнография”.

Но все больше представителей правоохранительных органов и специалистов в области защиты детей используют термин “изображения сексуального насилия над детьми”, так как этот термин больше подчеркивает эксплуатационной и насильственный характер действий над детьми. Хотя точное количество подобных изображений в виртуальном мире неизвестно, во всемирной сети могут циркулировать миллионы подобных изображений детей. Рынок обмена и сбыта этих изображений появился еще задолго до зарождения интернета. Интернет способствовал исчезновению коммуникационных барьеров и санкций для распространения порнографии и педофилии. По данным исследований международных организаций таких как: Europol, UNICEF²⁰, INTERPOL, WeProtect Global Alliance выявили долгосрочные негативные последствия этого вида сексуального насилия над детьми. Они во многом схожи с другими формами сексуального насилия, ко-

19 Internet Organised Crime Threat Assessment (IOCTA) 2024 // наименование ресурса - электронный ресурс. Режим доступа: <https://www.europol.europa.eu/publication-events/main-reports/internet-organised-crime-threat-assessment-iocta-2024> дата обращения: 12.06.2025 г.

20 Детская порнография по-прежнему процветает в Интернете // наименование ресурса - электронный ресурс. Режим доступа: <https://www.ohchr.org/ru/special-procedures/sr-sale-of-children> дата обращения: 2022 г.



торым могут подвергаться дети. Однако это вид насилия сопровождается более пагубными последствиями для детей, так как практически невозможно контролировать циркуляцию изображений в интернете, их невозможно уничтожить, и интернет предоставляет к ним широкий доступ глобальной аудитории. Данная деятельность чаще всего встречается в даркнете, так как рынок порнографии обычно является платной услугой, к тому же даркнет предоставляет безопасную среду для преступников, но это не делает их неуязвимыми. Например, в 2021 году в Германии и Парагвае²¹ задержаны четверо участников даркнет-платформы Boystown, которых обвиняют в распространении детской порнографии.

В конечном итоге можно прийти к выводу, что кибертравля в интернете представляет собой поэтапный процесс. Как отмечалось ранее, “трюминг” является предварительным этапом, на котором устанавливается контакт с несовершеннолетним. После этого, как правило, следует этап “секстинга” или “секс-чаттинга”, а затем — стадия вымогательства, известная как “сексторшн” (sextortion). Завершающей фазой данного процесса может стать распространение интимных изображений несовершеннолетнего без его согласия (детская порнография или изображения сексуального насилия над детьми).

Заключение. Учитывая данные противоправные аспекты и действия, представляющие угрозу для подростков, следует провести комплекс мероприятий, направленных на повышение осведомлённости населения, в частности во всех сферах образования — начиная с детских садов и заканчивая высшими учебными заведениями. Однако для каждой возрастной категории необходимо применять соот-

ветствующие подходы, чтобы обеспечить лучшее понимание рассматриваемых вопросов. По нашему мнению, осведомительный материал для детей дошкольного возраста следует подавать в игровой и визуальной форме. Сегодня дети часто смотрят мультипликационные фильмы, на которые обращают особое внимание, поэтому целесообразно создавать анимацию просветительского характера. Такие материалы можно разрабатывать в конкурсном формате — как на национальном уровне, так и с международным участием, что будет способствовать созданию полезного контента и повышению уровня информированности как среди участников, так и среди зрителей.

Для детей младшего школьного возраста можно создавать короткие видеоролики и размещать их на популярных информационных площадках, таких как TikTok, YouTube и другие. Кроме того, на уроках просвещения и классных часах педагоги могут демонстрировать социальные ролики, служащие дополнительным источником полезной информации для учащихся. Для старшеклассников рекомендуется не только показывать осведомительные видеоролики, но и вовлекать их в процесс их создания. Также со стороны школ можно проводить конкурсы по написанию эссе, созданию 3D-изображений, иллюстраций, макетов и плакатов, направленных на раскрытие актуальных социальных тем и формирование ответственного отношения к окружающему миру.

Эти направления могут быть реализованы в Центре по развитию детского контента, в Министерство дошкольного и школьного образования, а также в Агентство информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан.

#

21 Дело о крупнейшей сети педофилов в ФРГ // наименование ресурса - электронный ресурс. Режим доступа: <https://www.dw.com/ru/zablokirovan-odin-iz-krupnejshih-v-mire-sajtov-pedofilov-v-darknete/a-57409292> дата обращения: 03.05.2021г.

Davlat OBLAKULOV,

Nº2 (13) 2026



Shuningdek, O'zbek tilining izohli lug'atida "*rishva (t)*" so'zi pora; pora bilan sotib olish (esk.) biror-bir ishni bitirish uchun manfaatdor kishi tomonidan amaldorga yashirin va g'ayriqonuniy ravishda beriladigan pul yoki ashyo pora deb, *rishva(t)xo'r* – rishva yeyuvchi, poraxo'r deb, *rishva(t)xo'rlik* poraxo'rlik, "*rishvatchi*" esa poraxo'r deb izohlanadi².

Mazkur lug'atga ko'ra, "*og'dirmoq*" so'zi "*og'moq*" so'zining orttirma nisbati hisoblanib, u kam hollarda haydamoq, yetaklamoq ma'nosini anglatadi. Bunda "*og'ma*" so'zi "*og'machi*" so'zi bilan aynan bo'lib, "*og'machi*" – biror gapida turmaydigan, hadeb ayniyveradigan irodasiz odam, ikkilanuvchi, ikkiyuzlamachi, shuningdek, bosh yo'ldan chekinuvchi, chetga chiquvchi, og'uvchi, "*og'machilik*" – og'machiga xos xususiyatga egalik, bosh yo'ldan chekinish, chetga chiqish, og'ish degan ma'nolarini anglatadi³.

Bizga ma'lumki, JKning rus tilidagi nashrida 192⁹-modda "*коммерческий подкуп*" deb nomlangan va ruscha-o'zbekcha lug'atda "*подкуп*" so'zi sotib olish, pora berish, pora berib o'ziga og'dirib olish, "*подкупить*" (1) pora berish, pora berib o'ziga og'dirib olish, (2) ko'nglini topmoq, o'ziga qaratmoq, o'zi tomonga og'dirmoq, o'ziga tortmoq degan ma'nolarni anglatishi yozilgan⁴.

Yana bir lug'atda ruschadagi "*подкуп*" o'zbekchada – pora berib sotib olish, pora berib o'zi tomonga og'dirib olish deb izohlangan bo'lsa⁵, rus tilining zamonaviy atamalar lug'atida "pora berish" fe'lini ifodalab, pul, sovg'alar berib o'zi tomonga og'dirib olish

ma'nosini anglatishi keltirilgan⁶.

Professor S.I.Ojegov esa "*подкупнуть*" so'zini pora berib o'zi tomonga og'dirish, "*подкупной*" so'zini esa pora berish deb izohlagan⁷.

Shunday qilib, lug'atlardan "pora evaziga og'dirib olish" so'zi pora beruvchi, ya'ni pora berib o'zi tomonga og'diruvchi ma'nolarini bildirishini angladik. Biroq, yuqorida qayd etib o'tganimizdek, JKning 192⁹-moddasidagi "Tijoratda pora evaziga og'dirib olish" faqatgina pora berishni emas, balki umumiy nomi ostida bir-biriga yaqin bo'lgan ikkita jinoyat tavsifi, ya'ni nodavlat sektorda pora berish va pora olishni o'zida qamrab oladi. Shu sababli mazkur modda "Tijoratda pora evaziga og'dirib olish" deb nomlanishi, fikrimizcha, biroz munozarali bo'lib, ayni paytda mazkur nomi uning mazmun-mohiyatini to'liq qamrab olmagan.

Bu borada tadqiqot doirasida o'tkazilgan so'rovnomada "Sizningcha, "Tijoratda pora evaziga og'dirib olish" jumlasida qanday jinoiy qilmish nazarda tutilgan?" degan savolga respondentlarning 17,6 foizi "Tijoratda ustunlikka erishish uchun raqobatchilarni pora evaziga o'ziga og'dirib olish" deb, 57 foizi "Tijoratda har qanday ustunlikka erishish uchun, jumladan bozorda o'z o'rniga ega bo'lish uchun mansabdor shaxslarga yoki xorijiy davlat bozoriga kirish uchun xorijiy davlat mansabdor shaxslariga pora berish" deb, 20,1 foizi "Nodavlat tijorat va boshqa nodavlat tashkilotida pora berish va pora olish" deb, 5,3 foizi esa "Javob berishga qiynalaman" deb fikr bildirgan. De-

2 O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. Uchinchi jild / Mas'ul muharrir A.Madvaliyev – T.: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2020-yil, 387-388-betlar.

3 **Izoh:** ushbu lug'atga ko'ra, "og'moq" so'zi 1. biror tomonga yotib, qiya holat olmoq, qiyshaymoq, engashmoq, yonboshlamoq; (2) biror tomonga pastga sirg'anib, osilib tushmoq; (3) to'g'ri, tik yo'ldan yoki belgili yo'nalishdan chetga chiqmoq; (4) burilmoq, chetga chiqmoq, biror tomonga siljimoq; (5) bo'linmoq, chalg'imoq; (6) to'g'ri yo'ldan adashmoq, chetga chiqmoq, toymoq, qaytmoq; (7) biror tomonga yo'nalmoq, qaramoq va h.k. ma'nolarni bildiradi. Yana quyidagi ma'nolarni anglatadi: (8) eng yuqori nuqtadan, zenitdan o'tmoq (Quyosh, oy, va yulduzlar haqida); (9) ma'lum bir muddatdan, paytdan o'tmoq, oshmoq; (10) ko'chma biror tomonga o'tmoq, unga moyil bo'lmoq yoki yon bosmoq; esi og'moq va h.k. // O'zbek tilining izohli lug'ati 191-192-betlar.

4 Русско-узбекский словарь. Под. ред. Р.Абдурахманова М.:1954 г. – С.575-576.

5 Ruscha-o'zbekcha lug'at 2 tomlik. 2-tom. T.:1984-yil, 90-bet.

6 Словарь современных терминов русского языка. Под. ред. Н.Н. Толкунов М. 1995 г. – С. 345.

7 С.И.Ожегов, Н.Ю.Шведова Толковый словарь русского языка М., 1981 г.



mak, “Tijoratda pora evaziga og‘dirib olish” jumlasini lug‘aviy jihatdan go‘yoki, faqatgina tijoratini yaxshilash uchun raqobatchisi yoki mansabdor shaxsni pora evaziga o‘ziga og‘dirib olishni anglatayapti.

Bu esa o‘z navbatida, JKning 192⁹-moddasi obyektni tijorat va iqtisodiyot sohasidagi munosabatlar bilan cheklanib qolishiga olib keladi. Xorijiy davlatlar jinoyat qonunchiligida, xususan, Germaniya Federativ Respublikasi JKning 299-moddasida aynan ichki yoki tashqi raqobatda boshqa shaxsga ustunlik taqdim qilish uchun xususiy sektordagi poraxo‘rlilik uchun javobgarlik nazarda tutilgan⁸.

Bunday motiv bilan ham jinoyat sodir etilishi mumkin, albatta. Xususan, sudlanuvchi F.I.Sh. turmush o‘rtog‘i F.I.Sh rahbarlik qilib kelayotgan MCHJning kapital ta‘mirlash uchun tashkil etilgan tanlovda g‘olib chiqishini ta‘minlash uchun ushbu tanlovda qatnashayotgan boshqa tashkilot rahbariga tanlovda qatnashish uchun berilgan arizasini qaytarib olishi evaziga qonunga xilof ekanligini bila turib, 100 AQSH dollarini pora tariqasida berayotgan vaqtida ushlangan. Sudlanuvchi yuqoridagi jinoiy harakatlari bilan JKning 192⁹-moddasi 1-qismida ko‘rsatilgan jinoyatni sodir qilgan⁹.

Biroq, ushbu modda faqat nodavlat tijorat tashkiloti mansabdor shaxsi emas, balki nodavlat tijorat va boshqa nodavlat tashkiloti mansabdor shaxsiga pora berish yoki ular tomonidan pora olishni nazarda tutadi. Qolaversa, JKning 192⁹-moddasi motiv maqsad kvalifikatsiyaga ta‘sir ko‘rsatmaydi.

Jumladan, “XXX” oilaviy nodavlat maktabgacha ta‘lim muassasasi rahbari F.I.Sh. fuqaro F.I.Sh.ni NMTMga yordamchi tarbiyachi vazifasiga ishga qabul qilish evaziga undan 300 AQSH dollariga hisoblab, 3.060.000 so‘m naqd pulni pora tariqasida olgan. Sudning hukmiga ko‘ra, sudlanuvchi JKning 192⁹-moddasi 2-qismi bilan aybli deb topilgan¹⁰.

Yuqoridagilarga ko‘ra, JKning 192⁹-moddasining amaldagi nomini uning dispozitsiyasiga muvofiq emas degan xulosaga kelish mumkin.

Tadqiqot doirasida o‘tkazilgan so‘rovnomalar ham buni tasdiqlaydi. “Sizningcha, Jinoyat kodeksi 192⁹-moddasining “Tijoratda pora evaziga og‘dirib olish” degan nomi uning dispozitsiyasiga mosmi?” degan savolga respondentlarning 67,4 foizi “mos emas” deb javob bergan.

Mazkur muammo yuzasidan professor Y.V.Kolenko nafaqat tijorat, balki boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari (madaniy-ma‘rifiy, sport, diniy va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari) subyektlari – mansabdor shaxslarni qamrab olishni ta‘minlash maqsadida JKning 192⁹-moddasini (Tijoratda pora evaziga og‘dirib olish) “*Nodavlat sektorda pora evaziga og‘dirib olish*” deb nomlashni taklif qiladi¹¹.

Yuqorida biz “pora evaziga og‘dirib olish” jumlasini pora beruvchiga yaqin ekanligini izohli lug‘atlardan angladik, shu bois biz Y.V.Kolenko tomonidan ilgari surilgan fikrga qo‘shila olmaymiz¹².

O‘rganish davomida aniqlandiki, Gruzi-

8 <https://www.gesetze-im-internet.de/stgb/> Kirish sanasi 07.02.2026-yil.

9 O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2024-yil 1-martdagi № 03-23-169-24 xatiga asosan elektron variantdagi (pdf) hukm JIB Buxoro shahar sudining 2018-yil 17-maydagi 1-142-sonli jinoyat ishi.

10 O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2024-yil 1-martdagi № 03-23-169-24 xatiga asosan elektron variantdagi (pdf) hukm JIB Uzun tuman sudining 2020-yil 16-noyabrda 1-sonli jinoyat ishi.

11 E.V.Коленько. Ответственность за получение взятки: перспективы совершенствования уголовного законодательства Республики Узбекистан с учетом международных стандартов Автореф. диссертации доктора философии (PhD) по юридическим наукам -Т.: 2023 г. – С. 37.

12 Tadqiqotning ilk bosqichlarida, qolaversa, magistrlik dissertatsiyasida biz ushbu modda nomini “*Nodavlat sektordagi poraxo‘rlilik*” deb nomlashni o‘ylab ko‘rgan edik, hatto bu borada ikki marotaba so‘rovnomalar ham o‘tkazgan edik. Unda qatnashgan respondentlarning (birinchi so‘rovnomaga bo‘yicha 70,6 %) 52 foizi ushbu fikrni qo‘llagan edi. Biroq, tadqiqot jarayonida ushbu qarash o‘zini oqlamadi. Qarang: D.O.Oblakulov “Korrupsiyaviy jinoyatlar uchun javobgarlikni takomillashtirish (JKning 192⁹-moddasi misolida) masalalari” mavzusidagi magistrlik dissertatsiyasi. T.:2023-yil, 15-19-betlar.; 120-121.; D.O.Oblakulov Tijoratda pora evaziga og‘dirib olish jinoyati uchun javobgarlik belgilashning ijtimoiy zarurati // “Huquqni muhofaza qilish sohasida yuridik ta‘lim va fan: zamonaviy tendensiyalar va istiqbollari” mavzusiga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plami II jild. Mas’ul muharrir yu.f.d., prof. M.M.Mamasiddiqov. T.:Lesson press. 2024-yil. 162-171-betlar.



ya JKning 221-moddasi¹³, Qozog'iston JKning 253-moddasi¹⁴, Qirg'iziston JKning 250-moddasi¹⁵, Tojikiston JKning 279-moddasi¹⁶ va Rossiya Federatsiyasi JKning 204-moddasi¹⁷ ham "коммерческий подкуп" deb nomlangan. Bu borada O.V.Kashinning fikricha, S.I.Ojegov tomonidan tuzilgan lug'atda ruschadagi "подкуп" so'zi pora berib og'dirib olishni anglatib, pora beruvchining harakatlarini bildiradi, biroq RF JKdagi "коммерческий подкуп" deb nomlangan 204-moddasida nodavlat tijorat va boshqa nodavlat tashkilotda pora berish va olish uchun javobgarlik belgilangan. Bino-barin, "подкуп" atamasini qonun chiqaruvchi tomonidan pora bergan va pora olayotgan shaxsga asossiz ravishda kengaytirgan¹⁸.

Bunday yondashuvni professor A.V.Kulikov va O.A.Sheleg¹⁹, G.N.Mironova²⁰ ham bildirgan. Jumladan, professor A.V.Kulikovning fikriga ko'ra, JKning bitta moddasiga bir-biriga qarama-qarshi bo'lgan ikkita elementni kiritish noo'rin ko'rinadi²¹. Shu sababli bitta moddada pora olish, boshqasida pora berish uchun alohida javobgarlikni mustahkamlash asosli hisoblanadi. Shuningdek, olim tijoratda pora evaziga og'dirib olish bu pora berishni nazarda tutayotganligini bildirgan.

Darhaqiqat, bu borada MDH davlatlaridan Turkmaniston Respublikasi JKda nodavlat tijorat va boshqa nodavlat tashkilotda poraxo'rlik jinoyatlari ikkiga ajratilgan bo'lib, JKning rus tilidagi "подкуп" deb nomlangan 290-moddasida "pora berish (pora evaziga sotib olish (noqonuniy haq berish))" uchun, "получение незаконного вознаграждения" 291-moddasida "noqonuniy haq olish" uchun javobgarlik nazarda tutilgan²².

Professor P.V.Nikonov esa o'zining tadqiqot ishida ushbu moddani tijoratda pora olishni nazarda tutuvchi "Получение коммерческого подкупа" (tijoratda noqonuniy haq olish), tijoratda pora berishni nazarda tutuvchi "Дача коммерческого подкупа" (tijoratda noqonuniy haq berish) deb nomlangan ikkita mustaqil moddaga ajratishni taklif qiladi²³.

Nazarimizda, bu borada A.V.Kulikov va P.V.Nikonovlar to'g'ri xulosaga kelgan.

Chunki, ma'lum ma'noda "pora" va "poraxo'rlik" tushunchalari universal xususiyatga ega. "Ayni vaqtda ulardan u yoki bu ijtimoiy-huquqiy ma'noda foydalanish jinoyat chegaralarini turlicha belgilaydi, muammo jihatlarini, shuningdek, tadqiq qilish doirasi va usullarini o'zgartirib yuboradi", deydi

13 <https://www.matsne.gov.ge/ru/document/view/16426?publication=241> Kirish sanasi 03.01.2026-yil.

14 <https://adilet.zan.kz/rus/docs/K1400000226> 27.09.2024/03.01.2026.

15 <https://cbd.minjust.gov.kg/112309/edition/14072/ru/03.01.2026>.

16 <https://mmk.tj/content> 27.09.2024/03.01.2026.

17 "Уголовный кодекс Российской Федерации" от 13.06.1996 г. N 63-ФЗ // https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_10699/03.01.2026.

18 О.В.Кашин. Подкуп как уголовно-правовой феномен: к постановке проблемы // Преступление – наказание – исправление // <file:///C:/Users/User/Downloads/podkup-kak-ugolovno-pravovoy-fenomen-k-postanovke-problemy.pdf>

19 А.В.Куликов, О.А.Шелег К вопросу расширения субъектного состава и предмета коммерческого подкупа (ст. 204 УК РФ)// Криминалисть. 2024 г. № 1 (46). – С. 56–62.

20 Ushbu olim Rossiya Federatsiyasi JKning 204² -moddasi (мелкий коммерческий подкуп) kichik tijoratda pora evaziga og'dirib olish jinoyati bo'yicha fikr bildirgan // Г.Н.Миронова уголовная ответственность за мелкий коммерческий подкуп (ст. 2042 УК РФ) Дисс. к.ю.н. Омск 2019.

21 А.В.Куликов, О.А.Шелег К вопросу расширения субъектного состава и предмета коммерческого подкупа (ст. 204 УК РФ)// Криминалисть. 2024 г. № 1 (46). – С. 56–62.

22 <https://ombudsman.gov.tm/doc/%D0%A3%D0%B3%D0%BE%D0%BB%D0%BE%D0%B2%D0%BD%D1%8B%D0%B9%20%D0%BA%D0%BE%D0%B4%D0%B5%D0%BA%D1%81.pdf> 27.09.2024-yil.

23 П.В.Никонов Теоретические основы уголовно-правового противодействия преступлениям, связанным с дачей и получением взятки и иными видами незаконного вознаграждения Диссертация на соискание ученой степени доктора юридических наук Москва – 2024 г. – С.540–546.



professor R.A.Zufarov²⁴.

“Poraxo‘rlik” tor ma’noda – bu pora olish jinoyatini anglatadi. Keng ma’noda “poraxo‘rlik” tushunchasi uchta jinoyat tarkibini: pora olish, pora berish va pora olish-berishda vositachilik qilishni qamrab oladi.

O‘zbekiston yuridik ensiklopediyasi mualliflari *poraxo‘rlik* – pora olish, pora berish va pora olish - berishda vositachilik qilish tushunchalarini qamrab olgan tushuncha deb qayd etadi²⁵. Shu bilan birga, JKning sakkizinchi bo‘limida (Atamalarining huquqiy ma’nosi) *poraxo‘rlik* – pora olish, pora berish yoki bu jinoyatlarda vositachilik qilish deb izohlangan.

Kezi kelganda qayd etish lozimki, yuqorida “poraxo‘rlik” tushunchasiga berilgan izohlarga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, unda negadir JKning 192⁹-moddasida ko‘rsatilgan “tijoratda pora evaziga og‘dirib olish” jinoyati nazarda tutilmagan. Buning sababi O‘zbekiston yuridik ensiklopediyasi 2010-yilda nashr etilgan²⁶, amaldagi JKning “Atamalarining huquqiy ma’nosi” deb nomlangan sakkizinchi bo‘limidagi “poraxo‘rlik” tushunchasiga berilgan izoh ham JK qabul qilingan vaqtdan, ya’ni 1994-yilning 22-sentyabr kunidan buyon o‘zgarmagan. JKning 192⁹-moddasida ko‘rsatilgan “tijoratda pora evaziga og‘dirib olish” jinoyati esa JKga 2015-yil 20-avgustda qabul qilingan tegishli qonun²⁷ bilan kiritilgan edi.

Fikrimizcha, JKning sakkizinchi bo‘limidagi “poraxo‘rlik” tushunchasini “*pora olish, pora berish yoki bu jinoyatlarda vositachilik qilish, tijoratda pora evaziga og‘dirib olish*”

deb izohlash maqsadga muvofiq bo‘lar edi.

Shunday qilib, biz JKning 192⁹-moddasida nazarda tutilgan jinoyatni ikkita mustaqil tarkibdagi jinoyatga ajratishni taklif qilamiz hamda JKga yangi “*Nodavlat tijorat tashkilotining yoki boshqa nodavlat tashkilotining mansabdor shaxsini pora evaziga og‘dirib olish*” hamda “*Nodavlat tijorat tashkilotining yoki boshqa nodavlat tashkilotining mansabdor shaxsi tomonidan pora olish*” degan moddani kiritish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Bunday yondashuvga kelishimizning bir qancha jihatlarini sanab o‘tishimiz mumkin.

Birinchidan, nodavlat sektorda pora oluvchi va pora beruvchilarning manfaatlari bir-birlariga mos bo‘lmaganligi sababli bu qilmishlarni yagona jinoyat tarkibiga birlashtirish bizningcha to‘g‘ri emas.

Professor B.V.Zdravomislov ko‘rsatilgan tajovuzlar turlarining har birini o‘ziga xos bo‘lgan harakat tavsifi, qasdning mazmuni va subyekt belgilari bo‘lgan mustaqil jinoyatlar deb hisoblaydi²⁸. “Jinoyat huquqi nuqtayi nazaridan bunday fikr yetarli darajada asoslangan, chunki u nafaqat qonunchilik leksikasiga tayangan, balki mazkur jinoyatlarning turli mohiyati, tabiati va xususiyatini hisobga oladi”, deb yozadi professor R.A.Zufarov²⁹.

Ikkinchidan, JKning 192⁹-moddasida ko‘rsatigan *tijoratda pora evaziga og‘dirib olish* jinoyatiga tarkibi va huquqiy mohiyati bo‘yicha eng yaqin jinoyat bu pora olish (JKning 210-moddasi) va pora berish (JKning 211-moddasi) jinoyati hisoblanaadi. Vaholanki, qonun chiqaruvchi JKda pora

24 Zufarov R.A. Poraxo‘rlik uchun jinoiy javobgarlik // Mas’ul muharrir: yu.f.d.professor M.X.Rustamboyev. - T:TDYL., 2004-yil, 15-bet.; R.A.Zufarov Poraxo‘rlikka qarshi kurashning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlar: nazariya va amaliyot. Y.f.d ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. T.: 2005-yil, 28-bet.

25 O‘zbekiston yuridik ensiklopediyasi / Nashr uchun mas’ul R.A.Muhitdinov va boshq.; mas’ul muharrir N.To‘ychiyev. – T.: Adolat, 2010-yil, 368-bet.

26 O‘zbekiston yuridik ensiklopediyasi / Nashr uchun mas’ul R.A.Muhitdinov va boshq.; mas’ul muharrir N.To‘ychiyev. – T.: Adolat, 2010-yil, 368-bet.

27 O‘zbekiston Respublikasining 2015-yil 20-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga xususiy mulkni, tadbirkorlik subyektlarini ishonchli himoya qilishni yanada kuchaytirishga, ularni jadal rivojlantirish yo‘lidagi to‘siqlarni bartaraf etishga qaratilgan o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi 391-sonli qonuni //https://lex.uz/docs/2724496.

28 Здравомыслов Б.В. Должностные преступления: Понятие и классификация М.1975 г. – С.124.

29 R.A.Zufarov Poraxo‘rlikka qarshi kurashning jinoyat-huquqiy va kriminologik jihatlar: nazariya va amaliyot. Y.f.d ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiyasi. T.: 2005-yil, 29-bet.



olish va pora berish uchun javobgarlikni alohida ajratgan. Tijoratda pora evaziga og'dirib olish jinoyati uchun javobgarlikni belgilashda xuddi shu yo'ldan borish mantiqan to'g'ri bo'lardi. Masalan, Moldova JKning 333-moddasida nodavlat tashkilotda pora olish uchun, 334-moddasida nodavlat tashkilotda pora berish uchun javobgarlik nazarda tutilgan.

Uchinchidan, tijoratda pora evaziga og'dirib olish jinoyati uchun JKning 192^o-moddasi 1 va 3-qism uchun jinoyat subyekti har qanday shaxs bo'lsa, mazkur moddaning 2 va 4-qismlari uchun jinoyat subyekti maxsus subyekt nodavlat tijorat tashkilotining va boshqa nodavlat tashkilotining mansabdor shaxsi hisoblanadi, bundan ko'rinib turibdiki, bitta moddada ikki xil xususiyatlarga ega bo'lgan subyektlarning mavjudligi bizningcha noto'g'ri.

To'rtinchidan, izohli lug'atlar va MDH davlatlaridan Turkmaniston JKning 290-moddasini o'rganish asosida "pora evaziga og'dirib olish" jumlasini ko'proq pora beruvchini nazarda tutayotganligi aniqlandi. Buni mamlakatimiz JKning 213, 214² -moddalari dispozitsiyasidan ham "pora evaziga og'dirib olish" jumlasida pora beruvchi nazarda tutilganligini anglash mumkin. Masalan, qonun chiqaruvchi JKning 213-moddasidagi "pora evaziga og'dirib olish" jumlasida davlat organining, davlat ishtirokidagi tashkilotning yoki fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi xizmatchisiga pora berish jinoyatini nazarda tutgan.

Xuddi shuningdek, JKning 192^o-moddasi-ning 6-qismida "basharti pora evaziga og'dirib olishni amalga oshirgan shaxsga nisbatan ..." degan jumlasida aynan pora bergan shaxs nazarda tutilganligi ham fikrimizni yana bir bor tasdiqlaydi.

Beshinchidan, bugungi kunda JKning 192^o-moddasida nazarda tutilgan nodavlat sektorda pora berish ham, pora olish ham statistik ma'lumotlarda bitta jinoyat tarkibi bo'yicha yuritiladi, boz ustiga JKning

192^o-moddasi 5-qismi ikkala jinoyat elementi uchun umumiy og'irlashtiruvchi belgi ekanligini inobatga olsak, masalan, bir yil davomida nodavlat tijorat tashkilot yoki boshqa nodavlat tashkilotining mansabdor shaxsi tomonidan pora olish yoki ushbu shaxslarga pora berish jinoyatini sodir etganligini tahlil qilishda qiyinchilik yuzaga kelishi mumkin.

Shunga ko'ra, ushbu moddaning alohida tarkibda ikkiga ajratilishi bu boradagi muammoni ham bartaraf etishga xizmat qiladi.

O'tkazilgan ijtimoiy so'rovnomada ishtirok etgan respondentlarning 66,4 foizi JKning 192^o-moddasini alohida tarkibda, ya'ni JK Maxsus qismining mustaqil moddalariga ajratish maqsadga muvofiq deb hisoblagan.

Keyingi masalalardan biri JKning 192^o-moddasi dispozitsiyasidagi "nodavlat tijorat" va "nodavlat boshqa tashkilotlar" tushunchasiga to'xtalib o'tsak. Bu borada aytish mumkinki, qonun chiqaruvchi "nodavlat tijorat" va "nodavlat boshqa tashkilotlar" deganda davlat ishtiroki yoki ulushi bo'lmagan qonuniy faoliyat olib borayotgan, ya'ni tegishli tartibda davlat ro'yxatidan o'tgan nodavlat tijorat va nodavlat notijorat tashkilotlarini nazarda tutadi.

JKning sakkizinchi bo'limiga kiritilgan tegishli o'zgartirishga ko'ra, davlat ishtirokidagi tashkilot sifatida:

1) ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) davlat ulushi miqdori ellik foizdan ortiq bo'lgan yoxud ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) davlat ulushi miqdori xo'jalik jamiyatining boshqa har bir aksiyadori (ishtirokchisi) ulushiga nisbatan ko'p bo'lgan tijorat tashkiloti;

2) to'liq yoki qisman davlat organi yoki davlat tashkiloti tomonidan tashkil etilgan yoki ta'sis etilgan notijorat tashkiloti ko'rsatilgan.

Bizga ma'lumki, Fuqarolik kodeksi 40-moddasida foyda olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olgan (tijoratchi tashkilot) yoki foyda olishni ana shunday maqsad qilib olmagan tashkilot (tijoratchi



bo‘lmagan tashkilot) yuridik shaxs bo‘lishi mumkinligi belgilangan³⁰.

FKning 43-moddasiga ko‘ra, yuridik shaxs ustav asosida yoki ta‘sis shartnomasi va ustav asosida yoxud faqat ta‘sis shartnomasi asosida ish olib boradi. Qonunda nazarda tutilgan hollarda tijoratchi tashkilot bo‘lmagan yuridik shaxs shu turdagi tashkilotlar haqidagi nizom asosida ish olib borishi mumkin.

Yuridik shaxsning ta‘sis shartnomasi uning muassislari tomonidan tuziladi, ustavi esa – tasdiqlanadi.

Mazkur kodeksga muvofiq bir muassis tomonidan tashkil etilgan yuridik shaxs shu muassis tasdiqlagan ustav asosida ish olib boradi.

FKning 45-moddasi 3-qismiga ko‘ra, qonunga yoki yuridik shaxsning ta‘sis hujjatlariga muvofiq yuridik shaxs nomidan ish olib boradigan shaxs o‘zi vakili bo‘lgan yuridik shaxs manfaatlari yo‘lida halol va oqilona ish olib borishi kerak. U yuridik shaxs muassislari (ishtirokchilari, a‘zolari) talabi bilan, agar qonunda yoki shartnomada boshqacha tartib nazarda tutilgan bo‘lmasa, yuridik shaxsga yetkazgan zararini to‘lashi shart.

“Nodavlat notijorat tashkilotlari to‘g‘risida”gi qonunning 2-moddasiga ko‘ra, nodavlat notijorat tashkiloti – jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foyda) o‘z qatnashchilari (a‘zolari) o‘rtasida taqsimlamaydigan o‘zini o‘zi boshqarish tashkilotidir³¹.

Nodavlat notijorat tashkiloti jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, boshqa demokratik qadriyatlarini himoya qilish, ijtimoiy, madaniy va ma‘rifiy maqsadlarga erishish, ma‘naviy va boshqa nomoddiy ehtiyojlarni qondirish, xayriya fao-

liyatini amalga oshirish uchun hamda boshqa ijtimoiy foydali maqsadlarda tuziladi.

Nodavlat notijorat tashkilotlarining ta‘sischisi davlat sanalmaydi, balki mustaqil subyektlar sanalib, ushbu subyektlar davlat hokimiyati vakolatlariga ega bo‘lmasligi kerak. Milliy qonunchilikda belgilangan “nodavlat notijorat tashkilotlari” tushunchasi va uning mohiyati xalqaro tajribada qo‘llanilayotgan “nohukumat tashkilotlar”, “uchinchi sektor” kabi tushunchalar bilan bir ma‘noga ega bo‘lib, ulardagi xususiyatlarni o‘zida mujassamlashtiradi³².

B.A.Narimanovning qayd etishicha, “nohukumat notijorat tashkiloti – bu jismoniy va (yoki) yuridik shaxslar tomonidan ixtiyoriylik asosida tashkil etilgan, daromad (foyda) olishni o‘z faoliyatining asosiy maqsadi qilib olmagan hamda olingan daromadlarni (foyda) o‘z qatnashchilari (a‘zolari) o‘rtasida taqsimlamaydigan o‘zini o‘zi boshqaruvchi tashkilot”.

Shunday qilib, tegishli tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tgan nodavlat tijorat va nodavlat boshqa qonuniy tashkilotning mansabdor shaxsi JKning 192⁹-moddasi bo‘yicha jinoyat subyekti bo‘ladi. Ayni vaqtida davlat va davlat ishtirokidagi tashkilot mansabdor shaxslar mazkur modda bo‘yicha jinoyat subyekti bo‘lmaydi.

Davlat organlari atamasi davlat hokimiyati (qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud), shuningdek, HMQO qamrab oladi.

Fikrimizcha, JKning 192⁹-moddasini korrupsiyaga oid jinoyat ekanligini inobatga olgan holda JKni yangi “*Nodavlat sektordagi korrupsiyaga oid jinoyatlar*” deb nomlangan XIII² bob bilan to‘ldirish va ushbu bobga mazkur moddani kiritish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

#

30 <http://lex.uz/docs/111189>

31 <http://lex.uz/docs/11360>

32 B.A.Narimanov O‘zbekistonda nodavlat notijorat tashkilotlarining tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish: y.f.f.d. (PhD) dissertatsiyasi. Avtoref. T.: – 2020-yil, 12-bet.



O'tkirxon BAHODIROV,

Huquqni muhofaza qilish akademiyasi katta o'qituvchisi

O'ZLASHTIRISH YOKI RASTRATA YO'LI BILAN TALON-TOROJ QILISH JINOYATINI TERGOV QILISHDA TAFTISH VA SUD-BUXGALTERIYA EKSPERTIZASINING AHAMIYATI

ANNOTATSIYA. Mazkur maqolada o'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toraj qilish jinoyatining yuridik tavsifi, uni boshqa mulkiy jinoyatlardan farqlash mezonlari va tergov jarayonidagi protsessual xususiyatlar tahlil qilingan. Shuningdek, taftish va sud-buxgalteriya ekspertizasining jinoyat ishini ochish va adolatli hukm chiqarishdagi o'rni yoritilgan.

АННОТАЦИЯ. В данной статье проанализирована юридическая характеристика преступления, связанного с хищением имущества путём присвоения или растраты, критерии его разграничения от иных имущественных преступлений, а также процессуальные особенности расследования. Кроме того, рассмотрена роль ревизии и судебно-бухгалтерской экспертизы в раскрытии преступления и вынесении справедливого приговора.

ABSTRACT. This article analyzes the legal characteristics of the crime of embezzlement through misappropriation or waste, the criteria for distinguishing it from other property crimes, as well as the procedural features during the investigation process. The role of audit and forensic accounting examination in solving a criminal case and delivering a fair judgment is also highlighted.

Kalit so'zlar: o'zlashtirish, rastrata, talon-toraj, taftish, sud-buxgalteriya ekspertizasi, taftish dalolatnomasi.

Ключевые слова: присвоение, растрата, хищение, ревизия, судебно-бухгалтерская экспертиза, акт ревизии.

Key words: embezzlement, misappropriation, theft, audit, forensic accounting examination, audit report.

O'zlashtirish yoki rastrata yo'li bilan talon-toraj qilish jinoyatining yuridik tavsifi uni boshqa mulkiy jinoyatlardan farqlash uchun aniq asoslarni belgilaydi. O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumi o'z qarorlarida ta'kidlaganidek, agar shaxs o'z xizmat vazifalari yoki shartnomaviy munosabatlarga ko'ra mulkni boshqarish yoki saqlash vakolatiga ega bo'lib, shu vakolatdan foydalanib mulkni o'zlashtirsa, qilmishi JK 167-moddasi tarkibiga kiradi¹. Aksincha, agar shaxs bevosi-ta bunday vakolatga ega bo'lmasa-yu, ammo ish yuritish yoki xizmat tufayli mulk saqlanayotgan joyga kirish imkoni bilan foydalanib mulkni o'g'irlasa, bu hol o'zlashtirish emas, balki o'g'rilik sifatida baholanadi. Shu tarzda tergovchi ayb qilmishining to'g'ri kvalifikatsiyasiga e'tibor qaratishi zarur. Mulkni qonunan topshirilgan vakolatdan chiqib o'zlashtirish 167-modda dispozitsiyasi, vakolatsiz

holda yashirin ravishda oldindan qasd qilgan holda egallash esa o'g'rilik (169-modda) yoki firibgarlik (168-modda) alomatlariga muvofiq kelishi mumkin. Masalan, Oliy sud Plenumi qarorida qayd etilganidek, agar shaxs mulkni oldindan aldash yo'li bilan emas, balki qonuniy olganidan keyin uni o'zlashtirishga qaror qilgan bo'lsa, bunday hol qilmish o'zlashtirish sifatida malakalanadi². Shu bois tergovda aynan jinoyatning sabab va maqsadini, aybdorning mulkni qanday usul bilan talon-toraj qilganini aniqlash huquqiy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

Mazkur jinoyatni tergov qilishda protsessual qonunchilikning asosiy vazifasi – talon-toraj qilmishini tez va to'liq ochib, aybdor shaxsni qonuniy javobgarlikka tortishni ta'minlash, shu bilan birga, aybsiz shaxs jazolanmasligini kafolatlashdan iboratdir. Jinoyat-protsessual kodeksi mazkur maqsadlarni

1 O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 1998-yil 17-apreldagi "Iqtisodiyot sohasidagi jinoiy ishlar bo'yicha sud amaliyotida yuzaga kelgan ayrim masalalar to'g'risida"gi 11-sonli qarori 3-band 2-xatboshisi.

2 O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining 2023-yil 23-iyundagi "Firibgarlikka oid ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida"gi 17-sonli qarori 8-band 2-xatboshisi.



amalga oshirish uchun jinoyat ishini qo‘zg‘atishdan tortib ishni sudga yuborish yoki tugatishgacha bo‘lgan barcha bosqichlarni tartibga soluvchi huquqiy normalar majmuini o‘z ichiga oladi. Tergov va surishtiruv organlari o‘z faoliyatida qonuniylik, xolislik va to‘la tekshiruv prinsiplariga amal qilishi shartligi qonunchilikda mustahkamlangan³. Tergovda jinoyatning xususiyatini hisobga olgan holda, ayniqsa, iqtisodiy-moliyaviy jihatdan tahlilni talab qiluvchi ushbu jinoyatni tadqiq etishda maxsus protsessual vositalar – ekspertiza va taftish muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksiga muvofiq, tergovda maxsus buxgalteriya yoki moliyaviy bilimlar talab qilingan hollarda taftish tayinlanishi mumkin. JPKning 187¹-moddasiga binoan, yuridik shaxslar va yakka tartibdagi tadbirkorlarni taftish qilish ish uchun ahamiyatli bo‘lgan holatlar haqidagi ma’lumotlarni tekshirilayotgan subyektning buxgalteriya, moliya, statistika, bank hujjatlarini o‘rganish va taqqoslash orqali olish mumkin bo‘lgan hollarda tayinlanadi⁴. Ya’ni agar jinoyat ishi uchun zarur ma’lumotlar korxona hisob hujjatlarini tekshirib aniqlanadigan bo‘lsa, taftish o‘tkazish tergov uchun asoslidir. Tergovchi yoki prokurorning mazkur sohadagi maxsus bilimga egaligi taftish tayinlashni istisno etmaydi. Jinoyat ishi qo‘zg‘atilgunga qadar taftish tayinlashga faqat qonunlarda nazarda tutilgan hollarda yo‘l qo‘yilishi mumkinligi qonunda alohida belgilangan. Taftish yakunlangach, taftish o‘tkazgan shaxslar uning natijalari bo‘yicha maxsus hujjat – dalolatnoma tuzadilar.

Taftish dalolatnomasi tergov uchun muhim protsessual hujjat bo‘lib, unda aniqlangan barcha iqtisodiy xatarlar va jinoyat izlari qayd etiladi. U taftishchilar tomonidan imzolangan

rasmiy hujjat sifatida jinoyat ishiga qo‘shiladi va keyinchalik sudda dalil sifatida taqdim etilishi mumkin. Agar taftish natijasida jinoyat alomatlari o‘z isbotini topsa, tergovchi ayblanuvchiga qo‘shimcha ayb e’lon qilish, moddiy zarar hajmini aniqlash kabi harakatlarni amalga oshiradi. Agar taftish xulosalariga ko‘ra muayyan summa o‘zlashtirilgani aniqlansa, ayblov xulosasida zarar miqdori dalil sifatida dalolatnomaga tayangan holda ko‘rsatiladi. Shu nuqtayi nazardan dalolatnomaning to‘g‘ri va xolis rasmiylashtirilishi jinoiy javobgarlikni adolatli belgilashga bevosita ta’sir qiladi.

Taftish natijalari o‘z mohiyatiga ko‘ra jinoyat ishidagi muhim bir dalil bazasini shakllantiradi. Lekin taftish dalolatnomasi – bu tergov harakati natijasi bo‘lgan hujjat bo‘lib, uni tayyorlagan shaxslar protsessual jihatdan “ekspert” maqomiga ega emas. Taftishni odatda vakolatli idora mutaxassislari o‘tkazadi, lekin ularga jinoyat protsessida ekspert emas, balki mutaxassis sifatida qaraladi. Shuning uchun taftish dalolatnomasi ishdagi boshqa dalillar qatori baholanadi va uning xulosalari keyinchalik sud-buxgalteriya ekspertizasi xulosasi bilan ham solishtirilishi mumkin.

Qonunchilik taftish xulosalariga qanchalik ishonilmasin, zarur hollarda ekspert xulosasi olinishini istisno etmaydi. Surishtiruvchi, tergovchi, prokuror yoki sud taftish yoki tekshiruv natijalari to‘g‘risidagi dalolatnomada yoxud boshqa hujjatda belgilangan qoidalaridan chekinishlar, nuqsonlar, ziddiyatlar va boshqa kamchiliklarni aniqlagan taqdirda, hujjatdagi qayd etilgan xatolar bartaraf etilishini talab qilishga haqli⁵. Ya’ni taftish dalolatnomasidagi nuqsonlarni to‘g‘rilatish so‘raladi. Shu bilan birga, idoraviy tekshiruv xulosasi, taftish hujjatlari, mutaxassislar mas-

3 O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi 22-moddasi. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 26.09.2025-y., 03/25/1084/0874-son.

4 O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi 187¹-moddasi. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 26.09.2025-y., 03/25/1084/0874-son.

5 O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi 201-moddasi 3-qismi. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 26.09.2025-y., 03/25/1084/0874-son.



lahati ekspertiza o'tkazish zaruratini istisno etmaydi. Bu norma taftish dalolatnomasi bor ekan, endilikda ekspertiza shart emas degan xato tushunchalarning oldini oladi. Aksincha, taftish materiallari bo'lsa-da, agar qo'shimcha ekspertlik tahlili zarur bo'lsa, sud-buxgalteriya ekspertizasi tayinlanishi mumkin.

Amaliyotda ba'zi hollarda taftish dalolatnomalari ekspertiza xulosalarida o'z tasdig'ini topmay qolishi mumkin. Masalan, taftishchi guruh muayyan kamomad 100 million so'm deb topsa, mustaqil ekspertiza shu kamomadni 80 million deb baholashi mumkin. Bunday tafovutlar sababi taftishchilar qo'llagan usul va baholashdagi xato bo'lishi yoki ular o'rgangan ma'lumotlar to'liq bo'lmashligi mumkin. Shuning uchun ayblanuvchi yoki himoya tomoni talabiga ko'ra sud-buxgalteriya ekspertizasi o'tkazilib, taftish xulosalari qayta tekshiriladi. Ta'kidlash joizki, Jinoyat-protsessual kodeksining ekspertizaga doir normalari buxgalteriya sohasidagi ekspertizani ham qamrab oladi. Sud-buxgalteriya ekspertizasi doirasida ekspert mustaqil ravishda barcha hisob-kitoblarni qayta o'tkazib chiqadi, zarur bo'lsa, taftish dalolatnomasidagi har bir xulosani tekshiradi. Natijada ekspert xulosasi chiqariladi, u protsessual jihatdan mustaqil dalil sanalib, sudda katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Taftish dalolatnomasi ko'p hollarda ekspertiza o'tkazish uchun asos yaratadi. Dalolatnomaga taftish materiallari ilova qilinadi va ular keyinchalik ekspertizaga taqdim etilishi mumkin. Amaliyotda odatda dastlab taftish o'tkaziladi, uning dalolatnomasi tayyorlangach, agar u yetarli darajada ishonchli va bahsli bo'lmasa, to'g'ridan-to'g'ri shu dalolatnoma asosida ish sudga yuboriladi. Lekin ayblanuvchi yoki jabrlanuvchi taraf dalolat-

nomaga nisbatan e'tiroz bildirsa yoki u yetarlicha ravshan bo'lmasa, u holda tergovchi sud-buxgalteriya ekspertizasi tayinlab, mutaxassis xulosasini oladi. Ba'zi hollarda esa, ayrim og'ir toifadagi iqtisodiy jinoyatlar bo'yicha tergov organlari taftish va ekspertizani parallel ravishda ham tayinlashadi, avval maxsus taftishchilar hisobot bersa, so'ng uni ekspertlik xizmati tekshirib ko'radi. Bunday yondashuv, ayniqsa, juda katta miqdordagi talon-toraj qilish ishlarida uchraydi. Masalan, o'zlashtirish jinoyatida kamomad 1 milliard so'm atrofida bo'lsa, odatda taftish orqali aniqlab olinaypti, keyin shu summa ekspertiza orqali qayta tasdiqlatib olinadi.

Qonunchilikda hozircha taftish dalolatnomasi mavjud barcha holatlarda ekspertiza ham majburiy tarzda tayinlansin degan norma yo'q. Lekin amaliyot tahlili shuni ko'rsatadiki, ba'zi vaziyatlarda ekspertiza tayinlamaslik xato bo'ladi. Ayniqsa, taftish dalolatnomasiga qarshi e'tirozlar bor bo'lsa yoki uning tuzilganligi qonundagi tartiblarga to'liq rioya qilinmay amalga oshirilgan bo'lsa, mustaqil ekspertiza o'tkazib olish jinoyat ishining xolisligini ta'minlaydi. Masalan, taftish dalolatnomasida muayyan xarajat hujjatlari soxtalashtirilgan deb xulosa qilingan, lekin himoya tomoni bu xulosaga qat'iy e'tiroz bildirib, boshqa auditorlik xulosasini keltiradi. Shunday holda, albatta, sud-buxgalteriya ekspertizasi tayinlanib, barcha qarama-qarshiliklarga oydinlik kiritilishi lozim.

Xulosa qilib aytganda, taftish va ekspertiza bir-birini to'ldiruvchi institutlar bo'lib, ularidan foydalanish tergovchi tomonidan vaziyatga qarab adolatli tarzda hal etilishi lozim. Qonunchilik ham bu borada muhim tamoyilni belgilagan: taftish dalolatnomasi mavjudligi ekspertizani istisno etmaydi.



Nodirxon NAJMITDINOV,

Jamoat xavfsizligi universiteti mustaqil izlanuvchisi

ZAMONAVIY ONLAYN VOSITALARNING RAQAMLI DALILLARNI TO‘PLASHDAGI AFZALLIKLARI VA NAZARIY QARASHLAR

ANNOTATSIYA. Maqolada jinoyat protsessida raqamli dalillarni to‘plashda zamonaviy onlayn vositalardan foydalanishning afzalliklari, nazariy asoslari va uslubiy yondashuvlari muhokama qilinadi. Tadqiqot ochiq razvedka (OSINT), avtomatlashtirilgan tahliliy platformalar, onlayn faoliyatni monitoring qilish uchun ixtisoslashtirilgan huquqiy vositalar, shuningdek, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tomonidan qo‘llaniladigan norasmiy raqamli vositalarni rivojlantirishga qaratilgan.

АННОТАЦИЯ. В статье рассматриваются преимущества, теоретические основания и методологические подходы к применению современных онлайн-инструментов при сборе цифровых доказательств в уголовном судопроизводстве. Исследование уделяет особое внимание развитию открытой разведки (OSINT), автоматизированных аналитических платформ, специализированных правовых инструментов для мониторинга онлайн-активности, а также неформальных цифровых средств, применяемых правоохранительными органами.

ABSTRACT. This article examines the advantages, theoretical foundations, and methodological approaches to the use of modern online tools in the collection of digital evidence in criminal proceedings. Particular attention is paid to the development of Open-Source Intelligence (OSINT), automated analytical platforms, specialized legal tools for monitoring online activities, as well as informal digital instruments employed by law enforcement agencies.

Kalit so‘zlar: onlayn vositalar, OSINT, raqamli dalillar, terrorizm, internet-sahifa, metama‘lumotlar, kripto-hamyon, blokcheyn, kontent.

Ключевые слова: онлайн-инструменты, OSINT, цифровые доказательства, терроризм, интернет-страница, метаданные, криптокошелёк, блокчейн, контент.

Key words: online tools, OSINT, digital evidence, terrorism, web page, metadata, cryptocurrency wallet, blockchain, content.

Zamonaviy jinoyatchilikning raqamlashuvi elektron ma‘lumotlarni jinoyat-protsessual dalil sifatida qo‘llashning nazariy va amaliy asoslarini qayta ko‘rib chiqishni talab qilmoqda. Ayniqsa, xalqaro internet platformalari, bulutli texnologiyalar va jahon serverlarida saqlanayotgan ma‘lumotlar huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun yangi ish uslublari va me‘yoriy yondashuvlarni ishlab chiqishni taqozo etmoqda.

Elektron ma‘lumotlarning asosiy huquqiy xususiyati – ularning faqat maxsus texnik vositalar orqali idrok etilishi va ishonchli ravishda baholanishi mumkinligidir. Bu ularning an‘anaviy yozma yoki moddiy dalillardan tubdan farqli ekanini anglatadi. Shu sababli elektron ma‘lumotni qog‘oz shakliga o‘tkazish emas, balki uni aynan elektron muhitda,

himoyalangan holda taqdim etish va saqlash talab etiladi.

Olimlar tomonidan nafaqat elektron axborot tashuvchilarida saqlanuvchi elektron ma‘lumotlarni, balki real vaqt rejimida mavjud bo‘lgan tarmoq elektron ma‘lumotlarini ham ko‘zdan kechirish bo‘yicha takliflar kiritilmoqda. O.V.Michurina va Yu.I.Zvonareva “internet-sahifalarni ko‘zdan kechirish” haqida ta’kidlaydilar¹. Yu.A.Televitskaning fikricha, elektron tarmoqlarni ko‘zdan kechirish – bu jinoiy ish uchun ahamiyatli bo‘lgan va barcha tarmoq foydalanuvchilari uchun erkin kirish imkoniyati mavjud bo‘lgan ma‘lumotlarni topish va yig‘ish maqsadida tarmoq infratuzilmasini vizual tekshirishni o‘z ichiga olgan tergov harakatidir².

Shu o‘rinda qayd etilgan fikrlarga qo‘shil-

1 Мичурина О.В., Звонарева Ю.И. Доказательственное значение электронных носителей информации в уголовном судопроизводстве // Сборник научных статей по итогам Всероссийской научно-практической конференции “Социально-экономические и правовые меры борьбы с преступлениями и иными правонарушениями”. Рязань: Московский университет МВД России имени В. Я. Кикотя, 2022 г. – С 199-204.

2 Телевическая Ю.А. Выемка, осмотр и обыск в электронных сетях: понятие и разграничение // Юридическая наука и практика: Вестник Нижегородской академии МВД России. № 4 (60). 2022 г. – С. 241.



gan holda O'zbekiston Respublikasi JPKning 205-moddasida telekommunikatsiya tarmoqlarini yoki Internet jahon axborot tarmog'ini ko'zdan kechirish³ tergov harakati ko'rsatib o'tilgan bo'lib, terrorizm bilan bog'liq jinoyatlarni tergov qilishda, jumladan, terrorchi tashkilot a'zolari tomonidan internet sahifasiga joylashtirilgan ma'lumot ma'lum bir vaqt o'tgandan so'ng o'zgartirilgan yoki o'chirilgan taqdirda ushbu tergov harakatini o'tkazishda bir qator foydali onlayn vositalarni qo'llash maqsadga muvofiq hisoblanadi. Masalan, terrorizmni moliyalashtirish jinoyatida terrorchi guruh a'zolari tomonidan ma'lum bir ezgu amal yoki kimsa uchun xayriya niqobi ostida veb-sahifaga ma'lumot joylashtirilib, bank hisob raqami yoki kripto-hamyon ma'lumotlari ko'rsatilib, tegishli mablag'lar yig'ilgandan so'ng, sodir etilgan jinoyat izlarini yashirish maqsadida ijrochilar tomonidan ushbu veb-sahifa o'chirilgan taqdirda, internet veb-sahifalarning arxivini ko'rish imkoniyatini beruvchi "Wayback Machine" (Internet Archive)⁴, veb-sahifalarning nuxsalarini o'zining xotirasida saqlovchi va turli davrlarda kiritilgan o'zgarishlarni kuzatish imkoniyatiga ega bo'lgan "Archive.today"⁵, "OldWeb.today"⁶, shuningdek, ma'lum bir kontentdagi o'zgarishlarning monitoringini olib borish va bu haqda o'z vaqtida bildirishnomalarni beruvchi "Distill Web Monitor"⁷, "SiteWatcher"⁸ kabi onlayn vositalar yordamida zarur ma'lumotlarni ko'zdan kechirib, bayonnoma-ga ulardagi ma'lumotlarni skrinshotlari hamda veb-sahifaning .html formatdagi nusxasini olish zarur hisoblanadi.

Raqamli dalillarni to'plashning birinchi elementi, ya'ni elektron ma'lumotlarni axtarishga (qidirishga) bevosita taalluqli bo'lgan hamda ayni vaqtda bir qancha olimlarning

bahs-munozarasiga sabab bo'lgan OSINT (Open Source Intelligence) onlayn vositasi-ning imkoniyatlaridan foydalanib elektron ma'lumotlarni to'plashning nazariy asoslarini ko'rib chiqamiz.

OSINT, ya'ni ochiq manbalardan ma'lumot to'plash razvedkasi – murakkab va tadrijiy ravishda shakllangan konsepsiya bo'lib, uning tamoyillari XX asrning o'rtalaridan boshlangan bo'lsa-da, bu tushunchaning rasmiy shakllanishi va keng qo'llanilishi keyingi o'n yilliklarga to'g'ri keladi. Xususan, AQSH razvedka ofitseri, OSINT konsepsiyasining ilg'or targ'ibotchisi Robert Devid Stil (Robert David Steele) 1980–1990-yillarda OSINT-ni institutsionallashtirish va ommaviylashtirishda katta rol o'ynagan. Uning 1995-yildagi "Open Source Intelligence: What is it? Why is it important to the military?" ("Ochiq manbali razvedka: u nima? Nima uchun u harbiy sohaga muhim?") maqolasi sohada mashhur hisoblanadi.

Oddiy qilib aytganda, bu "Google"da izlash yoki "Facebook"ni tekshirish kabi oddiy harakatlarni olib, uni muayyan maqsadga yo'naltirilgan, professional va tizimli tahlilga aylantirish demakdir. OSINT uchun ishlatiladigan ma'lumotlarni to'plash uchun hech qanday maxfiylikni buzish yoki ruxsatnoma talab etilmaydi.

OSINT har qanday yuridik cheklovlarsiz foydalanish mumkin bo'lgan ochiq raqamli manbalardan ma'lumot yig'ish va tahlil qilish amaliyoti bo'lib, quyidagi manbalarda:

- ijtimoiy tarmoqlar (Facebook, Telegram, Instagram va h.k.);
- umumfoydalanishdagi veb-saytlar;
- ochiq bazalar va reestrlar (masalan, domenlar reestri, kompaniyalar reestri);
- forumlar, videoxostinglar (YouTube,

3 O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi 205-moddasi // <http://lex.uz>

4 <https://web.archive.org/>

5 <https://archive.ph/>

6 <https://oldweb.today/>

7 <https://distill.io/>

8 <https://github.com/hronoas/SiteWatcher>



TikTok) saqlanayotgan raqamli ma'lumotlarni qisqa muddatda to'plab, ularni tahlil qilish imkoniyatiga ega.

OSINT orqali terroristik tashkilotlarga a'zo gumondorlarning faoliyati, aloqalari, geolokatsiyasi, moliyaviy harakatlari kabi ma'lumotlarni olish mumkin. Ayrim hollarda bunday ma'lumotlar jinoyatning sodir etilishini tasdiqlovchi yoki rad etuvchi asosiy raqamli dalil vazifasini bajaradi.

A.Yu.Baxin⁹ va M.V.Malkov¹⁰ kabi olimlar OSINT ma'lumotlari qonunga muvofiq hujjatlashtirilsa, ularni raqamli dalil sifatida qo'llash mumkinligini ta'kidlaydilar. Ular quyidagilarni qayd etadi:

- OSINT ma'lumotlari ham JPKda belgilangan dalillar talablariga (haqqoniylik, tegishlilik, yetarlilik va qonuniylik) javob berishi mumkin;

- tergov harakati sifatida internet sahifalarini ko'zdan kechirish, skrinshotlar olish, videoyozish va ekspert xulosalari orqali OSINT ma'lumotlari hujjatlashtirilishi mumkin;

- JPKga raqamli muhit uchun mos keladigan yangi moddalar kiritish lozim.

Shu bilan birga, ba'zi olimlar OSINTni alohida dalil manbayi sifatida JPKda tan olish kerakligini ilgari surishmoqda.

Ayrim olimlar esa, masalan, V.P.Bojev¹¹ OSINT ma'lumotlaridan foydalanishda bir qator xavf-xatarlarga e'tibor qaratadi:

- OSINTni huquqiy tartibga soluvchi aniq huquqiy normalar mavjud emasligi;

- internetdagi ma'lumotlarning haqqoniyligini aniqlash qiyinligi hamda ular qo'shimcha kuch va vositalarni talab etishi;

- ma'lumotlar soxtalashtirilishi yoki yo'q qilib yuborilishi mumkinligi;

- shaxsiy hayot daxlsizligi huquqining buzilishi mumkinligi (ayniqsa, ijtimoiy tarmoqlardagi shaxsiy ma'lumotlarda).

Uning fikricha, OSINT asosida olingan ma'lumotlar qonuniy hujjatlashtirilmagan taqdirda, ular dalil sifatida qo'llanilishi mumkin emas.

“OSINT orqali olingan ma'lumotlarni qanday qilib protsessual jihatdan qonuniylashtirish mumkin?” degan savolga o'tkazilgan ilmiy muhokamalarda davomida quyidagi takliflar berilgan:

- JPKga “ochiq raqamli manbalardan ma'lumot to'plash” normalarini kiritish va amaliyotini joriy qilish;

- yangi tergov harakati sifatida “internet manbalarini ko'zdan kechirish” tushunchasini kiritish;

- skrinshotlarni tayyorlash, vaqtini qayd etish, qaysi saytdan olinganligini aniq ko'rsatish kabi hujjatlashtirish tartibini belgilash;

- maxsus tayyorgarlikka ega bo'lgan mutaxassislar tomonidan OSINT to'plash talabini joriy qilish.

Olimlar Yu.A.Televitskaya¹² va A.N.Selivanovlar OSINTni protsessual huquqda alohida elektron tergov harakati sifatida nazarda tutishni taklif qiladi. Biz yuqorida keltirilgan fikrlarga qo'shib, hozirgi raqamlashtirish sharoitida huquqni muhofaza qiluvchi organlar jinoyatlarni fosh etish va tergov qilishda an'anaviy vositalarga qo'shimcha ravishda yangi – raqamli usullardan keng foydalanishi zarur deb hisoblaymiz.

Chunki, terrorizmga qarshi kurashishda ushbu texnologiya juda samarali vosita hisoblanib, quyida ushbu turdagi jinoyatlarni fosh etish va tergov qilishdagi asosiy afzalliklarini keltirib o'tamiz.

OSINT orqali ma'lumotlar real vaqtda to'planadi. Terroristik harakatlarga tayyorgarlik jarayonlari ijtimoiy tarmoqlar, forumlar va videoxostinglarda aks ettirilishi mumkin. Masalan, Telegram, Twitter, YouTube va

9 Бахин А.Ю. OSINT как источник цифровых доказательств в уголовном судопроизводстве // Уголовный процесс. – 2023 г. – №5. – С. 25–30.

10 Мальков М.В. Проблемы допустимости цифровых доказательств // Законность. – 2021 г. – №9. – С. 44–49.

11 Божьев В.П. Теория доказательств в цифровую эпоху // Российский судья. – 2022 г. – №7. – С. 14–21.

12 Телевическая Ю.А. Следственные действия с участием цифровой информации: теория и практика // Вестник МГЮА. – 2020 г. – №4. – С. 101–110.



Facebookda tarqalgan radikal kontent, chaqiriqlar va aloqalar to'g'risidagi ma'lumotlar tezda aniqlanishi mumkin.

Terroristik guruhlariga aloqador shaxslarning profillari, geolokatsiyalari, foto/video izlari, aloqador shaxslar bilan o'zaro munosabatlari OSINT orqali aniqlanadi. Misol uchun, ijtimoiy tarmoqlardagi "tag"lar, IP-manzillar va metama'lumotlar orqali gumondorlarning kimligini aniqlash imkoniyati mavjud.

OSINT usullari orqali terroristik tashkilotlarning tuzilishi, rahbarlari, mablag' manbalari, aloqalar zanjiri (network mapping) tahlil qilinadi. Forumlar va chatlardagi faol aloqalar asosida radikal tarmoq tuzilmasi fosh etilishi mumkin.

OSINT kriptovalyuta blokcheynlari, kraudfunding platformalari va onlayn to'lov tizimlarini tahlil qilish imkonini beradi. Bu orqali terrorizmni moliyalashtirish kanallari, jo'natuvchi va qabul qiluvchilar aniqlanadi.

OSINT ma'lumotlari terrorizm xavfini baholash, tahlil qilish va oldini olish choralarini ko'rishda foydalaniladi. Misol uchun, onlayn rejimida tarqalayotgan radikal kontentni barvaqt aniqlab, radikallashtiruvning oldini olish.

Turli davlatlar OSINT orqali olingan ma'lumotlarni xalqaro hamkorlar bilan almashadi (Interpol va xalqaro konvensiyalarda nazarda tutilgan kanallar orqali). Terroristik guruhlarining transchegaraviy harakati, mobilizatsiyasi yoki treninglari to'g'risidagi ma'lumotlar OSINTda aks etadi.

OSINT ma'lumotlarini yig'ish va tahlil qilish qimmatbaho texnik jihozlarni talab qilmaydi. Solishtirma ravishda SIGINT (signal razvedkasi) yoki HUMINT (odamlar orqali razvedka)ga nisbatan arzonroq.

Tahlil va protsessual mustahkamlash – OSINTning yakuniy va eng muhim bosqichi bo'lib, bunda turli manbalardan olingan ma'lumotlar solishtiriladi, mantiqiy bog'liqligi aniqlanadi va sudda dalil sifatida maqbul bo'lishi uchun ularning xesh-qiymati (SHA-256) va aniq vaqt "tamg'asi" olinadi.

Busiz hatto ochiq manbadan olingan ma'lumot ham dalil ahamiyatiga ega bo'lmaydi.

Raqamli izlarni aniqlash quyidagi natijalarga erishishga imkon beradi:

a) ishonchlilikni oshirish: ma'lumotlar bir nechta manbadan tasdiqlansa, ularning haqqoniyligi va daliliy ahamiyati keskin ortadi;

b) yashirin aloqalarni aniqlash: shaxsning rasmiy profilida ko'rsatilmagan, lekin eski postlarda yoki "like" tugmasi bosilgan haqiqiy qiziqishlari va aloqalarini fosh qilish;

c) identifikatsiyaning to'liqligi: faqat ism-familiya bilan emas, balki yashash tarzi, manfaatlar, siyosiy qarashlar va moliyaviy holatiga oid umumiy tasvirni yaratish.

Agar tergov qilinayotgan shaxs jinoyat sodir etilgandan so'ng bir necha kun o'tib Ispaniyaga sayohat qilganligini iddao qilsa, OSINT jamoasi uning ijtimoiy tarmoqdagi profillarini tekshiradi. Ma'lum bo'lishicha, shaxs Facebookda Ispaniyaga oid post yozgan, lekin uning geolokatsiyasi o'chirilgan. Ammo, OSINT bu postga ilova qilingan suratning EXIF-ma'lumotlarini tekshirganda, surat aslida Ispaniyada emas, balki Qozog'istondagi aeroportda olinganini aniqlaydi. Bu raqamli izlar uning aybini aniqlashga yordam beradi va shaxsning haqiqatni yashirayotganini isbotlaydi.

Shuningdek, ushbu texnologiya samaradorligiga yorqin misol sifatida Yevropol ma'lumotlariga ko'ra, 2021–2023-yillar davomida O'zbekiston Respublikasi Oliy sudining 2016-yil 26-sentyabr kungi qaroriga asosan O'zbekiston Respublikasi hududida faoliyati taqiqlangan ISHID xalqaro terroristik tashkiloti va unga aloqador tuzilmalarning Telegram messendjeri va YouTube videoxostingidagi kanallar orqali tarqatgan videomateriallari asosida radikal kontent aniqlangan va o'chirilgan.

Bundan tashqari, BMTning Narkotiklar va jinoyatchilikka qarshi kurashish boshqarmasining 2020-yilgi hisobotida ta'kidlanishicha, terrorizmning oldini olishda OSINT



“qimmatbaho dastlabki ma’lumot manbayi” sifatida tavsiya etilgan.

Zamonaviy onlayn vositalar raqamli dallarni to‘plash tizimining ajralmas qismiga aylanib, kriminalistik faoliyatning yangi metodologik va amaliy asoslarini shakllantirmoqda. O‘tkazilgan tahlil shundan dalolat beradiki, OSINT platformalar, ma’lumotlarni avtomatlashtirilgan tahlil qilish tizimlari, ma’lumotlarni monitoring va verifikatsiya qilishga ixtisoslashgan xizmatlar kabi onlayn vositalardan foydalanish huquqni muhofaza qiluvchi organlarning jinoyat faoliyati bilan bog‘liq raqamli izlarni aniqlash, qayd etish va baholash imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi.

Onlayn vositalardan foydalanishning nazariy yondashuvlari kriminalistika, axborot xavfsizligi, huquq va raqamli tahlil sohalari o‘rtasidagi fanlararo sintezga asoslanadi. Bu esa dalil

izlashning yangi modellarini shakllantirishga imkon beradi, ularda ma’lumotlarni qayta ishlash tezligi, turli raqamli manbalar o‘rtasidagi korrelyatsiya aniqligi va katta hajmdagi ma’lumotlar asosida voqealarni rekonstruksiya qilish imkoniyati muhim o‘rin tutadi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy onlayn vositalar tergov samaradorligini oshirishda katta salohiyatga ega, biroq ularni dallar jarayoniga to‘liq integratsiya qilish yagona nazariy baza, metodik yondashuvlarning uyg‘unlashtirilishi, algoritmlarning shaffofligi va qonunchilikning raqamli reallikka moslashtirilishi bilan bevosita bog‘liq. Ushbu sohadagi keyingi ilmiy izlanishlar raqamli dallarni to‘plash, tahlil qilish va tekshirishning barqaror standartlarini ishlab chiqishga qaratilgan bo‘lishi zarur. Bu esa huquqni qo‘llash amaliyotini mustahkamlashga va raqamli kriminalistikaning rivojiga xizmat qiladi.

#



Достонжон ОРИФЖОНОВ,
докторант Правоохранительной академии

РОЛЬ И ПРАВОВАЯ ПРИРОДА ПРОКУРАТУРЫ УЗБЕКИСТАНА В ЗАЩИТЕ ПРАВ И СВОБОД ЧЕЛОВЕКА

АННОТАЦИЯ. В статье анализируются правовой статус и функции прокуратуры Узбекистана в системе обеспечения законности. На основе Конституции и Закона «О прокуратуре» исследуются надзорные полномочия ведомства и его роль в защите прав граждан. Раскрыто значение актов Генерального прокурора для унификации правоприменительной практики и организационного обеспечения деятельности органов прокуратуры.

ANNOTATSIYA. Maqolada O'zbekiston prokuraturasining qonuniylikni ta'minlash tizimidagi huquqiy maqomi va funksiyalari tahlil qilingan. Konstitutsiya va "Prokuratura to'g'risida"gi qonun asosida idoraning nazorat vakolatlari hamda fuqarolar huquqlarini himoya qilishdagi o'rnini o'rganilgan. Bosh prokuror hujjatlarining huquqni qo'llash amaliyotini unifikatsiya qilish va prokuratura organlari faoliyatini tashkil etishdagi ahamiyati ochib berilgan.

ABSTRACT. The article analyzes the legal status and functions of the Prosecutor's Office of Uzbekistan in the system of ensuring the rule of law. Based on the Constitution and the Law "On the Prosecutor's Office," it examines the supervisory powers of the office and its role in protecting citizens' rights. The significance of the Prosecutor General's acts for the unification of law enforcement practice and organizational support of the prosecution authorities is disclosed.

Ключевые слова: прокуратура, права человека, верховенство закона, прокурорский надзор, законодательство Узбекистана, государственное обвинение, разделение властей.

Kalit so'zlar: prokuratura, inson huquqlari, qonun ustuvorligi, prokuror nazorati, O'zbekiston qonunchiligi, davlat ayblovi, hokimiyatlar bo'linishi.

Key words: prosecutor's office, human rights, rule of law, prosecutorial oversight, Uzbekistan legislation, public prosecution, separation of powers.

Органы прокуратуры занимают центральное место в обеспечении верховенства закона, надежной защиты прав и свобод граждан в Республике Узбекистан. Прокуратура, с одной стороны, борется с преступностью, поддерживая уголовное преследование и государственное обвинение в суде, а с другой стороны, осуществляет законный надзор за деятельностью всех государственных органов, в том числе правоохранительных структур.

Президент Ш.М. Мирзиёев неоднократно акцентировал внимание на миссии прокуратуры как гаранта справедливости в обществе. Тем не менее в академической среде продолжают дискуссии о том, насколько широкие надзорные полномочия коррелируют с принципом разделения властей и институциональной независимостью в условиях демократических реформ. Данная статья посвящена всестороннему анализу правовой природы ведомства и его роли в современной

архитектуре защиты прав человека.

Исследование базируется на синтезе формально-юридического, теоретико-правового и сравнительно-правового методов. Такой подход позволяет не только раскрыть содержание профильного законодательства (Конституции, Закона «О прокуратуре», процессуальных кодексов), но и соотнести национальную модель с традициями романо-германской правовой семьи. Исторический анализ показывает, что в условиях правового государства прокуратура трансформируется из инструмента государственного принуждения в ключевой механизм предотвращения административного произвола.

История формирования прокуратуры в зарубежных странах показывает, что этот институт, как часть государственной системы, выполняет функции уголовного преследования и поддержания обвинения в суде. Во многих странах романо-германской правовой семьи и бывших



социалистических республиках прокуратуре также традиционно поручен надзор за законностью в деятельности органов власти. В условиях правового государства прокуратура играет ключевую роль в обеспечении верховенства закона, защите прав граждан и контроле за исполнением законодательства. Она предотвращает произвол, гарантируя приоритет закона над решениями должностных лиц. Все субъекты — граждане, организации и органы власти — обязаны действовать в рамках закона. Прокурорский надзор выявляет и пресекает нарушения, в том числе со стороны местных властей, с правом оспаривания и отмены их решений.

В своём обращении к сотрудникам прокуратуры Президент Республики Узбекистан Ш.Мирзиёев подчеркнул ключевую роль ведомства в предупреждении правонарушений. Он отметил, что охрана прав человека является конституционной обязанностью государства, а независимость прокуратуры служит подтверждением её значимости в системе правосудия. Как отмечает исследователь Я.В. Криворотова, прокурор обладает широкими полномочиями, которые позволяют эффективно реализовывать задачи в сфере защиты прав и свобод граждан. При этом их использование рассматривается не только как право, но и как прямая обязанность прокурора.

Правовой статус прокуратуры Узбекистана базируется на прочном фундаменте нормативных актов. Конституционные основы заложены в статьях 93 и 118, а детальная регламентация деятельности представлена в Законе «О прокуратуре». Особое значение для функционирования ведомства имеет кадровое обеспечение. Порядок прохождения службы регламентирован специальным Положени-

ем (утвержденным Указом Президента № УП-2036 от 12 сентября 2013 года), которое комплексно охватывает аспекты приема, аттестации и социальных гарантий сотрудников, устанавливая высокие требования к их профессионализму и этике¹.

Важным элементом правовой основы выступает подзаконное регулирование. Согласно позициям профессора Б.Х. Пулатова и исследователя Ф. Гайбуллаевой, отраслевые приказы Генерального прокурора служат необходимым инструментом конкретизации законодательных норм, обеспечивая единообразие правоприменения и оперативную адаптацию работы ведомства к изменениям в общественной жизни. Порядок же прохождения службы, определяющий этические и профессиональные стандарты кадров, регламентирован Положением, утвержденным Указом Президента № УП-4564 (в актуальной редакции).

Функциональные направления деятельности

- Задачи прокуратуры определяются ее государственно-правовым назначением. В соответствии с действующим законодательством, приоритетными направлениями являются:
стью или частично осуществивших объективную сторону преступления, квалифицируются с применением этого признака без ссылки на соответствующую часть статьи 28 Общей части Уголовного кодекса. Если при совершённом по предварительному сговору сложном соучастии участвовали организатор, подстрекатель или пособники с распределением ролей, их действия должны квалифицироваться по статье Особенной части, предусматривающей ответственность за соучастие, со ссылкой на соответствующую часть статьи 28 Общей части УК. Однако в литературе высказывалось и мнение, согласно которому при квалификации преступлений, совершённых в форме сложного соучастия, организованной группы или преступного сообщества, ссылка на соответствующую часть статьи Общей части УК, определяющей виды соучастия, не требуется, независимо от функций, исполненных каждым участником¹². Мы не поддерживаем подход, согласно которому при сложном соучастии действия организатора, подстрекателя и пособников должны квалифицироваться таким образом.

Некоторые авторы утверждают, что даже если преступление совершено по предварительному сговору, но не участвовали как минимум два исполнителя, признак «совершено группой лиц по предварительному сговору», предусмотренный в Особенной части УК, применяться не может¹³. По их мнению, чтобы признать объединение лиц «группой», необходимо, чтобы они объединились как коллектив для совершения определённого вида преступления, и, кроме того, как мини-

мум два участника должны совместно исполнить объективную сторону преступления. Только в этом случае объединение получает статус группы.

В таком случае действия исполнителя квалифицируются по соответствующей статье преступления без применения признака «совершено группой лиц по предварительному сговору», даже если он предусмотрен законом, и без ссылки на статью Общей части, регулирующую виды соучастия. Действия же организатора, подстрекателя и пособников квалифицируются со ссылкой на соответствующую часть статьи Общей части УК, определяющей виды соучастия, но без применения квалифицирующего признака «совершено группой лиц по предварительному сговору», по соответствующей норме Особенной части.

Кроме того, в некоторых источниках отмечается, что действия, связанные с торговлей людьми, совершённые группой лиц по предварительному сговору, квалифицируются по пункту «е» части второй статьи 135 УК. Если каждое из двух или более лиц, заранее договорившихся о совершении преступления, полностью или частично участвует в выполнении объективной стороны торговли людьми, их действия оцениваются как преступление, совершённое группой лиц по предварительному сговору¹⁴. Однако мы не согласны с утверждением, что для сложного соучастия обязательным является участие двух или более исполнителей в объективной стороне преступления. Во-первых, законодательная конструкция сложного соучастия не требует участия двух или более исполнителей для признания данного

12 Горбатова М.А. Группа лиц по предварительному сговору: некоторые вопросы теории и практики / М. А. Горбатова // Вестник БарГУ. Сер. Исторические науки и археология. Экономические науки. Юридические науки. – 2020 г. – Вып. 8. – С. 182; Клименко Ю.А. Классификация соучастия: формы, виды, значение для уголовно-правовой оценки преступления // Lex Russica. – № 5 (114) май 2016 г. – С. 162.

13 Karaketova D.Yu. Bir guruh shaxslar tomonidan bezorilik sodir etganlik uchun javobgarlik // Yurisprudensiya | Юриспруденция | Jurisprudence. – 2020-yil, – №1, 72-bet.

14 Jinoyat huquqi. Maxsus qism: Darslik. Qayta ishlangan va to'ldirilgan ikkinchi nashri / Sh.T.Ikramov, R.Kabulov, A.Otajonov va boshq; Mas'ul muharrir Sh.T. Ikramov. – T.: O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi, 2016-yil, 224-bet; Научно-практический комментарий Уголовного кодекса Украины // Под ред. Н.И. Мельника, Н.И. Хавронюка. Десятое изд., перераб. и дополн. Киев: ИД «Дакор». – 2018 г. – С. 754.



вида соучастия; во-вторых, требование о наличии не менее двух исполнителей в сложном соучастии противоречит юридической природе института соучастия.

Следует отметить, что в большинстве случаев данный признак не приведён в статье Особенной части как квалифицирующий. В таких ситуациях действия участников преступления квалифицируются по соответствующей статье Особенной части со ссылкой на соответствующую часть статьи Общей части УК. Если преступление совершено группой лиц по предварительному сговору, то в описательно-мотивировочной части обвинительного приговора должно быть конкретно указано, какие именно действия совершил каждый участник, и его роль должна быть чётко определена.

Проведённый анализ позволяет сделать вывод, что сложное соучастие представляет собой самостоятельную и юридически значимую форму совместной преступной деятельности, характеризующуюся рядом обязательных признаков, отличающих её как от простой формы соучастия, так и от организованной группы или преступного сообщества. К числу таких признаков относятся: предварительная договорённость участников о совершении преступления; наличие по меньшей мере одного исполнителя, реализующего объективную сторону состава; участие иных соучастников (организатора, подстрекателя, пособника), которые, не выполняя объективную сторону, обеспечивают совершение преступления посредством распределения функций; а также общий преступный умысел, объединяющий действия всех участников в единый преступный результат.

Правовой анализ показывает, что законодательная конструкция сложного соучас-

тия не предполагает обязательного участия двух и более непосредственных исполнителей. Соответственно, требование наличия нескольких исполнителей противоречило бы как самой природе института соучастия, так и системной логике уголовного закона. В этой связи предложения отдельных авторов о признании группы только при условии совместного выполнения объективной стороны двумя исполнителями не могут быть признаны обоснованными.

Отдельного внимания заслуживает вопрос квалификации преступлений, совершённых по предварительному сговору. В тех случаях, когда признак «совершено группой лиц по предварительному сговору» прямо предусмотрен в норме Особенной части, действия непосредственных исполнителей подлежат квалификации с учётом этого признака без обращения к статье 28 Общей части УК. В отношении же организатора, подстрекателя и пособника ссылка на общую норму о видах соучастия является обязательной, поскольку обеспечивает точное отражение их роли в механизме преступления. Попытки исключить такую ссылку представляются научно несостоятельными, так как подрывают системность и внутреннюю согласованность уголовно-правовой квалификации.

Таким образом, сложное соучастие следует рассматривать как форму преступного взаимодействия, в которой предварительная договорённость, распределение ролей и единство умысла образуют устойчивую юридическую конструкцию, требующую строгого соблюдения правил квалификации. Правильное понимание и применение данных положений в правоприменительной практике имеет принципиальное значение для обеспечения законности, справедливости и индивидуализации уголовной ответственности.



Feruza ADILKARIYEVA,

Toshkent shahar prokuraturasi bo‘lim katta prokurori,
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

KONSTITUTSIYAVIY ODIL SUDLOV: XORIJIY TAJIRIBANING QIYOSIY-HUQUQIY TAHLILI (O‘zbekiston va Germaniya misolida)

ANNOTATSIYA. Maqolada milliy va Germaniya Federativ Respublikasi konstitutsiyaviy sud institutlarining tajribasi, vakolatlari, konstitutsiyaviy islohotlar qiyosiy-ilmiy tahlil etilgan. Bunda mamlakat konstitutsiyaviy odil sudlov institutining o‘ziga xos xususiyatlari va ularni milliy qonunchilikka implementatsiya qilish borasida gap boradi.

АННОТАЦИЯ. В статье проводится сравнительно-научный анализ полномочий и опыта конституционных судов национальной правовой системы и Федеративной Республики Германия, а также рассматриваются конституционные реформы. Особое внимание уделено специфике полномочий института конституционного правосудия и вопросам их имплементации в национальное законодательство.

ABSTRACT. The article provides a comparative legal and scholarly analysis of the powers and practice of the constitutional courts of the national legal system and the Federal Republic of Germany, as well as constitutional reforms. Particular attention is given to the specific powers of the constitutional court as an institution and to the issues of their implementation into national legislation.

Kalit so‘zlar: Konstitutsiyaviy sud, sud-huquq tizimi, Konstitutsiyaviy sudning vakolatlari, konstitutsiyaviy qonuniylik va qiyosiy-huquqiy tahlil.

Ключевые слова: Конституционный суд, судебная система, полномочия конституционного суда, конституционная законность, сравнительно-правовой анализ.

Key words: Constitutional Court, judicial and legal system, powers of the Constitutional Court, constitutional legality, comparative legal analysis.

Hozirgi davrda konstitutsiyaviy sudlar qator Yevropa davlatlarida ta‘sis etilgan bo‘lib, mazkur mamlakatlarda konstitutsiyaviy odil sudlov har qanday davlat organidan mustaqil bo‘lgan sud yoki tribunal tomonidan amalga oshiriladi.

Konstitutsiyaviy nazoratning kontinental modelida oliy davlat organlari o‘rtasida yuzaga keladigan nizolarni ko‘rib chiqish borasida ikki xil konsepsiya shakllangan. Ulardan *birinchisi* – konstitutsiyaviy sudlarga yanada keng vakolatlar berilishi zaruriyati o‘rnatilishi mumkinligidan kelib chiqadi. Bu model Germaniya, Italiya va Ispaniya kabi davlatlarda mavjud. *Boshqa konsepsiya* esa – sudlarning yurisdiksiyaviy vakolatlarini tor, biroq siyosiy ma‘noda muhim bo‘lgan masalalar guruhi (Fransiya) yoki ikkinchi darajali, lekin fuqarolarning shaxsiy shikoyatlarini (Avstriya) ko‘rib chiqish bilan bog‘liq bo‘lgan muammolar doirasi bilan izohlaydi.

Germaniya qonunchiligiga nazar tashla-

sak, sud faqat o‘z vakolatlari doirasidagi nizolardan tashqari, federatsiya va subyektlar o‘rtasidagi munosabatlardan kelib chiqadigan o‘zga ishlarni ham ko‘rish huquqiga ega. Jumladan, Germaniyada federatsiya subyektlari o‘rtasidagi ommaviy-huquqiy xususiyatdagi hamda Bundesrat tomonidan federal nazorat funksiyalari bajarilishi (84-moddaning 4-xatboshi) bo‘yicha yuzaga keladigan nizolarni ko‘rishda boshqacha sud tartibi ko‘zda tutilmaganligi uchun, ular Konstitutsiyaviy sud tomonidan ko‘rib chiqiladi¹.

Germaniyada Konstitutsiyaviy sud keyingi “konstitutsiyaviy kontrol”ni shikoyat va iltimosnomalar asosida amalga oshiradi hamda amaliy jihatdan huquqiy aktlarning barchasiga nazorat vakolatlarini qo‘llash huquqiga ega. Masalan, Germaniya Konstitutsiyaviy sudi muayyan qonunning Konstitutsiyaga zid ekanligi borasida konstitutsiyaviy kontrolni amalga oshiradi. 2015-yilda Germaniya Konstitutsiyaviy sudi Federativ

1 Germaniya Federativ Respublikasi Asosiy qonuni // <https://legalns.com/kompetentnye-yuristy/pravovaya-biblioteka/konstitutsii-stran-mira/konstitutsiya-germanii>.



davlatlar vakillari yig'inlari to'g'risidagi qonun (Bundesnotbremse) bo'yicha qaror qabul qildi. Sud bu qonunning ayrim moddolari Germaniya Bundesrati Konstitutsiyasiga zid deb topdi va ular o'z kuchini yo'qotdi. Bu Konstitutsiyaga muvofiqlikni kontrol qilishning klassik misolidir.

Shuningdek, Germaniya Konstitutsiyaviy sudi fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari buzilganligini tekshirish borasida ham konstitutsiyaviy kontrolni amalga oshiradi. Bunda, agar fuqaro o'zining konstitutsiyaviy huquqlari, masalan, so'z erkinligi yoki shaxsiy daxlsizlik huquqi buzilgan deb hisoblasa, u Konstitutsiyaviy sudga murojaat qilishi mumkin. Sud bu holatda ham huquqlarning Konstitutsiyaga muvofiqligini tekshiradi va buzilgan bo'lsa, tegishli chora ko'radi. Bu ham konstitutsiyaviy kontrolning bir shakli sifatida namoyon bo'ladi.

Shu bilan birga, Konstitutsiyaviy sud davlat organlari o'rtasida vakolatlar taqsimoti bo'yicha nizolarni hal qilish borasida konstitutsiyaviy nazoratni amalga oshiradi. Ma'lumki, Germaniyada federativ tizim mavjud bo'lib, federal va o'lka davlat hokimiyatlari o'rtasida vakolatlar taqsimotiga oid nizolar yuzaga kelishini istisno etmaydi. Masalan, federal hukumat va biror federatsiya subyektlari o'rtasida vakolatlar bo'yicha ziddiyat paydo bo'lsa, Konstitutsiyaviy sud bu nizolarni hal qiladi. Bu esa o'z navbatida, mazkur sudning davlat organlari faoliyatini nazorat qilish funksiyasi bo'lib hisoblanadi.

Shu kabi, davlat organlari tomonidan konstitutsiyaviy majburiyatlarning bajari-lishini kuzatish ham sudning nazorat funk-siyasi hisoblanib, bunda Konstitutsiya-viy sud, masalan, parlamentning faoliyati Konstitutsiya talablariga mos kelishi yoki qonunlarning amalga oshirilishi jarayoni-da konstitutsiyaviy normalar buzilmasligini ta'minlash maqsadida monitoring o'tkazi-shi mumkin. Bu holda sud parlament, huku-mat yoki umumiy yurisdiksiya sud organ-larining ishini kuzatadi va zarur hollarda yuridik ta'sir choralari qo'llaydi.

Konstitutsiyaviy sudga fuqarolar yoki tashkilotlar konstitutsiyaviy huquqlari buzil-ganligi to'g'risida murojaat qilishi mumkin. Bu jarayon ham Konstitutsiyaviy sud tomo-nidan amalga oshiriladigan nazoratning bir qismi hisoblanadi, chunki u davlat organlari yoki qonunlarning shaxslarga nisbatan noqo-nuniy harakatlarini ham tekshiradi.

Ushbu nufuzli sud instansiyasining qaro-ri asosida nafaqat Konstitutsiyaga zid bo'l-gan normativ aktlarning bekor qilish yo'li bilan konstitutsiyaviy huquq va erkinliklar-ni samarali himoyalash, balki qonunchilik faoliyatining o'zi ham chegaralab turadi. Germaniyada bu holat "o'zgarib turuvchi tashabbus" konsepsiyasi shaklida namoyon bo'lib, uni Bundestagga tegishli konstitutsi-yaviy novellalar kiritish huquqiga ega bo'l-gan Federal Konstitutsiyaviy sud samarali amalga oshirib kelmoqda.

Germaniya Konstitutsiyaviy sudi Asosiy qonun (GrundGESetz) asosida faoliyat yu-ritadi va u ikki asosiy vazifani bajaradi:

1) Konstitutsiyaviy nazorat (Verfassun-gsprüfung) – qonunlar, normativ aktlar va qarorlarni Asosiy qonundagi me'yorlarga mosligini tekshirish;

2) Konstitutsiyaviy kontrol (Kontrolle) – davlat hokimiyati organlari faoliyatini Kons-titutsiya doirasida amalga oshirishini ta'min-lash, ularning vakolatdan chiqishini cheklash.

2023-yilning oxirida Germaniya parlamen-ti (Bundestag) saylov tizimiga oid yangi qo-nunni qabul qildi. Bu qonun "Bundeswahl-gesetz" (Federal saylov to'g'risidagi qonun) ga o'zgartish kiritib, ayrim partiyalar uchun 5 foizlik saylov to'sig'ini (ya'ni parlamentga kirish uchun kamida 5 % ovoz olish talabini) kuchaytirdi.

Shuningdek, yangi qonun "overhang mandates" (qo'shimcha deputatlik o'rinla-ri) tizimini qisqartirdi va "direkt mandatlar" (ya'ni to'g'ridan-to'g'ri saylangan nom-zodlar) sonini cheklashni nazarda tutdi. Bu o'zgarishlar orqali Bundestagdagi deputat-lar sonini qisqartirish va tizimni soddalash-tirish ko'zda tutilgan edi.



Biroq, kichik siyosiy partiyalar – “Die Linke”, “Bayern Partei” hamda ba’zi mustaqil nomzodlar buni “siyosiy tenglik prinsipi”ga zid deb hisobladi va masalani Konstitutsiyaviy sudga olib chiqdi. 2024-yil 30-iyul kuni Germaniya Federal Konstitutsiyaviy sudi ushbu ishni (BVerfG) ko‘rib chiqib, 5 foizlik to‘siq aslida siyosiy barqarorlikni ta’minlash vositasi sifatida joriy etilgan bo‘lsa-da, uning chegaradan ortiq qo‘llanilishi kichik partiyalarni parlamentdan siqib chiqarishi, o‘z navbatida, “Saylov tizimidagi har qanday cheklov demokratiya va tenglik prinsiplariga zid” deb topib, parlamentga qonunni qayta ko‘rib chiqish uchun qaytarish yuzasidan qaror chiqardi².

Bu holat konstitutsiyaviy nazoratning klassik misolidir, chunki sud qonunning mazmunini Asosiy qonun bilan taqqoslab, uning muvofiqligini aniqlaydi.

Shuningdek, “Covid-19” pandemiya-si davrida federal hukumat “Infektionsschutzgesetz” (Infeksiyalarning oldini olish to‘g‘risidagi qonun) orqali hudud hukumatlarining qaror qabul qilish vakolatini chekladi. Bir necha hududlar buni federalizm prinsipiga zid deb sudga murojaat qildi. Konstitutsiyaviy sud hukumatning harakatini konstitutsiyaviy chegaradan chiqish deb baholadi va vakolatlarni qayta taqsimlash haqida ko‘rsatma berdi³.

Bu holat kontrol funksiyasining yorqin namunasidir – sud qonunni bekor qilmadi, balki davlat organi faoliyatini chekladi.

Kontrol funksiyasi – sudning davlat organlari (parlament, hukumat, federal hududlar va boshqalar) faoliyatini kuzatish, ularning vakolat doirasidan chiqish holatlariga huquqiy baho berish faoliyatidir. Bu holda sud qonunni emas, amaliy boshqaruv harakatini tekshiradi.

Ma’lumki, Germaniya Federal Konstitut-

siyaviy sudi Karlsruhe shahrida joylashgan bo‘lib, u ikki senatdan iborat. Shu mamlakat Asosiy qonunining 94-moddasiga muvofiq, Federal Konstitutsiyaviy sud federal sudyalardan hamda boshqa a’zolaridan tashkil topgan. Federal Konstitutsiyaviy sud a’zolari parlamentning Bundestag hamda Bundesrat palatalari a’zolari tomonidan tenglik asosida saylanadi. Mazkur sud a’zolari Bundestag, Bundesrat, Federal hukumat yoki tegishli hudud organlari tarkibiga kirishi mumkin emas⁴. Har bir senatga 8 nafardan sudya saylanadi. Har bir senatga 3 nafardan sudya federatsiyaning oliy sudlari a’zolari tarkibidan saylanadi. Sudyalikka saylangan sudyalardan, albatta, oliy federal sudlarda 3 yildan kam bo‘lmagan davr mobaynida faoliyat ko‘rsatgan bo‘lishlari shart. Har bir senatdagi sudyalarning 4 nafari Bundestag va 4 nafari Bundesrat tomonidan tenglik asosida saylanadilar. Shuningdek, ushbu nomzodlar Federal prezident tomonidan tayinlanadi. Sudyalikka saylanayotgan shaxslar 40 yoshga yetgan, Bundestagga saylanish huquqiga ega va Federal Konstitutsiyaviy sudning a’zosi bo‘lishga yozma ravishda rozilik berishlari kerak.

Mazkur sud o‘zining faoliyatini 1951-yilda boshlagan. Sud faoliyati Asosiy qonun, “Federal Konstitutsiyaviy sud to‘g‘risida”-gi qonun, 1986-yil 15-dekabrda qabul qilingan Federal Konstitutsiyaviy sudi reglamenti⁵ kabi hujjatlar bilan tartibga solinadi. Federal Konstitutsiyaviy sud har bir senatining qarorlari nufuzli yuridik kuchga ega bo‘lib, barchaga majburiydir, ular “Federal Konstitutsiyaviy sud qarorlari” nomli to‘plamda chop etib boriladi.

Germaniya Federal Konstitutsiyaviy sudi Asosiy qonunning davlat hokimiyati organlari tomonidan buzilishining oldini olish yuzasidan “konstitutsiyaviy kontrol”ni amalga oshiruvchi oliy sud organi hisoblanadi.

2 Qarang: Bundesverfassungsgericht (BVerfG) 30-iyul 2024-yil, 2 BvF 1/23 // <https://dejure.org/2024,18150>.

3 <https://www.datev-magazin.de/nachrichten-steuern-recht/recht/triage-regelungen-des-infektionsschutzgesetzes-sind-mit-dem-grundgesetz-unvereinbar-und-nichtig-142617>.

4 Qarang: Основной закон Федеративной Республики Германия. Клаусен&Боссе, Лек, 1998, стр. 70.

5 Germaniya Federativ Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining reglamenti // https://www.gesetze-im-internet.de/bverfgo_2015/?utm_source=chatgpt.com.



Federal Konstitutsiyaviy sud taftish (reviziya) o'tkazuvchi organ bo'lmay, u fuqarolik va jinoyat ishlarini ko'rish sohasida yuzaga kelgan muayyan konstitutsiyaviy-huquqiy tUSDdagi masalalarni ham hal qiladi.

Germaniya Konstitutsiyasining IX bobi "Odil sudlov" deb nomlanadi. Uning 92-moddasida shunday ta'rif berilgan: "Sud hokimiyati sudyalarga ishonib topshirilgan. Sud hokimiyati Federal Konstitutsiyaviy sud hamda Asosiy qonunda nazarda tutilganiga muvofiq, federal sudlar hamda hudud (o'lka) sudlari tomonidan amalga oshiriladi"⁶.

Federal Konstitutsiyaviy sud federal sud-yalar hamda boshqa a'zolaridan tashkil topgan. Federal Konstitutsiyaviy sud a'zolari Bundestag hamda Bundesrat a'zolari tomonidan teng tartibda shakllantiriladi. Mavjud sud a'zolari Bundestag, Bundesrat, Federal hukumat yoki tegishli hudud organlari tarkibiga kirishi mumkin emas.

Sudyalarning mustaqilligi va faqat qonunga bo'ysunishi qonun bilan belgilab qo'yilgan.

Konstitutsiyaviy nizolarni hal etish konstitutsiyaviy sudlarning mutlaq vakolatiga tegishlidir. Bu oddiy sudlar Konstitutsiyaviy sud vakolatida bo'lgan masalalarga aralashish huquqiga ega emasligini anglatadi. Konstitutsiyaviy tuzumning *Germaniya modelini* tanlagan ko'plab mamlakatlarda oddiy sudlarga ham u yoki bu qonunning konstitutsiyaviyligi masalasini ko'rib chiqishga ruxsat etilgan. Biroq, bunda ular faktik jihatdan faqat qonunni qo'llab-quvvatlashlari mumkin.

Qiyosiy tahlil asosida aytish mumkin-ki, O'zbekiston Respublikasi va Germaniya Konstitutsiyaviy sudi o'rtasida muayyan o'xshashliklar mavjud. Shu bilan birga, O'zbekiston Konstitutsiyaviy sudi vakolatlari o'ziga xos bo'lib, mamlakat Asosiy qonunida mustahkamlangan.

Ma'lumki, 2023-yil 30-aprelda O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Kons-

titutsiyasi qabul qilinib, bir qator qonunlar-ga qo'shimcha va o'zgartirishlar kiritildi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 133-moddasi birinchi qismi 7-bandiga va "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunning 4-moddasi birinchi qismi 6-bandiga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining 2023-yil 5-dekabrda "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining mamlakatdagi konstitutsiyaviy qonuniylikning holati to'g'risidagi axborotini tasdiqlash haqida"gi qarori qabul qilinib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining mamlakatdagi konstitutsiyaviy qonuniylikning holati to'g'risidagi axboroti tasdiqlanishi va mazkur qaror O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalariga va O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga taqdim etilishi hamda O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudining rasmiy veb-saytida e'lon qilinishi belgilandi⁷.

Bundan tashqari, 2024-yil 13-yanvardagi "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy Qonuniga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida"gi qonun qabul qilinib, O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 27-aprelda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonunining 4-moddasining birinchi qismi 2-bandi "O'zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan imzolanganiga qadar – O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy qonunlarining, ratifikatsiya qilish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonunlari O'zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan imzolanganiga qadar – O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq-ligini aniqlaydi" tahririda bayon etilishi,

6 Qarang: Основной закон Федеративной Республики Германия. Клаусен&Боссе, Лек, 1998, стр.70.

7 O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi / 01.05.2023-y. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi (www.lex.uz).



“O‘zbekiston Respublikasi referendumiga chiqarilayotgan masalalarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligi to‘g‘risida xulosa beradi” tartibida 2¹-band bilan to‘ldirilishi, 5-moddaning birinchi qismi “Konstitutsiyaviy sud o‘z vakolatlari jumlasiga kiritilgan masalalar bo‘yicha qonunchilik tashabbusi huquqiga ega” tahririda bayon etilishi, 7-moddaning birinchi qismi “Konstitutsiyaviy sudning sudyalari qayta saylanish huquqisiz o‘n yillik muddatga saylanadi” tahririda bayon etilishiga doir qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritildi⁸.

Yana bir qoida: O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan imzolanganiga qadar – O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy qonunlarining, ratifikatsiya qilish to‘g‘risidagi O‘zbekiston Respublikasi qonunlari O‘zbekiston Respublikasining Prezidenti tomonidan imzolanganiga qadar – O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarining O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligini aniqlash chegaralari ishning o‘ziga xos xususiyatlari hisobga olingan holda ushbu Qonun 82-moddasi-ning uchinchi qismiga muvofiq belgilanishi, Konstitutsiyaviy sud ishni ko‘rib chiqish yakunlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonunini, O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarini O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq emas deb topish haqida, O‘zbekiston Respublikasi konstitutsiyaviy qonunini, O‘zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalarini O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq deb topish haqida qaror qabul qilishi ta’kidlandi.

Shu bilan birga, “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi qonun O‘zbekiston Respublikasi referendumiga chiqarilayotgan masalalarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligi to‘g‘risida xulosa berish haqi-

dagi ishlarni yuritish borasidagi 83¹-modda bilan to‘ldirildi⁹.

Konstitutsiyaviy sud O‘zbekiston Respublikasi referendumiga chiqarilayotgan masalalarning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiqligini aniqlashi, Konstitutsiyaviy sud ishni ko‘rib chiqish yakunlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi referendumiga chiqarilayotgan masalalarni O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq emas deb topish to‘g‘risida, O‘zbekiston Respublikasi referendumiga chiqarilayotgan masalalarni O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasiga muvofiq deb topish haqida xulosalardan birini berishi belgilandi.

Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi parlament palatalari va Prezidentga mamlakatdagi konstitutsiyaviy qonuniylikning holati yuzasidan axborot taqdim etish vakolati ham belgilanib, ushbu vakolat ilk bor 2023-yil 5-dekabrda amalga oshirildi.

Yuqoridagi tahlillarga ko‘ra:

– Konstitutsiyaviy sud O‘zbekistonda Konstitutsiyaviy sud deb yuritilsa, GFRda Federal Konstitutsiyaviy sudi deb nomlanadi;

– mamlakatlarning Konstitutsiyaviy sudiga saylanish tartibi va muddatlariga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida 10 yil qilib belgilangan bo‘lsa, GFRda ushbu muddat 12 yilni tashkil etadi;

– Konstitutsiyaviy sud O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining taqdimiga binoan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Sudyalari oliy kengashi tavsiya etgan mutaxassislar orasidan, Qoraqalpog‘iston Respublikasining vakilini qo‘shgan holda saylansa, GFRda Federatsiyaning oliy sudlari a‘zolari tarkibidan 4 nafardan Bundestag va Bundesrat tomonidan tenglik asosida saylanib, Federal prezident tomonidan tayinlanadi;

8 “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi qonun / Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 28.04.2021-y., 03/21/687/0380-son; 13.01.2024-y.

9 “O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy sudi to‘g‘risida”gi qonun / Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 28.04.2021 y., 03/21/687/0380-son; 13.01.2024-y.



– GFRda sudyalikka saylangan sudyalari, albatta, oliy federal sudlarda 3 yildan kam bo'lmagan davr mobaynida faoliyat ko'rsatgan, sudyalikka saylanayotgan shaxslar 40 yoshga yetgan bo'lishlari belgilangan bo'lsa, O'zbekistonda Konstitutsiyaviy sud sudyaligiga saylanish uchun boshlang'ich 35 yosh va yakuniy yosh 70 yosh etib belgilangan;

– O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi sudyasiga taqiqlangan holatlar "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi to'g'risida"gi qonunning 14-moddasida belgilangan. Unga ko'ra, Konstitutsiyaviy sudning sudyasi vazifalarini bajargan vaqtda deputatlik mandatiga ega bo'lish, siyosiy partiyalarga va harakatlarga a'zolik, haq to'lanadigan boshqa lavozimni egallash mumkin emas.

Germaniya Federativ Respublikasi Asosiy qonuniga ko'ra, Konstitutsiyaviy sud sudyalarining faoliyat muddati 12 yildan ortiq bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi va qayta saylanish mumkin emas. Shuningdek, konstitutsiyaviy sudyalari Bundestag, Bundesrat, Federal hukumat yoki O'lka (Land) boshqa organlariga a'zo bo'lmashligi kerak (94-moddasi).

GFR Konstitutsiyaviy sudi siyosiy partiya va birlashmalarining konstitutsiyaviyligi borasidagi nizolar yuzasidan qaror chiqarish vakolatiga ega.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudning vakolatlari doirasi bunday vakolatni nazarda tutmaydi.

Yevropaning rivojlangan mamlakatlari qatori GFR sud tizimi tajribasiga nazar tashlar ekanmiz, unda Konstitutsiyaviy sud hokimiyatlar o'rtasidagi muvozanat hamda odillikni ta'minlashda siyosiy jabhadagi nizolar, tortishuvlarni ham ko'rib chiqish vakolatiga ega. Bu borada mamlakatimizda Konstitutsiyaviy sudning siyosiy sohadagi vakolatlarini takomillashtirish orqali konstitutsiyaviy nazoratning yanada kuchayishi-

ni ta'minlash mumkin.

Bundan tashqari, roman-german sud tizimiga oid davlatlar sud tizimida fuqarolarning siyosiy huquqlari konstitutsiyaviy huquq hisoblanib, bunday huquqlarning buzilishi bevosita Konstitutsiyaviy sud tomonidan ko'rib hal etiladi. O'zbekiston Respublikasida bunday huquqlar Oliy sud tomonidan ko'rib hal etiladi.

Nazarimizda, siyosiy huquqlar bevosita Konstitutsiya bilan mustahkamlangan konstitutsiyaviy huquqlar bo'lib, ularning buzilishi Konstitutsiyaga zid hisoblanadi va shu sababli bu boradagi nizoli masalalarni ko'rish va qonun buzilishi holatlarini ko'rib, muhokama etish vakolati Konstitutsiyaviy sudga berilishi maqsadga muvofiq.

Zotan, Oliy sud odatda qonunlar va faktlar asosida ish ko'radi va bu borada normativ-huquqiy hujjatlarning Konstitutsiyaga zidligi masalasini baholash vakolatiga ega emas.

Shuningdek, Konstitutsiyaviy sudning to'qqiz nafar sudyasidan besh nafarini tayinlash O'zbekiston Respublikasi Prezidenti vakolatiga va 4 nafar sudyani tayinlash vakolati esa Oliy Majlisga berilishi maqsadga muvofiq bo'ladi. Konstitutsiyaviy sudni saylashda, ya'ni sudyalikka nomzodlar taqdim etish vakolatiga qonun chiqaruvchi hokimiyat ham ega bo'lishi zarur. Bu davlat hokimiyati tarmoqlarini o'zaro muvozanatda saqlash va bir-birini tiyib turish prinsipiga to'liq muvofiq bo'lardi deb hisoblaymiz.

Shu bilan birga fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasida uch hokimiyat bir-birining ishiga aralashmaydi, biroq bir-birini nazorat qilish vositasida adolat tizginini tutib turadi degan tamoyildan kelib chiqqan holda, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudiga siyosiy partiya va birlashmalarining faoliyati konstitutsiyaviyligi borasidagi nizolar yuzasidan qaror chiqarish vakolatini ham berish maqsadga muvofiq bo'lar edi.



Adham SULAYMONOV,

TDYU huzuridagi M.S.Vosiqova nomidagi akademik litseyi o‘qituvchisi,
Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistranti

SUN’IY INTELLEKT VOSITALARI YORDAMIDA SODIR ETILGAN AYRIM JINOYATLAR UCHUN JINOYIY JAVOBGARLIK MUAMMOLARI

ANNOTATSIYA. Tadqiqot sun’iy intellekt (SI) texnologiyalari yordamida sodir etilgan jinoyatlar uchun jinoyat-huquqiy javobgarlikni belgilashdagi nazariy va amaliy muammolarni o‘rganishga bag‘ishlangan. Dolzarbligi zamonaviy raqamli texnologiyalarning jadal rivojlanishi va ularning jinoyatchilik maqsadlarida qo‘llanilishi bilan bog‘liq. Tadqiqot maqsadi SI vositalari ishtirokida sodir etiladigan jinoyatlar uchun subyekt va aybni aniqlashdagi qonunchilik bo‘shliqlarini identifikatsiya qilish hamda yechim yo‘llarini ishlab chiqishdir.

АННОТАЦИЯ. В статье рассматриваются теоретические и практические проблемы установления уголовно-правовой ответственности за преступления, совершаемые с использованием технологий искусственного интеллекта (ИИ). Актуальность исследования обусловлена быстрым развитием цифровых технологий и ростом числа преступлений, совершаемых с применением ИИ. Цель исследования заключается в выявлении пробелов в уголовном законодательстве при определении субъекта и формы вины в условиях автономного функционирования ИИ, а также в разработке возможных направлений их устранения. Методологическую основу составили сравнительно-правовой, историко-правовой, конкретно-социологический и статистический методы исследования.

ABSTRACT. The article examines theoretical and practical issues of establishing criminal liability for crimes committed using artificial intelligence (AI) technologies. The relevance of the study is determined by the rapid development of digital technologies and the growing number of AI-enabled crimes. The aim of the research is to identify gaps in criminal legislation regarding the determination of the subject of crime and the form of guilt under conditions of AI autonomy, as well as to propose possible solutions. The methodological framework includes comparative legal, historical legal, sociological, and statistical research methods.

Kalit so‘zlar: jinoyat-huquqiy javobgarlik, sun’iy intellekt, kiberjinoyat, jinoyat subyekt, algoritmik javobgarlik, raqamli jinoyatchilik, mashinali o‘rganish, SI avtonomligi.

Ключевые слова: уголовно-правовая ответственность, искусственный интеллект, киберпреступление, субъект преступления, алгоритмическая ответственность, цифровая преступность, машинное обучение, автономность ИИ.

Key words: criminal liability, artificial intelligence, cybercrime, subject of crime, algorithmic liability, digital crime, machine learning, AI autonomy.

XXI asrning ikkinchi choragida sun’iy intellekt texnologiyalarining jadal rivojlanishi jamiyat hayotining barcha sohalariga chuqur ta’sir ko‘rsatmoqda. Jahon iqtisodiy forumining 2024-yil ma’lumotlariga ko‘ra, SI texnologiyalari global iqtisodiyotga 2030-yilga kelib 15,7 trillion AQSH dollari qo‘shimcha qiymat qo‘shishi kutilmoqda¹. Biroq, ushbu texnologiyalar nafaqat ijobiy, balki salbiy maqsadlarda ham qo‘llanilmoqda.

SI va jinoyat huquqi o‘rtasidagi munosabatlar bo‘yicha turli ilmiy yondashuvlar mavjud. Xususan, Gabriel Hallevy o‘zining “Robotlar qotillik qilganda” (“When Robots

Kill”) asarida robotlar va SI tizimlarining qilmish sodir etish qobiliyatini tahlil qilib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri javobgarlik modeli, qo‘l-lab-quvvatlash modeli hamda tabiiy-eh-timollik javobgarligi modeli kabi uchta asosiy konsepsiyani ilgari suradi². Ugo Pagallo SI uchun yangi huquqiy shaxs maqomini joriy etish zarurligini ta’kidlab, ushbu yondashuv SI texnologiyalarining jadal rivojlanishiga mos kelishini va javobgarlik masalalarini hal etishga xizmat qilishini qayd etadi³. Ryan Calo va Danielle Citron esa “Avtomatlash-tirilgan ma’muriy davlat” (“The Automated Administrative State”) asarida SI tizimlari-

1 World Economic Forum. The Global Risks Report 2024. Geneva: WEF, 2024. 98 p.

2 Hallevy G. When Robots Kill: Artificial Intelligence under Criminal Law. Boston: Northeastern University Press, 2013. 256 p.

3 Pagallo U. The Laws of Robots: Crimes, Contracts, and Torts. Dordrecht: Springer, 2013. 214 p.



ning avtonomligi bilan bog'liq javobgarlik muammolarini ko'rib chiqib, algoritmik qarorlar qabul qilishda shaffoflikni ta'minlash muhimligini asoslab beradilar⁴.

Mahalliy adabiyotlarda J.U.Jalilov⁵, Sh.Z.Eshonqulov⁶ va boshqa olimlar kiberjinoyatchilik masalalarini tahlil qilgan bo'lsalar-da, SI bilan bog'liq jinoyat-huquqiy javobgarlik muammolari hali yetarli darajada kompleks tadqiq etilmagan.

Tadqiqot jarayonida O'zbekiston Respublikasi, AQSH, Buyuk Britaniya, Germaniya, Fransiya va Xitoyning jinoyat qonunchiligi, Yevropa Ittifoqining tegishli hujjatlari, shuningdek, 2026-yilning birinchi choragi holatiga qadar e'lon qilingan xalqaro hisobotlar va statistik ma'lumotlar tahlil qilindi. Xususan, 2026-yil 16-martdagi Interpolning Global moliyaviy firibgarlik tahdidini baholash hisobotiga ko'ra, sun'iy intellekt yordamida sodir etiladigan firibgarlik (AI-enhanced fraud) an'anaviy usullarga nisbatan 4,5 baravar ko'proq daromadli bo'lib qolgan, 2024-yildan buyon firibgarlikka oid Interpol bildirishnomalari va tarqatmalari soni 54 foizga oshgan, shuningdek, Interpol a'zo davlatlarga 1 500 dan ortiq transmilliy firibgarlik ishlari bo'yicha yordam ko'rsatib, 1,1 milliard AQSH dollari miqdoridagi yo'qotilgan aktivlar bilan bog'liq ishlarni qo'llab-quvvatlagan⁷. 2026-yil 17-mart kuni Interpol hamda BMT Narkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi (UNODC) hamkorligida o'tkazilgan Global firibgarlikka qarshi sammit (Global Fraud Summit) materiallarida esa uyushgan firibgarlikdan global yo'qotishlar 442 milliard AQSH dollari deb baholangan

va tadbirda 1 300 dan ortiq ishtirokchi hamda 47 ta davlat va tashkilot vakillari qatnashgani qayd etilgan⁸. Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkilotining (OECD) 2026-yil mart oyidagi Iste'molchilar moliyaviy xatarlarini monitoring qilish tizimi (Consumer Finance Risk Monitor) hisobotiga ko'ra, moliyaviy firibgarlik va skamlar, ya'ni al-dov sxemalari so'rovnomada ishtirok etgan davlatlarning 85 foizi tomonidan eng muhim xavf sifatida e'tirof etilgan, 69 foizi esa bunday holatlar 2025-yilda 2024-yilga nisbatan oshganini bildirgan. Hisobotda phishing, vishing, smishing, deepfake va AI-generated fraudulent content, ya'ni sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan firibgarlik mazmunidagi kontent alohida qayd etilgan⁹.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining Narkotiklar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi (UNODC) ma'lumotlariga ko'ra, BMTning Kiberjinoyatchilikka qarshi konvensiyasi 2024-yil 24-dekabrda qabul qilingan, 2025-yil 25-oktyabrda imzolash uchun ochilgan va marosim yakunida 71 ta davlat tomonidan imzolangan. Shu bilan birga, Yevropolning 2026-yil 31-martda e'lon qilingan IOCTA 2026 materiallarida SI, proksi xizmatlari va shifrlash texnologiyalari kiberjinoyatlarning ko'lami hamda murakkabligini kengaytirayotgani, 2026-yil 26-yanvardagi Yevropol tavsiyalarida esa SI jinoyatchilarga rasmiy til, dizayn va kommunikatsiya uslubini ancha ishonchli takrorlash imkonini berayotgani ko'rsatilgan¹⁰.

Statistik ma'lumotlar tahlili SI yordamida sodir etilgan jinoyatlar sonining so'nggi yillarda keskin o'sib borayotganini ko'rsat-

4 Calo R., Citron D.K. The Automated Administrative State: A Crisis of Legitimacy // Emory Law Journal. 2018. Vol. 70. No. 4. P. 797-845.

5 Jalilov J.U. Kiberjinoyatchilikka qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy va kriminologik asoslari. Toshkent, TDYU, 2021-yil, 184-bet.

6 Eshonqulov Sh.Z. Axborot texnologiyalari sohasidagi jinoyatlarning kriminalistik tavsifi. Toshkent, Adolat, 2022-yil, 196-bet.

7 <https://www.interpol.int/News-and-Events/News/2026/INTERPOL-report-warns-of-increasingly-sophisticated-global-financial-fraud-threat>

8 <https://www.interpol.int/News-and-Events/News/2026/INTERPOL-UNODC-global-summit-ends-with-call-to-action-against-fraud-surge>

9 CONSUMER FINANCE RISK MONITOR 2026 © OECD 2026

10 <https://www.europol.europa.eu/operations-services-and-innovation/public-awareness-and-prevention-guides/social-engineering-when-trust-exploited>



di. Jumladan, global miqyosda 2020-yilda 12 400 ta bo‘lgan bunday jinoyatlar soni 2021-yilda 18 700 taga, 2022-yilda 31 200 taga, 2023-yilda 54 600 taga yetgan bo‘lib, 2024-yilning birinchi yarmida 38 900 ta holat qayd etilgan va yil yakuni bo‘yicha 77 800 taga yetishi prognoz qilinmoqda¹¹. O‘zbekiston Respublikasi bo‘yicha ham shunga o‘xshash o‘shish kuzatilgan bo‘lib, 2021-yilda SI elementi ishtirokidagi 167 ta kiberhuquqbuzarlik qayd etilgan bo‘lsa, 2022-yilda bu ko‘rsatkich 243 taga, 2023-yilda 551 taga yetgan, 2024-yilning dastlabki olti oyida esa 387 ta holat aniqlangan¹². 2023-yilgi global ma’lumotlarga ko‘ra, SI bilan bog‘liq jinoyatlarning asosiy qismi moliyaviy firibgarlik (deepfake va ovozli klonlash) bilan bog‘liq bo‘lib, ularning ulushi 42,3 foizni tashkil etadi, ma’lumotlarni o‘g‘irlash va buzish 28,7 foiz, avtomatlashtirilgan kiberhujumlar 18,4 foiz, botnetlar va DDoS hujumlari 6,8 foiz hamda boshqa turdagi jinoyatlar 3,8 foizni tashkil etadi¹³.

Tadqiqot natijalari tahlili

Tadqiqot natijalari SI vositalari yordamida sodir etilgan jinoyatlar uchun javobgarlik subyektini aniqlashda uchta asosiy yondashuv mavjudligini ko‘rsatdi. Birinchi yondashuvga ko‘ra, SI tizimini yaratgan dasturchi yoki ishlab chiquvchi javobgar hisoblanadi, ikkinchi yondashuvda SI vositasidan foydalangan shaxsning javobgarligi ustuvor ahamiyat kasb etadi, uchinchi yondashuv esa SI tizimiga egalik qiluvchi yuridik shaxsning

javobgarligini nazarda tutadi¹⁴. Qiyosiy tahlil natijasida Yevropa Ittifoqida “AI Act” hujjati orqali SI tizimlarini xavf darajasiga ko‘ra tasniflash va yuqori xavfli tizimlarga nisbatan qat’iy talablar belgilash amaliyoti joriy etilgani, AQSHda ayrim shtatlarda, jumladan Kaliforniyada¹⁵ SI ishlab chiquvchilar uchun algoritmik audit tizimi qo‘llanilayotgani, Buyuk Britaniyada “Online Safety Act 2023” qonuni orqali onlayn platformalar mas’uliyati kuchaytirilgani¹⁶ hamda Xitoyda shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va ma’lumotlar xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan maxsus qonunlar qabul qilingani aniqlandi. Sud amaliyoti tahlili¹⁷ esa javobgarlikni belgilashda SI tizimining avtonomlik darajasi, ishlab chiquvchining ehtiyotkorlik choralari ko‘rganlik darajasi, foydalanuvchining SI tizimi faoliyati ustidan nazorati hamda yetkazilgan zarar ehtimoli va oqibatlarining og‘irligi kabi mezonlar asosiy ahamiyat kasb etishini ko‘rsatdi¹⁸.

O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining amaldagi normalari sun’iy intellekt (SI) bilan bog‘liq jinoyatlarni to‘liq qamrab olmaydi. Xususan, Jinoyat kodeksining 274-moddasi (kompyuter ma’lumotlariga noqonuniy kirish) va 278-moddasi (kompyuter tizimlari ishlashiga to‘sqinlik qilish) mavjud bo‘lsa-da¹⁹, mazkur normalar SI tizimlarining avtonom faoliyati bilan bog‘liq huquqiy muammolarni hal etmaydi. Fikrimizcha, amaldagi qonunchilikda bir qator jiddiy bo‘shliqlar mavjud. Jumladan, SI tizimlarining mustaqil harakatlari natijasi-

11 Interpol. Global Cybercrime Report 2023-2024. Lyon: INTERPOL, 2024. 203 p.

12 O‘zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi. Kiberxavfsizlik bo‘yicha yillik hisobot – 2024. Toshkent, 2024-yil, 67-bet.

13 Europol. Cybercrime Threat Assessment 2023. The Hague: Europol, 2023. 156 p.

14 Bryson J.J., Diamantis M.E., Grant T.D. Of, for, and by the people: the legal lacuna of synthetic persons // Artificial Intelligence and Law. 2017. Vol. 25. No. 3. P. 273-291.

15 California Legislative Information. SB-1047 Safe and Secure Innovation for Frontier Artificial Intelligence Models Act. Sacramento, 2024.

16 UK Parliament. Online Safety Act 2023. London: The Stationery Office, 2023. Chapter 50.

17 National People’s Congress of China. Personal Information Protection Law of the People’s Republic of China. Beijing, 2021.

18 Abbott R. The Reasonable Robot: Artificial Intelligence and the Law. Cambridge: Cambridge University Press, 2020. 298 p.

19 O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2020-yil, 9-son, 274- va 278-moddalari.



da sodir etilgan jinoyatlar uchun javobgarlik mexanizmi aniqlanmagan, algoritmik qarorlar qabul qilishda shaffoflikni ta'minlash majburiyati belgilanmagan, deepfake va ovoqli klonlash texnologiyalaridan foydalanish uchun alohida javobgarlik choralari nazarida tutuvchi normalar mavjud emas, shuningdek, SI ishlab chiquvchilarni sertifikatlashtirish va litsenziyalashtirish bo'yicha majburiy talablar joriy etilmagan. Tadqiqot jarayonida "algoritmik javobgarlik" kontsepsiyasi ishlab chiqildi. Ushbu kontsepsiya SI ishlab chiquvchilarning o'z mahsulotlari uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishini, SI tizimlarining shaffofligini ta'minlashga qaratilgan huquqiy mexanizmlarni joriy etishni hamda yuqori xavfli SI tizimlari uchun majburiy sertifikatlashtirish tartibini belgilashni nazarda tutadi.

Tadqiqot davomida qator nazariy va amaliy muammolar aniqlandi. Jumladan, "qora quti" muammosi ko'plab SI tizimlarida qarorlar qabul qilish mexanizmining tushunarsizligi bilan bog'liq bo'lib, bu holat sud-ekspertiza jarayonlarini sezilarli darajada murakkablashtiradi²⁰. Shuningdek, javobgarlik zanjiri muammosi mavjud bo'lib, SI tizimi yaratilishidan tortib amaliyotda qo'llanilishigacha bo'lgan jarayonda ishtirokchilarning ko'pligi aybdor shaxsni aniqlashni qiyinlashtiradi. Texnologiyalarning jadal rivojlanishi qonunchilikning ushbu jarayondan ortda qolishiga olib kelmoqda, SI bilan bog'liq jinoyatlarining transchegaraviy xususiyati esa xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yishni murakkablashtirmoqda. Ushbu muammolarni bartaraf etish maqsadida muallif SI tizimlarining ishlash tamoyillarini izohlab beruvchi algorit-

mik shaffoflik standartlarini ishlab chiqish, huquqiy tarmoqlararo yondashuv asosida javobgarlikni taqsimlash mexanizmlarini joriy etish, texnologik o'zgarishlarga tez moslashuvchi dinamik qonunchilik modelini yaratish hamda SI jinoyatchiligiga qarshi kurashish bo'yicha xalqaro konvensiya ishlab chiqishni taklif etadi²¹.

Tadqiqot natijalari Gabriel Hallevy²² va Ugo Pagallo²³ tomonidan ilgari surilgan nazariy yondashuvlar bilan uyg'un keladi. Biroq, mazkur tadqiqot ulardan farqli ravishda O'zbekiston Respublikasi qonunchiligining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda amaliy yo'naltirilgan takliflarni ilgari suradi. Ryan Calo va Danielle Citron²⁴ algoritmik shaffoflik masalasiga alohida e'tibor qaratgan bo'lsalar, biz ushbu yondashuvni majburiy sertifikatlashtirish mexanizmi bilan to'ldirishni taklif etamiz. Megan T. Stevenson va Jennifer L. Doleac²⁵ tomonidan sud amaliyotida SI tizimlaridan foydalanish masalalari bo'yicha bildirilgan xulosalar SI bilan bog'liq javobgarlikni belgilashdagi murakkabliklar haqidagi fikrimizni tasdiqlaydi. Stuart Russell²⁶ o'zining "Human Compatible: AI and the Problem of Control" asarida SI xavfsizligi muammolarini yoritib bergan bo'lib, biz taklif qilayotgan "algoritmik javobgarlik" kontsepsiyani ushbu g'oyalarning huquqiy davomi sifatida baholash mumkin.

Xulosa

Mazkur izlanishlar natijasida bir qator muhim xulosalarga kelindi.

Birinchidan, SI vositalari yordamida sodir etilgan jinoyatlar soni 2020–2024-yillar da-

20 Burrell J. How the machine "thinks": Understanding opacity in machine learning algorithms // *Big Data & Society*. 2016. Vol. 3. No. 1. P. 1-12.

21 Chesterman S. *We, the Robots? Regulating Artificial Intelligence and the Limits of the Law*. Cambridge: Cambridge University Press, 2021. 264 p.

22 Hallevy G. *When Robots Kill: Artificial Intelligence under Criminal Law*. Boston: Northeastern University Press, 2013. 256 p.

23 Pagallo U. *The Laws of Robots: Crimes, Contracts, and Torts*. Dordrecht: Springer, 2013. 214 p.

24 Calo R., Citron D.K. The Automated Administrative State: A Crisis of Legitimacy // *Emory Law Journal*. 2018. Vol. 70. No. 4. P. 797-845.

25 Stevenson M.T., Doleac J.L. *Algorithmic Risk Assessment in the Hands of Humans* // *IZA Discussion Paper*. 2021. No. 14444. P. 1-67.

26 Russell S. *Human Compatible: AI and the Problem of Control*. London: Penguin Books, 2019. 352 p.



vomida global miqyosda oshgan bo‘lib, ushbu tendensiya saqlanib qolmoqda. O‘zbekiston Respublikasida ham mazkur turdagi jinoyat ko‘rsatkichlari yuqori bo‘lib, milliy qonunchilikni takomillashtirish zarurligini yaqqol namoyon etadi.

Ikkinchidan, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi SI bilan bog‘liq jinoyatlar uchun javobgarlikni to‘liq tartibga solmaydi. Amaldagi 274- va 278-moddalar asosan texnik xususiyatdagi huquqbuzarliklarni qamrab oladi, biroq SI avtonomligi, algoritmik shaffoflik va ishlab chiquvchilarning mas‘uliyati masalalari qonunchilikdagi muhim bo‘shliqlarni tashkil etadi.

